<https://hujjat.sqb.uz/?pin=f053xF33&id=a48c2d46-f327-4f31-8425-9fe6d1c6a6cc>

**“O‘ZBEKISTON SANOAT - QURILISH BANKI”  
AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI**



**Kun tartibidagi 3 masala**

**Bank foydasini taqsimlash va Kengashning har bir mustaqil a’zolariga 2025-2026 korporativ yil uchun to’lanadigan mukofot va kompensatsiyaning eng yuqori miqdorini belgilash.**



**Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kun tartibidagi  
3-masala bo'yicha ma'lumot va taklif**

**Hurmatli aksiyadorlar!**

Bank Kengashining tavsiyalari asosida, 2024 yil uchun olingan 1 274 438 668 656,62 so'm miqdoridagi foydani quyidagicha taqsimlash tartibi, va korporativ yil uchun Bank Kengashining bir a'zosiga to'lanadigan mukofot va kompensatsiyalarning chegaraviy miqdorini belgilash taklif etiladi:

- Umumiy maqsadli zaxira fondi – 63 721 933 432,83 so'm;
  - Bankning imtiyozli aksiyalari bo'yicha dividendlar to'lash - 1 616 900 000,00 so'm;
  - Bankning oddiy aksiyalari bo'yicha dividendlar to'lash - 0 so'm;
  - Taqsimlanmagan foyda – 1 209 099 835 223,79 so'm.
- «O'zsanoatqurilishbank» ATB Kengashining har bir mustaqil a'zosiga to'lanadigan mukofotning chegaraviy miqdori – 2025-2026 korporativ yil uchun Kuzatuv Kengashining 2025-yil 4-iyundagi 2025/14-sonli Qarori asosida belgilangan.
- Kompensatsiyalar bo'yicha xarajatlar 2025-2026 korporativ yil uchun to'lanadigan mukofot haqining summasi 50 (ellik) foizidan oshmaydigan miqdorda belgilansin.
- Mukofot va kompensatsiyalar bo'yicha xarajatlar «O'zsanoatqurilishbank» ATB Kengashi a'zolariga to'lanadigan mukofot va kompensatsiyalar to'g'risida” gi Nizomga muvofiq amalga oshirilsin.

**Mazkur taklifni qo'llab-quvvatlashingizni so'raymiz.**

**Bank Kengashi**

**“O‘ZBEKISTON SANOAT - QURILISH BANKI”  
AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI**



**Kun tartibidagi 4 masala**

**2025-2026 korporativ yili uchun Bank Boshqaruvi a’zolariga to‘lanadigan mukofotning maksimal miqdorini belgilash.**

**Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kun tartibidagi**

**4-masala bo'yicha ma'lumot va taklif**

**Hurmatli aksiyadorlar!**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 29-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2024-yilgi Davlat budjeti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 422-son qarori asosida Bank Boshqaruvi a'zolariga to'lanadigan haq miqdorini tasdiqlash tartibi to'g'risidagi o'zgartirishlar bank ustaviga kiritildi. Ushbu hujjatlarga muvofiq, Boshqaruv a'zolariga to'lovlarning eng yuqori miqdori aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi.

Bank Ustaviga muvofiq, Bank Boshqaruvi tarkibiga 9 kishidan iborat:

- Kengash raisi (1)
- Boshqaruv raisining birinchi o'rinbosari (1)
- Boshqaruv raisi o'rinbosari (4)
- Risk bosh direktori (1)
- Departament direktori - bosh buxgalter (1)
- Yuridik departament direktori (1)

"O'zsanoatqurilishbank" ATB Boshqaruvi a'zolarining 2025-2026 korporativ yil ychun to'lanadigan mukofotning eng yuqori (maksimal) miqdori Kuzatuv Kengashining 2025-yil 4-iyundagi 2025/14-sonli Qarori asosida belgilangan.

**Mazkur taklifni qo'llab-quvvatlashingizni so'raymiz.**

**Bank Kengashi**

**“O‘ZBEKISTON SANOAT - QURILISH BANKI”  
AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI**



**Kun tartibidagi 5 masala**

**Bank Boshqaruvi raisi va Boshqaruv a'zolarining vakolatlarini 1 (bir) yilga  
tasdiqlash to'g'risida.**

**Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kun tartibidagi  
5-masala bo'yicha ma'lumot va taklif**

**«O'zsanoatqurilishbank» ATB Kengashining Bank Boshqaruvi Raisi va a'zolari vakolatlarini tasdiqlash to'g'risidagi**

**XULOSASI**

2024 yil davomida Bank faoliyati barqaror tarzda amalga oshirilgan, Bank Kengashi tomonidan tasdiqlangan Biznes-rejada belgilangan barcha ko'rsatkichlar bajarilgan. 2024 yil yakuniga ko'ra 1 274 438 668 656,62 so'm miqdorida sof foyda olingan.

Ushbu hisobot davri uchun «Standart & Poor's» xalqaro reyting agentligi Bankning xalqaro reytingini «BB-» darajasida, «Barqaror» prognozi bilan tasdiqlagan, hamda «Fitch Ratings» xalqaro reyting agentligi «BB-» darajasida, «Barqaror» prognozi bilan tasdiqlagan.

Bayon etilganlardan kelib chiqqan holda, Bank Kengashi Bank Aksiyadorlarining Umumiy yig'ilishiga Bank Boshqaruvi Raisi va a'zolari vakolatlarini tasdiqlash tavsiya qiladi: **(3-Ilova)**.





Akbarjonov Aziz Akbarjon o'g'li	Boshqaruv Raisi
Ergashev Anvarjon Abdumajitovich	Boshqaruv Raisining birinchi o'rinbosari
Yakubov Shuxrat Israilovich	Boshqaruv Raisi o'rinbosari
Abduvaliyev Sanjar Abduraxmanovich	Boshqaruv Raisi o'rinbosari
Umarov Davron Shavkatovich	Boshqaruv Raisi o'rinbosari
Ismagilov Salavat Foatovich	Risk Bosh direktori
Xujamuratov Abbas Mardanovich	Buxgalteriya hisobi va xisoboti departamenti direktori - bosh buxgalter
Vakant	Boshqaruv Raisi o'rinbosari
Vakant	Yuridik departamenti direktori



**Mazkur taklifni qo'llab-quvvatlashingizni so'raymiz.**

**Bank Kengashi**



**“O’zsanoatqurilishbank” ATB Boshqaruv a’zolari tarkibi**

<b>№</b>	<b>Nomzodlarning F.I.Sh.</b>	<b>Lavozimi</b>	<b>Asosiy faoliyat turi</b>	<b>Foto</b>
1	Akbarjonov Aziz Akbarjon o‘g‘li	Boshqaruv Raisi	Iqtisodiy soha	
2	Ergashev Anvarjon Abdumajitovich	Boshqaruv Raisining birinchi o‘rinbosari	Iqtisodiy soha	
3	Yakubov Shuxrat Israilovich	Boshqaruv Raisi o‘rinbosari	Iqtisodiy soha	
4	Abduvaliyev Sanjar Abduraxmanovich	Boshqaruv Raisi o‘rinbosari	Iqtisodiy soha	

5	Umarov Davron Shavkatovich	Boshqaruv Raisi o‘rinbosari	Iqtisodiy soha	
6	Ismagilov Salavat Foatovich	Risk Bosh direktori	Iqtisodiy soha	
7	Xujamuratov Abbas Mardanovich	Buxgalteriya hisobi va xisoboti departamenti direktori - bosh buxgalter	Iqtisodiy soha	
8	Vakant	Boshqaruv Raisi o‘rinbosari		
9	Vakant	Yuridik departamenti direktori		

**“O‘ZBEKISTON SANOAT - QURILISH BANKI”  
AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI**



**Kun tartibidagi 6 masala**

**2025 moliya yili bo'yicha Bankda tashqi auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun tashqi auditor tashkilotini va ushbu tashkilotning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p xaq miqdorini belgilash.**

**Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kun tartibidagi  
6-masala bo'yicha ma'lumot va taklif**

**Hurmatli aksiyadorlar!**

**Tashqi auditorni tanlash, bankning 2025 yil uchun faoliyatini audit qilish bo'yicha xizmatlari haqining chegarasini belgilash  
bo'yicha ma'lumot.**

"Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida" Qonunga muvofiq, moliya hisobotida va aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida taqdim etilgan buxgalterlik balansida, foyda va zararlar to'g'risida hisobotda mavjud bo'lgan ma'lumotlarning jamiyat yoki aksiyadorlar bilan mulkiy manfaatlar negizida bog'liq bo'lmagan auditorlik tashkiloti tomonidan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Ushbu Qonunning 59-moddasiga muvofiq, majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun auditorlik tashkilotini va uning xizmatiga to'lanadigan haqning maksimal miqdorini belgilash va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qilish aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolatlariga kiradi.

Yuqorida sanab o'tilgan talablarni hisobga olgan holda, tender 2025 yil 12 maydan 19 maygacha davr mobaynida, qonunchilik bilan belgilangan tartibga muvofiq, 2025 yilning birinchi yarim yilligi uchun va 2025 yil yakunlari uchun xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq holda tuzilgan bankning yillik moliyaviy hisobotini xalqaro audit standartlariga ko'ra tashqi auditorlik tekshiruvini o'tkazish maqsadida o'tkazilgan.

Tenderda ishtirok etish uchun, tenderning sifat bo'yicha talablariga mos bo'lgan tijorat takliflari kelib tushgan, "Pricewaterhousecoopers" MChJ dan 3 899 934 000,00 so'm miqdorida (QQS siz) va "Deloitte&Touche" MChJ 3 940 000 000,00 so'm miqdorida (QQS siz) taklif berilgan. Bankning xaridlar bo'yicha komissiyasi tomonidan, 2025 yil 19 maydagi qaroriga muvofiq, "Pricewaterhousecoopers" MChJ dan 3 899 934 000,00 so'm miqdorida (QQS siz) tijorat taklifi ham narxi jihatidan, ham sifati jihatidan eng maqbul taklif sifatida tan olingan.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, Bank Kengashi Sizdan "Pricewaterhousecoopers" MChJning 3 899 934 000,00 so'm miqdorida (QQS siz) taklifini tasdiqlashingizni so'raydi.

**Mazkur taklifni qo'llab-quvvatlashingizni so'raymiz.**

**Bank Kengashi**



**“O‘ZBEKISTON SANOAT - QURILISH BANKI”  
AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI**



**Kun tartibidagi 7 masala**

**“O‘zsanoatqurilishbank” ATBning “2024-2026 yillarda rivojlanish strategiyasi”  
maqsadli ko‘rsatgichlariga kiritilayotgan o‘zgarishlarni tasdiqlash to‘g‘risida.**

Strategik maqsad	Ko'rsatkich	2023 amalda	2024 amalda	2024 maqsadli ko'rsatkichlar	2024 maqsadli ko'rsatkichlar bajarilishi, %
RORAC o'sishi (Risk hisobga olgan holda tuzatilgan kapital rentabelligi)	Zahira qaytishisiz jami daromadlar	1 502	2 099	2 036	103,1%
	Foizli daromadlar (mlrd so'm)	1 248	1 820	1 606	113,3%
	Komission daromadlar* (mlrd so'm)	254	279	429	65,0%
Kredit portfeli rentabelligini oshirish	Kredit ajratilishi (mlrd so'm)	4 456	5 068	4 288	118,2%
	Kredit portfeli (mlrd so'm)	7 814	9 864	8 486	116,2%
Moliyalashtirishni diversifikatsiyalash	Depozit bazasi (mlrd so'm)	4 440	7 093	5 360	132,3%
	Kreditlarni depozitlarga nisbati (%)	176,0%	139,1%	158,3%	-19,2%

Bozor pozitsiyalarining o'zgarishi

Ko'rsatkichlar	2022 yil	2023 yil	2024 yil	O'zgarishi (2024-2023)
Jismoniy shaxslar depozitlari	4	5	6	-1
Jismoniy shaxslarning talab qilib olguncha depozitlari	8	8	8	0
Jismoniy shaxslarning muddatli depozitlari	5	7	7	0
Jismoniy shaxslar kredit portfeli	8	8	6	2
Chiqarilgan plastik kartalar soni	6	6	8	-2
Bankomat va infokiosklar soni	10	9	9	0
Masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchi jismoniy shaxslar soni	1	1	2	-1





Ключевые выводы

- Biznes reja bajarilishiga qaramasdan, Bank bozorda o'z o'rni va raqobatbardoshligini yo'qotmoqda. Bu joriy strategik kursni qayta ko'rib chiqish zaruriyatidan dalolat beradi. Shu sababli, rivojlanish strategiyasiga bankning bozordagi ulushini oshirish va mijozlarga taklifni kuchaytirishga qaratilgan o'zgarishlarni kiritish taklif etilmoqda.

\* Zahira qaytishisiz foizsiz daromadlar

# Moliyaviy ko'rsatkichlar

- Chakana biznes
- Mikro va kichik biznes
- Korporativ biznes





# O'zgartirish kiritilayotgan ko'rsatkichlar jadvali

Chakana biznes ko'rsatkichlari	2024 yil	2025 yil uchun tasdiq. reja	2025 yil uchun o'zgart. reja	Farqi		2026 yil uchun tasdiq. reja	2026 yil uchun o'zgart. reja	Farqi
Komission daromadlar (qayta baholashni hisobga olmagan holda), mlrd so'm	279	583	641	58		795	854	58
Depozit bazasi, mlrd so'm	7 093	9 631	10 631	1 000		10 525	11 525	1 000
Masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchi mijozlar soni bo'yicha bozordagi o'rni *	2		14,4%	1				

\*Masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchi mijozlar soni va Bank o'rni ko'rsatkichlari tasdiqlangan maqsadli ko'rsatkichlar kartasida ko'zda tutilmagan



# Moliyaviy ko'rsatkichlar

mlrd so'm

Ko'rsatkichlar	Amalda	Maqsadli ko'rsatkichlar						
	2024 yil	2025 y. strateg bo'yicha	2025 y. o'zgartirish taklifi	Tasdiql. reja bilan farqi		2026 y. strateg bo'yicha	2026 y. o'zgartirish taklifi	Tasdiql. reja bilan farqi
Jami aktivlar	87 597	90 848	91 848	1 000		101 816	102 816	1 000
Riskka tortilgan jami aktivlar	80 786	95 656	96 656	1 000		108 561	109 561	1 000
Kapital	10 271	13 610	13 610	0		16 513	16 513	0
Kredit liniyalarini kapitalga konvertatsiyasi/ AT1 obligatsiya chiqarilishi		2 110	2 110	0				
ROE (%)	13,9%	15,4%	15,4%	0%		19,3%	19,3%	0%
ROA (%)	1,62%	1,9%	1,9%	0%		3,0%	3,0%	0%
CIR (%)	51,9%	42,9%	42,9%	0%		38,3%	38,3%	0%
Kapital yetarliligi	15,6%	16,5%	16,5%	0%		17,9%	17,9%	0%
1-darajali kapital yetarliligi	10,6%	12,7%	12,7%	0%		12,7%	12,7%	0%
Sof foyda	1 303	1 648	1 648	0		2 903	2 903	0
Zahira qaytishsiz jami daromadlar	12 596	15 402	15 460	58		18 984	19 043	58
Korporativ biznes	5 701	6 158	6 158	0		7 155	7 155	0
Kichik va o'rta biznes	1 707	3 014	3 014	0		4 072	4 072	0
Chakana biznes	2 099	3 313	3 372	58		4 470	4 529	58
Foizli daromadlar	8 972	11 047	11 047	0		13 429	13 429	0
Korporativ biznes	4 693	4 892	4 892	0		5 390	5 390	0
Kichik va o'rta biznes	1 362	2 329	2 329	0		3 045	3 045	0
Chakana biznes	1 820	2 730	2 730	0		3 675	3 675	0
Foizli xarajatlar	5 659	6 838	6 896	58		7 960	8 019	58
Sof foizli daromadlar	3 313	4 209	4 151	-58		5 469	5 411	-58

# Moliyaviy ko'rsatkichlar

mlrd so'm

Ko'rsatkichlar	Amalda	Maqsadli ko'rsatkichlar						
	2024 yil	2025 y. strateg bo'yicha	2025 y. o'zgartirish taklifi	Tasdiql. reja bilan farqi		2026 y. strateg bo'yicha	2026 y. o'zgartirish taklifi	Tasdiql. reja bilan farqi
Jami foizsiz daromadlar (zahira qaytishisiz)	3 624	4 355	4 413	58		5 555	5 613	58
Korporativ biznes	1 008	1 266	1 266	0		1 765	1 765	0
Kichik va o'rta biznes	345	685	685	0		1 027	1 027	0
Chakana biznes	279	583	641	58		795	854	58
Foizsiz xarajatlar	2 183	2 082	2 082	0		2 425	2 425	0
<b>Sof foizsiz daromadlar</b>	<b>1 441</b>	<b>2 273</b>	<b>2 331</b>	<b>58</b>		<b>3 130</b>	<b>3 188</b>	<b>58</b>
<b>Operatsion xarajatlar</b>	<b>1 741</b>	<b>1 549</b>	<b>1 549</b>	<b>0</b>		<b>2 255</b>	<b>2 255</b>	<b>0</b>
<b>Qo'shimcha yaratiladigan zahiralar</b>	<b>1 399</b>	<b>2 874</b>	<b>2 874</b>	<b>0</b>		<b>2 715</b>	<b>2 715</b>	<b>0</b>
Zahira yaratish uchun xarajat	5 075	4 571	4 571	0		4 602	4 602	0
shundan: kreditlar uchun	3 937	3 642	3 642	0		3 386	3 386	0
boshqa aktivlar uchun	1 138	929	929	0		1 216	1 216	0
Zahira qaytishidan daromadlar	3 676	1 697	1 697	0		1 887	1 887	0
<b>Balansdagi zaxira qoldiqlari</b>	<b>3 021</b>	<b>5 900</b>	<b>5 900</b>	<b>0</b>		<b>7 715</b>	<b>7 715</b>	<b>0</b>
shundan: kreditlar bo'yicha	1 785	3 821	3 821	0		4 420	4 420	0
boshqa aktivlar bo'yicha	1 236	2 079	2 079	0		3 295	3 295	0
Balansdan tashqariga o'tkazish		700	700	0		900	900	0
<b>Kredit portfelning zahiralar bilan qoplanishi</b>	<b>2,7%</b>	<b>5,5%</b>	<b>5,5%</b>	<b>0%</b>		<b>5,9%</b>	<b>5,9%</b>	<b>0%</b>



# Moliyaviy ko'rsatkichlar

mlrd so'm

Ko'rsatkichlar	Amalda	Maqsadli ko'rsatkichlar						
	2024 yil	2025 y. strateg bo'yicha	2025 y. o'zgartirish taklifi	Tasdiql. reja bilan farqi		2026 y. strateg bo'yicha	2026 y. o'zgartirish taklifi	Tasdiql. reja bilan farqi
Kredit ajratilishi	35 242	35 129	35 129	0		39 970	39 970	0
Korporativ biznes	24 643	20 896	20 896	0		21 105	21 105	0
Kichik va o'rta biznes	5 531	8 082	8 082	0		11 315	11 315	0
Chakana biznes	5 068	6 150	6 150	0		7 550	7 550	0
Kredit portfeli	65 498	69 175	69 175	0		75 275	75 275	0
Korporativ biznes	45 192	41 080	41 080	0		42 389	42 389	0
Kichik va o'rta biznes	10 443	15 063	15 063	0		18 029	18 029	0
Chakana biznes	9 864	13 032	13 032	0		14 857	14 857	0
Portfelda KB ulushi (%)	69,0%	59,4%	59,4%	0%		56,3%	56,3%	0%
Portfelda KO'B ulushi (%)	15,9%	21,8%	21,8%	0%		24,0%	24,0%	0%
Portfelda CHB ulushi (%)	15,1%	18,8%	18,8%	0%		19,7%	19,7%	0%
NIM (%)	4,7%	5,4%	5,4%	0%		6,4%	6,4%	0%
NPL (%)	2,8%	3,5%	3,5%	0%		3,5%	3,5%	0%
Depozit bazasi	20 745	29 611	30 611	1 000		35 801	36 801	1 000
Korporativ biznes	11 471	15 298	15 298	0		17 992	17 992	0
Kichik va o'rta biznes	2 181	4 682	4 682	0		7 283	7 283	0
Chakana biznes	7 093	9 631	10 631	1 000		10 525	11 525	1 000
Kreditning depozitga nisbati (%)	315,7%	233,6%	226,0%	-7,6%		210,3%	204,5%	-5,7%

**“O‘ZBEKISTON SANOAT - QURILISH BANKI”  
AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI**



**Kun tartibidagi 8 masala**

**“O‘zsanoatqurilishbank” ATBning “Korporativ boshqaruv kodeksi”  
(yangi tahriri)ni tasdiqlash.**





«O'ZBEKISTON SANOAT-QURILISH BANKI»

AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI

«MA'QULLANGAN»  
«O'zsanoatqurilishbank» ATB  
Kengashi yig'ilishining  
bayonnomasi bilan  
№ \_\_\_\_, 2025 yil «\_\_» may

«TASDIQLANGAN»  
«O'zsanoatqurilishbank» ATB  
Aksiyadorlari umumiy yig'ilishi tomonidan  
№ \_\_\_\_, 2025 yil «\_\_» iyun

«O'ZSANOATQURILISHBANK» ATB NING  
KORPORATIV BOSHQARUV KODEKSI  
(yangi tahrirda)

## Mundarija

<b>MUQADDIMA</b>	3
<b>I. BANK TO'G'RISIDA</b>	4
<b>II. KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINING TAMOYILLARI</b>	4
<b>III. AKSIYADORLARNING HUQUQLARI VA ULARGA RIOYA QILISH</b>	5
Aksiyadorlarning huquqlari	5
Dividend siyosati	6
Fidutsiar majburiyatlar	7
Manfaatlar to'qnashuvi	7
<b>IV. KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINING TUZILISHI</b>	8
Korporativ boshqaruv tizimining tuzilishi	8
Bank Kengashi	8
Bank Boshqaruvi	11
Bank Kengashi huzuridagi Korporativ maslahatchi	12
<b>V. ICHKI NAZORAT VA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMLARI</b>	13
Ichki nazorat tizimi	13
Risklarni boshqarish jarayonini tashkil etish	13
Komplayens-nazorat departamenti	14
Ichki audit	15
Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati	15
<b>VI. HAQ TO'LASHTIRISH TIZIMI</b>	16
<b>VII. AXBOROTNI OSHKOR ETISH VA SHAFFOFLIK</b>	16
<b>VIII. BANK VA JAMIYAT</b>	17
<b>IX. NAZORAT VA JAVOBGARLIK</b>	18
<b>X. YAKUNIY QOIDALAR</b>	18

## MUQADDIMA

Biznesning barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida korporativ boshqaruvning yuksak standartlariga rioya qilishning muhimligini tan olib, shuningdek aksiyadorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini hurmat qilish va ta'minlashning ahamiyatini tushunib, «O'zsanoatqurilishbank» aksiyadorlik tijorat banki (keyingi o'rinlarda – «O'zsanoatqurilishbank» ATB, Bank) ushbu «O'zsanoatqurilishbank» ATB ning Korporativ boshqaruv Kodeksida (keyingi o'rinlarda - Kodeks) Bankda korporativ boshqaruv tizimining (keyingi o'rinlarda – Korporativ boshqaruv tizimi) asosiy yondashuvlarini, talablarini va amal qilish tamoyillarini ifodalaydi.

Kodeksni ishlab chiqishning asosiy maqsadi – aksiyadorlarning huquqlari va manfaatlarini ta'minlash, biznesni yuritish samaradorligini oshirish, shaffoflik va Bankning investitsion jozibadorligi darajasini oshirish, aksiyadorlik kapitalini saqlash va ko'paytirish maqsadida bizning amaldagi Korporativ boshqaruv tizimini ta'riflash, hamda uni keyingi takomillashtirish mexanizmini yaratish hisoblanadi.

Korporativ boshqaruv o'z tabiatiga ko'ra evolyutsiyaga moyil bo'lib, uni takomillashtirish erishilgan natijalarga va eng yaxshi bank amaliyotlariga asoslanadi. Ularni ishlab chiqish va joriy qilish davomida ushbu Kodeksning asosiy talablari vaqt-vaqti bilan qayta ko'rib chiqilishi yoki aniqlanishi mumkin.

Ushbu Kodeks – tamoyillarning jamlanmasi bo'lgan ommaviy hujjatdir. Korporativ boshqaruvning muayyan taomillari va amaliyoti Ustavda, hamda Bankning ichki hujjatlarida batafsil ta'riflangan va ular bilan tartibga solinadi, shu jumladan:

- Bank Kengashi to'g'risida Nizom;
- Bank Boshqaruvi to'g'risida Nizom;

Ushbu Kodeks O'zbekiston Respublikasining «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida», «Banklar va bank faoliyati to'g'risida» Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining 25.05.2020 yildagi №12/8-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Tijorat banklarida korporativ boshqaruv to'g'risida» Nizom, hamda korporativ boshqaruvning eng yaxshi xalqaro standartlari va amaliyoti me'yorlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

Kodeks Bankning boshqaruv va nazorat organlari uchun, hamda Bankning mansabdor shaxslari va xodimlari uchun majburiy hisoblanadi.

## I. BANK TO'G'RISIDA

1. «O'zsanoatqurilishbank» ATB – mijozlarning barcha toifalariga bank xizmatlarining to'liq ko'lamini taqdim etuvchi «O'zsanoatqurilishbank» ATB universal bank hisoblanadi.

2. Bank O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida» Qonunining me'yorlariga, O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining va/yoki boshqa vakolatlangan davlat organlarining litsenziyalari va ruxsatnomalariga muvofiq holda bank xizmatlarini taqdim etadi.

3. Bank faoliyatining asosiy maqsadi, ichki va xalqaro bank xizmatlarining to'liq ko'lamini taqdim etish, shu jumladan, tijorat, investitsion faoliyatni hamda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq banklar uchun ruxsat etilishi mumkin bo'lgan boshqa har qanday faoliyatni yuritish bilan bog'liq bo'lgan bank operatsiyalarini amalga oshirish orqali foyda olish hisoblanadi.

## II. KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINING TAMOYILLARI

4. Korporativ boshqaruv deganda aksiyadorlar, Bank Kengashi (keyingi o'rinlarda – Kengash), Bank Boshqaruvi (keyingi o'rinlarda – Boshqaruv) va boshqa manfaatdor shaxslar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tizimi tushuniladi, u Bankning maqsadlarini, ularga erishish usullarini belgilab beruvchi tashkiliy tuzilmani va mexanizmini ta'minlaydi, shuningdek, korporativ qarorlarni qabul qilish qoidalarini va taomillarini belgilab beradi, Bank faoliyatini boshqarishni va nazorat qilishni ta'minlaydi.

5. Korporativ harakatlarning mijozlar va ehtimoliy investorlar munosabatiga ta'sir etishini inobatga olgan holda, Bank yuksak va rivojlangan korporativ madaniyatli kompaniya bo'lishga intiladi.

Ushbu vazifani bajarishga qaratilgan harakatlar dasturi, xususan, Bankni samarali boshqarishni ta'minlashga, kelishilgan qarorlarni qabul qilishga, ishonchning o'sishiga va mas'uliyatning ortishiga, shu jumladan, aksiyadorlar, investorlar, mijozlar (shu jumladan omonatchilar) huquqlarini himoya qilishni ta'minlash uchun manfaatlar to'qnashuvini boshqarishga, axborotni oshkor qilishga ko'maklashishga va axborot shaffofligiga qaratilgan korporativ boshqaruvning shaffof va samarali modeli yaratilishini ko'zda tutadi.

Bank Korporativ boshqaruv tizimini yaratishda va rivojlantirishda quyidagi tamoyillarga tayanadi:

- aksiyadorlar huquqlari va manfaatlari ustuvorligi;
- biznesning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlash;
- biznesni boshqarishda vakolatlarni va mas'uliyatni farqlash;
- vakolatlilik va malakaning bank faoliyati ko'lamiga muvofiqligi;
- boshqaruv organlarining aksiyadorlarga to'liq hisobdorligi;
- ichki nazorat va risklarni boshqarish tizimlarining muvozanatlanganligi va samaradorligi;
- axborot shaffofligi.

6. Bank korporativ boshqaruvni o'z faoliyatining hajmi, xususiyatlarini, hamda bank xizmatlari va boshqa moliyaviy xizmatlarining xususiyatlari va hajmini, Bankning risklari

profilini hisobga olgan holda tashkil etadi.

7. Korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish ketma-ketligi va uning samaradorligini oshirish Bankning rivojlanishi strategiyasining bir qismidir.

### **III. AKSIYADORLARNING HUQUQLARI VA ULARGA RIOYA QILISH**

#### **Aksiyadorlarning huquqlari**

8. Bank aksiyadorlarga ularning O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilgan huquqlarini amalga oshirish uchun maksimal maqbul sharoitlarni yaratadi, va ushbu huquqlar buzilgan holda, ularni samarali himoyalashni ta'minlaydi. Bunda aksiyadorlarning qonuniy manfaatlarini hurmat qilish – korporativ boshqaruvning asosiy vazifalaridan biri deb hisoblanadi.

9. Bank, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq holda aksiyadorlarga Bank faoliyati to'g'risida to'liq va haqqoniy axborotni (shu jumladan, bular bilan cheklanmagan holda, Bankning moliyaviy-xo'jalik holati to'g'risida, uning faoliyati natijalari to'g'risida axborot, qimmatli qog'ozlarning qiymatiga ta'sir etishi mumkin bo'lgan axborot materiallari) o'z vaqtida olish huquqini beradi.

10. Aksiyadorlarning Bankni boshqarishda ishtirok etish huquqi, xususan, ularning Bank aksiyadorlarining umumiy yig'ilishida (keyingi o'rinlarda – Umumiy yig'ilish) ishtirok etishi orqali amalga oshiriladi. Bunda korporativ boshqaruv tizimi, ular Bankni boshqarishda ishtirok etish huquqini amalga oshirishida, barcha aksiyadorlarga nisbatan teng munosabatda bo'lishni ta'minlaydi.

11. Bank aksiyadorlarining huquqlarini amalga oshirish mexanizmlari Bank Ustavi va tegishli ichki hujjatlari bilan O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq belgilanadi.

12. Bank aksiyadorlarga o'zining Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqini, xususan, aksiyadorlarning vakillari orqali amalga oshirish imkonini beradi. Aksiyadorlarning vakillari ma'lum muddatga tayinlanadi. Bank aksiyadori istalgan paytda, Bank Kengashini bu haqda xabardor qilgan holda, o'zining Umumiy yig'ilishdagi vakilini chaqirib olish yoki almashtirish huquqiga ega bo'ladi.

13. Aksiyador Umumiy yig'ilishda ishtirok etish va ovoz berish huquqi yuzasidan ishonchnomani o'z vakillariga berishga haqlidir.

14. Bank, aksiyadorlar o'z huquqlarini suiiste'mol qilishining, ular insayderlik axborotidan noqonuniy foydalanishining oldini olishga, hamda ular tomonidan Bank faoliyatining barqarorligiga, foyda keltirishiga xavf solishi va/yoki Bankning bozor qiymati ortishiga to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan boshqa huquqqa qarshi harakatlar sodir etilishining oldini olishga qaratilgan usullardan izchil foydalanadi.

15. Umumiy yig'ilish Bankning oliy boshqarish organidir. Bank har yili aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini (yillik Umumiy yig'ilishni) chaqirishi shart. Yillik yig'ilishlardan tashqari, barcha qolgan Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishlari navbatdan tashqari yig'ilish hisoblanadi.

16. Umumiy yig'ilishni chaqirish va o'tkazish tartibi, hamda aksiyadorlarning huquqlari ro'yxati Bank Ustavida bayon etilgan.

17. Bank Kengashi Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilingan qarorlarning bajarilishini ta'minlaydi.

#### **Dividend siyosati**

18. Bank o'z aksiyadorlariga dividendlarni olish orqali uning foydasida ishtirok etishning adolatli imkoniyatini taqdim etadi. Bank aksiyadorlari ularga tegishli bo'lgan aksiyalar soniga proporsional miqdorda foyda qismini (dividendni) olish huquqiga ega bo'ladi. Bank aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga ko'ra, dividendlarni pul mablag'lari bilan, yoki boshqa qonuniy to'lov vositalari bilan, yoki bankning qimmatli qog'ozlari bilan to'laydi.

19. Dividendlar hisoblangan holda ularni to'lash (har yil choragida, yarim yilda, yil yakunlariga ko'ra), Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarori asosida Bankning tasarrufida qolgan hisobot davrining foydasi hisobiga, va/yoki taqsimlanmagan foydaning hisobiga, Umumiy yig'ilish tomonidan dividendlarni to'lash to'g'risida qaror qabul qilingan kundan boshlab 2 (ikki) oydan oshmagan muddatda amalga oshiriladi. Imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar Bankning ixtisoslashgan fondlari hisobiga to'lanishi mumkin.

20. Aksiyadorlarga dividendlarni to'lash to'g'risida qarorni qabul qilingan Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun shakllantirilgan Bank aksiyadorlarining reyestrda ro'yxatdan o'tgan shaxslar, aksiyalar bo'yicha dividendlarni olish huquqiga ega bo'ladi.

21. Bank quyidagi hollarda aksiyadorlarga dividendlarni to'lash orqali foydani taqsimlashga haqli emas:

- prudensial me'yorlar Markaziy bank tomonidan belgilangan talablarga mos bo'lmaganda, yoki ular ushbu taqsimotni buzganda;

- to'lovga layoqatsizlik (bankrotlik) mavjud bo'lganda, yoki ushbu taqsimot natijasida to'lovga layoqatsizlik (bankrotlik) belgilari paydo bo'lganda;

- bajarilishi majburiy bo'lgan Markaziy bankning taqdimnomasida aks ettirilgan, shu jumladan axborotni oshkor etish yuzasidan ko'rsatilgan, nuqsonlar bartaraf etilmaganda, yoki ularni bartaraf etish mumkin bo'lmaganda;

- Markaziy bankning Bankka nisbatan foydaning taqsimlanmasligi haqidagi so'rovi mavjud bo'lganda;

- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilgan boshqa holatlarda.

22. Bank quyidagi holatlarda aksiyalar bo'yicha dividendlarni to'lash to'g'risida qarorlarni qabul qilishga va dividendlarni to'lashga haqli emas:

- Bank tuzilgan davrida uning butun ustav kapitali to'liq to'languncha;

- agar dividendlarni to'lash davrida Bankda bankrotlik belgilari mavjud bo'lganda, yoki bunday belgilar Bankda dividendlarni to'lash natijasida paydo bo'lganda;

- agar Bankning sof aktivlarining qiymati uning ustav kapitali va zaxira fondining yig'indisidan kam bo'lsa;

- O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki tomonidan belgilangan iqtisodiy me'yorlarning buzilishi holatlari mavjud bo'lganda, shuningdek kreditorlar va omonatchilarning manfaatlari uchun jiddiy risklar yuzaga kelganda, dividendlarni to'lash paytida ushbu me'yorlar buzilishi tufayli, dividendlarni to'lash to'xtatib turilishi to'g'risida taqdimnomasi;

- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilgan boshqa holatlarda.



### **Fidutsiar (ishonchli) majburiyatlar**

**23.** Bankning mansabdor shaxslari o'z vazifalarini vijdonan, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga va Bankning ichki hujjatlariga muvofiq bajarishi kerak.

**24.** Bankning mansabdor shaxslari Bank, uning aksiyadorlari va mijozlarining manfaatlarida harakat qilishi, bunda Bankning manfaatlarini o'z shaxsiy manfaatidan yuqoriroq qo'yishi shart. Fidutsiar majburiyatlar, Bankning faoliyatini boshqarish va nazorat qilish uchun javobgar bo'lgan Bankning mansabdor shaxslariga yuklatiladi.

**25.** Bankning mansabdor shaxslari, xususan, quyidagilarga majbur bo'ladi:

- o'z xizmat vazifalarini bajarishga mas'uliyat bilan yondashish;
- unga berilgan vakolatlar doirasida qarorlarni qabul qilish;
- o'z xizmat maqomidan o'z manfaatlaridan foydalanmaslik;
- lavozimidan ozod etilganda, Bankning mulkini va hujjatlarini saqlashni va topshirishni ta'minlash.

### **Manfaatlar to'qnashuvi**

**26.** Manfaatlar to'qnashuvi – bunday shaxsning qarorlarni qabul qilishining ob'ektivligiga yoki xolisligiga, yoxud ushbu vakolatlarni amalga oshirishda harakatlarni bajarishiga yoki bajarmasligiga ta'sir ko'rsatuvchi, Bankning mansabdor shaxsi/ xodimining shaxsiy manfaati va uning xizmat yoki vakillik vakolatlari o'rtasidagi ziddiyatdir.

**27.** Manfaatlar to'qnashuvi, Bankning manfaatdor shaxsi sodir bo'lgan yoki sodir bo'lishi mumkin bo'lgan vaziyatdan (shartnomani imzolash, loyihani tasdiqlash va hokazo) manfaatdor bo'lishida, yoki ma'lum vaziyatda Bankning mansabdor shaxsining harakatlari oqibatida Bank o'zining manfaatlariga eng ko'p darajada mos bo'ladigan, ma'lum natijaga erisha olmasligidan manfaatdor bo'lishida ifodalanishi mumkin.

**28.** Manfaatlar to'qnashuvi fidutsiar majburiyatlarining buzilishi bilan uzviy bog'liq bo'ladi.

**29.** Manfaatlar to'qnashuvlarini boshqarish va oldini olishning umumiy me'yorlari Manfaatlar to'qnashuvlarini oldini olish va tartibga solish Siyosatida va «O'zsanoatqurilishbank» ATB da Manfaatlar to'qnashuvlarini boshqarish bo'yicha Nizomda keltirilgan.

**30.** Ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi, xususan, ushbu shaxs orqali Bank bilan bog'liq bo'lgan ehtimoliy yoki amaldagi mijoz, kontragent, qarzdor, kreditor, yetkazib beruvchi, maslahatchi/konsultant bilan, yoki shunday bog'liq bo'lgan boshqa ish hamkori bilan tranzaksiyalarni amalga oshirish imkoniyatini Bank ko'rib chiqayotganda, Bankning mansabdor shaxsida yuzaga keladi.

**31.** Bankning mansabdor shaxslari, Bank va uning aksiyadorlari manfaatlarida oqilona va vijdonan harakat qilib, qarorlarni qabul qilishda manfaatdorlik yoki manfaatlar to'qnashuvining mavjudligi to'g'risida o'z vaqtida bildirishi, yuzaga kelgan manfaatlar to'qnashuvlarini Bank va uning aksiyadorlari manfaatlarida hal qilishi, shu jumladan, manfaatlar to'qnashuvining yuzaga kelishiga olib keladigan yoki ehtimoliy olib kelishi mumkin bo'lgan harakatlardan o'zini tiyishi, ular bo'yicha qarorlarni qabul qilishda o'zining shaxsiy manfaatdorligi bo'lgan masalalar bo'yicha ovoz berishdan o'zini tiyishi shart.

**32.** Bank rahbarlari (shu jumladan, mustaqil tarkibiy bo'linmalarning rahbarlari),

operatsiyada yoki bitimda ularning o'z fidutsiar majburiyatlarini bajarishiga ta'sir etishi mumkin bo'lgan manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi to'g'risida o'z vaqtida xabardor etishi lozim.

**33.** Bankning o'zi bilan bog'liq bo'lgan shaxslar bilan shartnomalari amaldagi bozor shartlari asosida tuzilishi lozim.

**34.** Bank Kengashi Bankda manfaatlar to'qnashuvlari yuzaga kelishining oldini olishga qaratilgan choralarni amalga oshiradi, va ularni tartibga solishga yordam beradi.

## **IV. KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINING TUZILISHI**

### **Korporativ boshqaruv tizimining tuzilishi**


**35.** Korporativ boshqaruv tizimining asosiy elementlari:

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi – oliy boshqaruv organi, u orqali aksiyadorlar o'zining Bankni boshqarish huquqini amalga oshiradi.

Bank Kengashi – Bankni joriy boshqarishda ishtirok etmaydigan, lekin bunda Boshqaruvning faoliyati ustidan nazoratni, Bankning omonatchilari va boshqa kreditorlari hamda aksiyadorlarining huquqlarini himoya qilishni amalga oshiradigan kollegial organdir.

Bank Boshqaruv – Bankning joriy faoliyatini boshqarishni amalga oshiradigan va Bank Kengashi tomonidan belgilangan strategiyalarni amalga oshiradigan kollegial ijroiya boshqaruv organidir.

Korporativ boshqaruv tizimining sxematik tuzilishi quyidagi rasmda berilgan:



### **Bank Kengashi**

**36.** Bank Kengashi Bank Boshqaruvining faoliyati ustidan nazoratni, Bankning omonatchilari va boshqa kreditorlari hamda aksiyadorlarining huquqlarini himoya qilishni



amalga oshiradigan kollegial organdir.

**37. Bank Kengashining asosiy vazifalari:**

- Bankning rivojlanish strategiyasini va uning faoliyatining ustuvor yo‘nalishlarini belgilash;
- Bankning moliyaviy-xo‘jalik faoliyati ustidan samarali nazoratni ta‘minlash;
- risklarni boshqarish tizimining ishlashini hamda samaradorligini nazorat qilishni ta‘minlash;
- Bankning omonatchilari va boshqa kreditorlari hamda aksiyadorlarining huquqlarini himoya qilishni amalga oshirish, korporativ nizolarning hal etilishiga ko‘maklashish;
- Boshqaruv faoliyatini nazorat qilish va tartibga solish;
- O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va Bankning ichki hujjatlariga muvofiq holda, boshqa vazifalar.

**38. Bank Kengashi quyidagi funksiyalarni bajaradi:**

- Bankning biznes-rejasini, Bankning risklarga oid va bunday risklarni boshqarish tartibotlariga oid siyosatini, reglamentlari, kodekslari, ichki siyosatlari va nizomlarini, shu jumladan, Bank Kengashiga bevosita bo‘ysunuvchi bo‘linmalar nizomlarini tasdiqlaydi va ularning bajarilishi monitoringini amalga oshiradi;
- Bank Kengashining a‘zolari tarkibida qo‘mitalarni tuzadi, ularning maqsadi Bank Kengashiga Bankni boshqarish va uning faoliyatini yuritishning muhim masalalari bo‘yicha eng samarali qarorlarni ishlab chiqishda ko‘maklashish hisoblanadi;
- Bankning korrupsiyaga, xizmat maqomini suiiste‘mol qilishga, hamda uning ichki va tashqi faoliyatidagi boshqa etikaga mos bo‘lmagan, noqonuniy va shubhali harakatlar jihatlariga munosabatini belgilab beradigan Etika Kodeksini tasdiqlaydi;
- muvofiq bo‘lmagan xulq haqida xabar berish tizimining samaradorligini ta‘minlash maqsadida, o‘zining a‘zolaridan biriga yoki tegishli qo‘mitaga muvofiq bo‘lmagan xulq haqida xabarlarini qabul qilish vazifasini yuklaydi;
- muvofiq bo‘lmagan xulq haqida xabar berish mexanizmlarini va ular bo‘yicha ko‘rilishi lozim bo‘lgan choralarni belgilaydi;
- muvofiq bo‘lmagan xulqni aniqlash va tekshirish choralarning qo‘llanishi ustidan nazorat qiladi.
- korporativ boshqaruvning sifatini kamaytirishi mumkin bo‘lgan faoliyatni, munosabatlarni va vaziyatlarni, xususan, manfaatlar to‘qnashuvini va Bank bilan bog‘liq bo‘lgan shaxslar bilan operatsiyalarni taqiqlaydigan (yoki cheklaydigan) siyosatlarni va tartibotlarni tasdiqlaydi;
- Bank strategiyasini, hamda yuqorida ko‘rsatilgan faoliyatni, munosabatlarni va vaziyatlarni aniqlashni va oldini olishni ta‘minlash uchun, va agar ularning odini olish mumkin bo‘lmasa, ularni tegishli boshqarish uchun yaratilgan va tasdiqlangan tartibotlarni Boshqaruv tomonidan joriy etish maqsadida barcha zaruriy choralarni amalga oshiradi.

Bank Kengashi, Bankni strategik boshqarishni ta‘minlash uchun, hamda Bank Kengashi

to‘g‘risidagi Nizomga kiritilgan vazifalarning ro‘yxati bajarilishi uchun javobgar bo‘ladi.

**39.** Bank Kengashi a‘zolarining ishlashi tartibi, ularga haq to‘lanishi va ularning javobgarligi O‘zbekiston Respublikasining «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida», «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida» Qonunlari, Bank Ustavi, Bank Kengashi to‘g‘risidagi Nizom bilan, Bankning boshqa ichki hujjatlari bilan, hamda Bank va Bank Kengashining a‘zolari o‘rtasida tuzilgan shartnomalar bilan belgilanadi.

**40.** Boshqaruvning faoliyati ustidan nazorat qilish vazifalarini bajarib, Bank Kengashi Boshqaruv a‘zolarini tayinlaydi/saylaydi, nazorat qiladi va ularning vakolatlarini to‘xtatadi.

Bank Kengashi o‘z vakolatlari doirasida, shu jumladan o‘zining Boshqaruv a‘zolaridan aniq tushuntirishlarni talab qilish, shuningdek ularning Boshqaruv faoliyatining sifatini baholash uchun yetarli axborotni o‘z vaqtida taqdim etishni talab qilish huquqini amalga oshirib, Boshqaruvning faoliyati ustidan nazorat qiladi.

**41.** Bank Kengashi, Bank ko‘lamiga, faoliyatining xususiyatiga, bank xizmatlari va boshqa moliyaviy xizmatlarining xarakteriga va hajmiga, bankning tasdiqlangan risk profiliga mos bo‘lgan majmuiy, adekvat va samarali risklarni boshqarish tizimining yaratilishi uchun to‘liq javobgar bo‘ladi.

**42.** Bank Kengashi Bankning ichki nazorat tizimining samarali ishlashini nazorat qiladi, hamda aloqa kanallarini yaratadi va qo‘yilgan korporativ maqsadlarga erishish va tegishli strategiyalarni amalga oshirish ishlari qanday o‘tkazilayotganligini kuzatadi.

**43.** Bank Kengashi Bank aksiyadorlari, ularning vakillari va mustaqil a‘zolari ichidan kamida 9 (to‘qqiz) a‘zo miqdorida Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan saylanadi. Bank Kengashining shaxsiy tarkibi Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va Bank Ustavi talablarini hisobga olgan holda aniqlanadi.

**44.** Bank Kengashining a‘zolari kasbiy yaroqlilik mezonlariga mos bo‘lishi va nuqsonsiz ishbilarmonlik obro‘sigaga ega bo‘lishi lozim.

**45.** Bank Kengashining a‘zolari, Bank Kengashining a‘zosi va Bank Kengashi huzuridagi qo‘mitalarning a‘zosi vazifalarini bajarishdan tashqari, Bank Boshqaruvi tarkibiga kira olmaydi, va Bankda mehnat shartnomasi (kontrakti) shartlari asosida boshqa lavozimlarni egallashi, yoki Bankka fuqarolik-huquqiy shartnomaga muvofiq xizmat ko‘rsatishi mumkin emas.

**46.** Bank Kengashining kamida 50% qismi mustaqil a‘zolardan iborat bo‘lishi lozim. Quyidagi shaxs Bank Kengashining mustaqil a‘zosi deb tan olinadi:

- jamiyatda va (yoki) jamiyatning affillangan shaxslarida oxirgi uch yil davomida ishlamagan;
- jamiyatning aksiyadori va (yoki) jamiyatning affillangan shaxslarining ta‘sischisi (aksiyadori, ishtirokchisi) emas;
- jamiyatning va (yoki) jamiyatning affillangan shaxsining yirik mijozi bilan va (yoki) yirik yetkazib beruvchisi bilan fuqarolik-huquqiy munosabatlarga ega emas. Bunda, ular bilan ikki ming minimal ish haqi baravaridan ortiq bo‘lgan miqdorda amaldagi shartnoma tuzilgan shaxslar yirik mijozi va yirik yetkazib beruvchi deb tan olinadi;
- Bank Kengashining a‘zosi va Bank Kengashi qo‘mitalarining a‘zosi vazifalarini va

funksiyalarini bajarishni ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan kelishuvlardan tashqari, jamiyat bilan va (yoki) jamiyatning affillangan shaxslari bilan hech qanday kelishuvlarga ega emas;

- jamiyatning boshqarish organlari va jamiyatning va (yoki) jamiyatning affillangan shaxslarining ichki nazorati a'zosi bo'lgan yoki oxirgi uch yil ichida bo'lgan shaxs emas, yoki uning eri (xotini), ota-onasi (o'g'il, qiz qilib olgan), farzandi (o'g'il, qiz qilib olingan), tug'ishgan yoki o'gay aka-ukasi yoki opa-singlisi emas;

- davlat boshqarish organining yoki davlat korxonasining xodimi emas.

**47.** Bank Kengashi Kengashning faoliyatini baholashni mustaqil tashkil etadi va o'tkazadi. Bank Kengashi o'z faoliyatini o'zi baholashi Bank Kengashining umuman faoliyatini baholashni, uning qo'mitalari faoliyatini baholashni va Bank Kengashining har bir alohida a'zosining faoliyatini baholashni o'z ichiga oladi.

Bunda Bank Kengashi o'z-o'zini baholashni o'tkazishning asosiy mezonlarini va tamoyillarini belgilaydigan «O'zsanoatqurilishbank» ATB ning Bank Kengashi faoliyatini baholashni o'tkazish to'g'risida» Nizomiga tayanadi.

#### **Bank Boshqaruvi**

**48.** Bank Boshqaruvi Bankning joriy faoliyatini boshqaruvchi, Boshqaruv Raisi rahbarligidagi doimiy faoliyat yurituvchi kollegial ijroiya boshqaruv organi bo'lib, o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga, O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining me'yoriy-huquqiy hujjatlariga, Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining, Bank Kengashining qarorlariga, Bank Ustaviga va Bankning boshqa ichki hujjatlariga tayanadi.

**49.** Boshqaruv Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga va Bank Kengashiga hisobdor bo'ladi va ularning qarorlari bajarilishi uchun mas'ul bo'ladi.

**50.** Boshqaruv faoliyatining asosiy tamoyillari kasbiy mahorat, oqilonalik, vijdoniylik, ehtiyotkorlik va o'z vaqtidalik hisoblanadi. Boshqaruv a'zolari o'z qarorlarini qabul qilishda Bank aksiyadorlari, mijozlari, xodimlari oldidagi mas'uliyatining darajasini anglab yetishi, va Bank faoliyatiga rahbarlik qilishga oid vazifalarini vijdonan bajarishi kerak.

#### **51. Boshqaruvning asosiy vazifalari:**

- Bank Ustavi bilan, aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va Bank Kengashining qarorlari bilan va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan belgilangan vakolatlari doirasida, Bankning joriy faoliyatini samarali boshqarish;

- Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining va Bank Kengashining qarorlari bajarilishini ta'minlash, Bankning rivojlanish strategiyasi qoidalarini amalga oshirish, Bank raqobatbardoshligini va foydaliligini oshirishga, uning barqaror moliyaviy-iqtisodiy holatini ta'minlashga yo'naltirilgan siyosatni yuritish, aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish, ularning investitsiyalari samaradorligini ta'minlash, Bankning mijozlari oldidagi majburiyatlarini bajarish, ularga xizmat ko'rsatishning sifatini oshirish;

- Bank Kengashining risklarni boshqarish tizimini joriy qilish bo'yicha vazifalari va qarorlari bajarilishini ta'minlaydi.

**52.** Boshqaruv Bank budgetini va rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda ishtirok etadi. Boshqaruv Bank to'g'risida, uning resurslari va ehtiyojlari to'g'risida barcha zaruriy axborotga ega bo'ladi, va ularning ro'yobga chiqarilishi uchun javobgar bo'ladi. Bank budgetini va

rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish jarayonida, Boshqaruv ushbu hujjatlarni tasdiqlaydigan Bank Kengashi bilan yaqin hamkorlik qiladi. Boshqaruv kamida yilda bir marta aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishida ijroiya boshqaruv organi sifatida aksiyadorlarga o'z faoliyati to'g'risida hisobot beradi.

Boshqaruvning vakolatlari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, Bank Ustavi va Boshqaruv to'g'risidagi Nizom bilan belgilanadi.

**53.** Boshqaruv Bank Kengashi tomonidan saylanadi (tayinlanadi). Boshqaruvning tarkibini shakllantirishda, Bank Kengashi Boshqaruv a'zosining O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy-huquqiy hujjatlari bilan belgilangan malakaviy talablarga va ish obro'si talablariga muvofiqligini hisobga olishi lozim. Bank Boshqaruvining jamoaviy ishga muvofiqligi Bank ko'lamiga, faoliyatining xususiyatiga, bank xizmatlari va boshqa moliyaviy xizmatlarining xarakteriga va hajmiga, Bankning risk profiliga mos bo'lishi kerak.

**54.** Boshqaruv kamida yilda bir marta Bank Kengashiga, Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga Bankning moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalari to'g'risida hisobotni taqdim etadi. Hisobot har tomonlama bo'lishi, hamda boshqaruv sohasidagi oxirgi ijobiy moyilliklarga va eng yaxshi amaliyotga muvofiq bo'lishi lozim.

**55.** Boshqaruvning vakolatiga, Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi va Bank Kengashining vakolatiga kiritilgan masalalardan tashqari, Bankning joriy faoliyatini boshqarish bilan bog'liq bo'lgan barcha masalalarni hal etish kiradi.

**56.** Boshqaruvning vakolatlari Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga binoan, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan belgilangan doirada, Bank Ustaviga va Boshqaruv to'g'risidagi Nizomga tegishli o'zgartirishlarni kiritgan holda, o'zgartirilishi mumkin.

**57.** Boshqaruv Raisi Boshqaruvning faoliyatiga rahbarlik qiladi, Boshqaruvning ishini tashkil qiladi, Boshqaruvning majlislarini chaqiradi, Boshqaruvning majlis bayonnomalari yuritilishini ta'minlaydi.

**58.** Boshqaruv Raisi Bankning buxgalterlik (moliyaviy) hisobotini tayyorlash tizimining tashkil etilishi va uning haqqoniyligi uchun, axborotning o'z vaqtida oshkor etilishi uchun va Bankning aksiyadorlariga, mijozlariga va boshqa manfaatdor shaxslarga Bankning faoliyati to'g'risida ma'lumotlarning taqdim etilishi uchun javobgar bo'ladi.

#### **Korporativ maslahatchi**

**59.** Bankning boshqarish, nazorat organlari va mansabdor shaxslari, korporativ boshqaruvning tartibotlariga, aksiyadorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlari amalga oshirilishini kafolatlaydigan amaldagi qonunchilikning, Bank Ustavining, ushbu Kodeksning hamda Bank ichki hujjatlarining talablariga rioya etishini ta'minlash maqsadlari uchun, Bankda Bank Kengashi huzuridagi Korporativ maslahatchi (keyingi o'rinlarda – Korporativ maslahatchi) lavozimi ko'zda tutilgan.

**60.** Korporativ maslahatchi Bank Kengashining qarori bilan lavozimiga tayinlanadi va undan ozod etiladi. U o'z faoliyatida Bank Kengashining Raisiga hisobdor bo'ladi va uning nazorati ostida bo'ladi. Korporativ maslahatchining faoliyati «O'zsanoatqurilishbank» ATB Kengashi huzuridagi Korporativ maslahatchi to'g'risidagi Nizom bilan tartibga solinadi.

**61.** Korporativ maslahatchi Bankning mansabdor shaxsi va Bankning tarkibiy bo'linmasi – Korporativ boshqaruv xizmatining rahbari hisoblanadi.

**62.** Korporativ maslahatchining asosiy vazifasi aksiyadorlar va Bank o'rtasida, Bank Kengashi va Boshqaruv o'rtasida samarali o'zaro hamkorlikni tashkil etish, shu jumladan Bank Aksiyadorlari umumiy yig'ilishining va Bank Kengashining qarorlarini bajarish bo'yicha ijro intizomini nazorat qilish hisoblanadi.

**63.** Bank Korporativ maslahatchining mustaqilligini ta'minlash uchun zaruriy choralarni ko'radi, Korporativ maslahatchining o'z funksiyalarini to'siqsiz va samarali amalga oshirishi uchun sharoitlarni yaratadi.

**64.** Bank Kengashi huzuridagi qo'mitalarning ishini nazorat qiladi.

**65.** Bank Kengashining majlislarini tayyorlaydi va tashkil etadi.

**66.** Aksiyadorlarning navbatdagi va navbatdan tashqari umumiy yig'ilishlarini tayyorlaydi va tashkil etadi.

## **V. ICHKI NAZORAT VA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMLARI**

### **Ichki nazorat tizimi**

**67.** Ichki nazorat tizimi – ichki nazorat organlari va yo'nalishlari tizimining jamuljamligi bo'lib, qonunchilik va Bankning ichki hujjatlari bilan belgilangan maqsadlarni amalga oshirish va ularga erishish tartibiga rioya qilishni ta'minlaydi.

Bank Kengashi Bankdagi ichki nazorat va risklarni boshqarish tizimlarini tashkil etishning tamoyillarini va yondashuvlarini belgilash uchun javobgar bo'ladi.

Boshqaruv Bankda samarali ichki nazorat va risklarni boshqarish tizimlarini yaratishni va ishlashini qo'llab-quvvatlashni ta'minlaydi, hamda Bank Kengashining ushbu sohalaridagi qarorlari bajarilishi uchun javobgar bo'ladi.

**68.** Bank ichki nazorat tizimini tashkil etishda quyidagi tamoyillarga tayanadi:

- ta'sirchanlik va samaradorlik - Bankning joriy faoliyatiga integratsiyalangan, doimiy ichki nazorat jarayonini tashkil etish;

- vazifalarni taqsimlash - nazorat funksiyasini bank operatsiyalarini amalga oshirishdan chegaralab ajratish;

- har tomonlamalik - Bank va uning barcha bo'linmalari faoliyatining barcha turlarini qamrab olish;

- o'z vaqtidalik – Bank yo'qotishlarining yuzaga kelishi to'g'risida axborotni, bunday yo'qotishlar amalga oshishidan avvalroq olish imkonini beradigan ichki nazorat tizimini yaratish;

- mustaqillik - ichki nazorat tizimining samaradorligini baholash funksiyasini uni tashkil etish va amalga oshirish funksiyalaridan ajratish;

- maxfiylik - yopiq axborot oshkor etilishiga yo'l qo'ymaslik.

### **Risklarni boshqarish jarayonini tashkil etish**

**69.** Bank tomonidan qo'llanadigan risklarni boshqarish tizimi O'zbekiston Respublikasining Markaziy Banki tomonidan belgilangan, hamda Bazel bank nazorati qo'mitasi tomonidan tavsiya etilgan standartlar va vositalarga asoslanadi, va eng yaxshi jahon amaliyotlari

talablariga mos bo'ladi.

Bankda, uning faoliyati xususiyatlarini, operatsiyalarining xarakteri va hajmlarini, Bankning risk-profilini hisobga olgan holda, majmuiy, adekvat va samarali risklarni boshqarish tizimi yaratilgan.

Risklarni boshqarish tizimi o'z vaqtida va adekvat boshqaruv qarorlarini qabul qilish maqsadida, ular bilan bog'liq bo'lgan risklarni yumshatish va yo'qotishlarni (zararlarni) kamaytirish yuzasidan risklarni to'xtovsiz tahlil qilishni ta'minlaydi.

Bankda tashkil etilgan risklarni boshqarish tizimi, uchta himoya chizig'i modelini qo'llagan holda, Bank bo'linmalari o'rtasida vazifalar taqsimlanishiga asoslanadi:

- birinchi chizig'i - Bankning biznes-bo'linmalari darajasida. Risklarni qabul qiladigan va joriy risklarni boshqarish uchun javobgar bo'lgan bo'linmalar.

- ikkinchi chizig'i - Risklar boshqarmasi va Komplayens-nazorat departamenti darajasida. Ushbu bo'linmalar biznes-bo'linmalaridan mustaqil tarzda, biznes-bo'linmalar tomonidan qabul qilingan risklar darajasini baholaydi va kuzatadi (monitoring qiladi). Shu jumladan, Bank Boshqaruvi va Kengashining risk darajasini adekvat baholashini va hisobotini ta'minlaydi.

- uchinchi chizig'i - Ichki audit departamenti darajasida, risklarni boshqarish tizimining ishlashini tekshirish va samaradorligini baholash yuzasidan.

**70.** Integratsiyalangan risklarni boshqarish tizimining asosiy vazifalari, Bankni boshqarish jarayonining tarkibiy qismi sifatida, risklarni boshqarish standartlarini, tamoyillarini, limitlari va cheklovlarini joriy qilish, risklar darajasini monitoring qilish va risklar bo'yicha hisobotni shakllantirish, qabul qilingan risklar darajasining belgilangan risklar ishtahasining limitlariga muvofiqligini ta'minlash, risklarning umumiy profilini modellashtirish va shakllantirish hisoblanadi.

**71.** Qabul qilingan risklarni samarali rejalashtirish va nazorat qilishni ta'minlash maqsadida, risklarni boshqarish funksiyalari Bank Kengashi, Boshqaruvi, Boshqaruv Raisi, Bosh risklar direktori, Risklarni boshqarish departamentining direktori, hamda Bankning boshqa bo'linmalari o'rtasida taqsimlangan. Risklarni boshqarish tizimida vakolatlarining taqsimoti O'zbekiston Respublikasining Markaziy Bankining va Bazel bank nazorati qo'mitasining talablariga va tavsiyalariga muvofiq keladi.

**72.** Samarali risklarni boshqarish tizimi Bank ichida ham, aksiyadorning jarayonida ham, Bank Boshqaruvining/nazorat bo'linmalarining – Bank Kengashiga hisoboti orqali risklar to'g'risida aniq kommunikatsiyalar bo'lishini talab qiladi.

### **Komplayens-nazorat departamenti**

**73.** Komplayens-nazorat departamenti o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga, qonun osti me'yoriy hujjatlariga, Bankning ichki hujjatlariga, xususan, Bank Ustaviga, aksiyadorlar umumiy yig'ilishining, Bank Kengashining va Boshqaruvning qarorlariga, Bankning vakolatli rahbarlarining buyruqlariga va farmoyishlariga tayanadi.

**74.** Komplayens-nazorat departamentining asosiy vazifasi, Bankning qonunchilikka hamda Bank tomonidan mijozlar, aksiyadorlar, davlat, jamiyat va boshqa kontragentlarning oldida o'z zimmasiga olgan ahamiyatli majburiyatlariga rioya etilmaslikka yo'l qo'ymaslik maqsadida, komplayens-nazoratni ta'minlash, shu jumladan operatsion riskni minimallashtirish



hisoblanadi.

#### **Ichki audit**

**75.** Ichki audit departamenti Bankning boshqaruv va nazorat organlariga qo'yilgan maqsadlariga erishishda, Bank faoliyatining samaradorligini va natijadorligini ta'minlashda ko'maklashadi, va o'z faoliyatini faoliyat doimiyliigi, mustaqillik, xolisonalik, halollik, ob'ektivlik hamda kasbiy vakolat va malakalilik tamoyillariga rioya qilgan holda amalga oshiradi.

**76.** Ichki audit departamenti butun ichki nazoratning ishlashi tizimi bo'ylab tekshirish chora-tadbirlarini amalga oshiradigan, Bank Kengashiga hisobdor bo'lgan va uning nazorati ostida bo'lgan, Bankning doimiy faoliyat yuritadigan mustaqil tarkibiy bo'linmasi hisoblanadi.

**77.** Bank Ichki audit departamentining mustaqilligini va xolisonaligini ta'minlash uchun zaruriy choralarini ko'radi, uning funksiyalari to'siqsiz va samarali amalga oshirilishi uchun sharoitlarni yaratadi.

**78.** Ichki audit departamenti Bank faoliyatining barcha yo'nalishlari bo'ylab tekshirishlarni o'tkazadi, tekshirishlarning natijalariga ko'ra aniqlangan, bo'linmalar va boshqaruv organlari tomonidan amalga oshiriladigan, risklar darajasining kamayishini ta'minlaydigan choralarning samaradorligi ustidan nazorat qiladi.

**79.** Ichki audit departamenti o'z faoliyatida ichki audit sohasidagi eng yaxshi amaliyotlarni, shu jumladan ichki auditning kasbiy amaliyotining xalqaro asoslarini qo'llashi lozim.

#### **Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati.**

**80.** 3. Xizmat bankda korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va oldini olish, ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik hamda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish choralarini ko'rishga mas'ul hisoblanadi.

**81.** Xizmat Bankning tarkibiy bo'linmasi hisoblanib, Bank Kuzatuv kengashiga bo'ysunadi va hisobdor hisoblanadi hamda Bankning boshqa tarkibiy bo'linmalaridan mustaqil hisoblanadi.

**82.** Xizmatning maqsadi quyidagilardan iborat:

- bankda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ISO 37001:2016 xalqaro standarti talablariga javob beruvchi kompleks tizimni joriy etish va rivojlantirish;
- korrupsiyaviy holatlarni barvaqt aniqlash hamda ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish;
- korrupsiyaviy xatti-harakatlar sodir etilishining oldini olish;
- xodimlarda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish maqsadida ularning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish;
- korrupsiyaga qarshi profilaktik chora-tadbirlarni tashkil etish;
- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi hujjatlar ijrosini ta'minlash.

**83.** Xizmat bankda ikkinchi himoya chizig'ini tashkil etadi va bankning biznes hamda ish jarayonlari (birinchi himoya chizig'i) faoliyatiga aralashmaydi. Biznes va ish jarayonlari

amaldagi qonunchilik, jumladan, korrupsiyaga qarshi kurashish hujjatlariga nomuvofiq bo'lgan hollarda, mazkur biznes va ish jarayonlarini boshqaradigan tarkibiy bo'linma va bank xizmatlari ofisi (keyingi o'rinlarda – "BXO")/bank xizmatlari markazi (keyingi o'rinlarda – "BXM")ga nisbatan chora ko'rish, xususan, nomuvofiq jarayonlarni zudlik bilan to'xtatilishi va amaldagi qonun hamda qonunosti hujjatlar talablariga muvofiqlashtirilishi yuzasidan Bank rahbariyatiga taqdimnoma (bildirishnoma, ma'lumotnoma, asoslantirilgan tahliliy materiallar va boshqa shu kabilarni) kiritadi.

#### **VI. HAQ TO'LASH TIZIMI**

**84.** Bankdagi haq to'lash tizimi samarali korporativ boshqaruvni, risklarni boshqarishni ta'minlaydi, Bankning strategik maqsadlarini hisobga oladi va korporativ qadriyatlariga rioya qilinishiga ko'maklashadi.

**85.** Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishlari Bankning ijroiya organiga va Kengashning a'zolariga ularning o'z vazifalarini bajarishi davri uchun haq to'lash va (yoki) kompensatsiyalarni to'lash miqdorini tasdiqlaydi.

Boshqaruv, ichki hujjatlarni hisobga olgan holda, Bankning boshqa xodimlarining haq to'lanishi miqdorini ta'minlaydi.

**86.** Nazorat bo'linmalari xodimlariga haq to'lash miqdori ularning ishlashi samaradorligini hisobga olgan holda, ularning nazorati ob'ekti bo'lgan bo'linmalarining samaradorligiga bog'liq bo'lmagan holda belgilanadi.

**87.** Bankda amal qiluvchi haq to'lash siyosatining asosiy mezonlari va tamoyillari Bankning ichki me'yoriy hujjati bilan belgilanadi.

#### **VII. AXBOROTNI OSHKOR ETISH VA SHAFFOFLIK**

**88.** Axborotni oshkor etish bozor intizomiga va Bankdagi muvofiq korporativ boshqaruvga ko'maklashadi. Bank aksiyadorlarga, investorlarga, omonatchilarga, mijozlarga va boshqa manfaatdor shaxslarga puxta o'lchangan qarorlarni qabul qilish imkonini berish maqsadida, uning faoliyatiga tegishli bo'lgan (shu jumladan Bankning risk profiliga va risklarni boshqarish samaradorligiga tegishli bo'lgan) to'liq va haqqoniy axborotni o'z vaqtida oshkor etishi lozim.

**89.** Bank tomonidan oshkor etiladigan axborot quyidagicha bo'lishi lozim:

- to'liq - imkoni boricha, qarorlarni qabul qilishga ta'sir etadigan, operatsiyalarning faktik va ehtimoliy oqibatlariga oid bo'lgan barcha ma'lumotlarni o'z ichiga oladigan;
- haqqoniy - manfaatdor shaxslar tomonidan qarorlarni qabul qilishga ta'sir etishi mumkin bo'lgan xatolari, ma'lumot tuzatishlari bo'lmagan;
- ma'lumot beruvchi – ushbu ma'lumotni so'ragan shaxslarning qarorlarni qabul qilishiga ta'sir eta oladigan.

**90.** Bank axborotni o'z vaqtida oshkor etilishini ta'minlaydi. Bank faoliyatining dolzarb xususiyatlarini, shu jumladan, Bankning risklari profiliga va ularni boshqarish samaradorligiga oid jihatlarini oshkor etish uchun, axborot o'z vaqtida va muntazam tarzda taqdim etilishi lozim.

**91.** Bankning Axborot siyosati omonatchilar, mijozlar, kreditorlar, investorlar, aksiyadorlar va boshqa manfaatdor shaxslarning, ular tomonidan investitsion qarorlarni qabul qilishiga jiddiy ta'sir etishi mumkin bo'lgan axborotni olish huquqlarini eng to'liq amalga



oshirishga erishishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Bankning Axborot siyosati Bankning maxfiy axborotni (tijorat va bank siri, shaxsiy ma'lumot) muhofaza qilish ehtiyojlarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladi. Bank maxfiy axborotni muhofaza qilish bo'yicha vazifalarni bajaradi, uning saqlanishini ta'minlaydi va bunday axborot bilan ishlashning tegishli rejimini belgilaydi. Bank, Bankning ochiqligi va o'zining tijorat manfaatlarini himoya qilish zarurligi o'rtasidagi optimal balansga rioya qilgan holda, bunday axborotning ro'yxatini belgilaydi.

**92.** Bank to'g'risidagi axborot Bankning ommaviy hisobotlarida, Bankning Internet tarmog'idagi rasmiy veb-saytida va boshqa axborot manbalarida O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi talablariga muvofiq holda tarqatiladi.

**93.** Bank Kengashi O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq Bank tomonidan uning faoliyatiga doir haqqoniy axborotning o'z vaqtida taqdim etilishi (e'lon qilinishi, oshkor etilishi) ustidan nazorat qilishni ta'minlaydi.

**94.** Boshqaruv Bank faoliyatining barcha jiddiy jihatlari to'g'risida axborotning quyidagi shakllarda o'z vaqtida va aniq oshkor etilishini ta'minlaydi:

- yillik va oraliq moliyaviy hisobot;
- Bank tomonidan O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi talablariga muvofiq oshkor etilishi lozim bo'lgan boshqa ma'lumot.

**95.** Bank to'g'risida ma'lumotning oshkor etilishi, uning hajmi, mazmuni va tarqatilishi usullari qonun bilan himoya qilinadigan bank, tijorat siriga, boshqa maxfiy axborotning maxfiyligiga rioya etish talablariga, hamda Bankning axborot xavfsizligi talablariga zid bo'lmasligi lozim.

**96.** Bankning boshqaruv va nazorat organlarining a'zolari Bankning maxfiy, insayderlik va xizmat ma'lumotlarini oshkor qilmaydi va undan shaxsiy maqsadlarda foydalanmaydi.

Bankning boshqaruv va nazorat organlarining barcha a'zolari Bankning insayderlik ma'lumotidan noqonuniy foydalanishga va bozorda manipulyatsiya qilishga qarshi kurashish sohasidagi ichki hujjatlari talablariga muvofiq holda harakat qilishi, insayderlik ma'lumoti yuzasidan cheklovlariga va amalga oshiriladigan operatsiyalar to'g'risida xabarlarini yuborish bo'yicha majburiyatlariga rioya etishi shart.

### **VIII. BANK VA JAMIYA T**

**97.** Bank, uning mulkdorlari va rahbarlari, iste'molchilarning huquqlariga rioya etilishi uchun, qonunchilikning barcha talablari bajarilishi uchun, vijdonan raqobatning yuritilishi uchun, umuman jamiyatning oldidagi o'z javobgarligini tushunib yetadi.

**98.** Sifatli xizmatlarni taqdim etish orqali iste'molchilarning ehtiyojlarini qondirishga tayyorlik Bank missiyasining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi.

**99.** Bank davlat hokimiyati organlari va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari bilan, o'zaro hurmat, teng huquqli hamkorlik, faol ko'maklashish tamoyillari asosida munosabatlarni saqlaydi va amalga oshiradi.

**100.** Bank jamiyatni rivojlantirishga va hayotining darajasini yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy, madaniy va ta'lim tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashi mumkin.

**101.** Bank aksiyadorlik jamiyati shaklida tuzilgan yuridik shaxs bo'lib, uning faoliyati siyosatdan tashqari bo'ladi. Bank siyosiy partiyalarni, fuqarolarning birlashmalarini yoki

ularning vakillarini hech qanday shaklda qo'llab-quvvatlamaydi.

### **IX. NAZORAT VA JAVOBGARLIK**

**102.** Bank, Bankning faoliyati qoidalarini va yo'nalishlarini ro'yobga chiqarish maqsadida, Kodeks bilan belgilangan tartibotlarni va qoidalarni joriy qiladi.

**103.** Bank korporativ o'zini tutish qoidalarining bajarilishi ustidan nazorat yuritish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

Boshqaruv organlarining barcha a'zolari Bankning ichki hujjatlarida mustahkamlangan kasbiy va ishbilarmonlik etikaning yuksak tamoyillariga muvofiq holda harakat qilishi, korruptsiyaning barcha shakllariga va ko'rinishlariga murosasiz bo'lishi, qo'llanadigan qonunchilikning talablariga rioya etishi shart.

**104.** Korporativ maslahatchiga ushbu Kodeks va/yoki uni bajarish uchun ishlab chiqilgan Bankning ichki hujjatlari qoidalarining biror-bir buzilishi to'g'risida tezkor xabar berishga xodimlar majbur bo'ladi, mijozlar, aksiyadorlar va/yoki boshqa manfaatdor shaxslar esa xabar berishi mumkin.

**105.** Ushbu Kodeksning bajarilishi Bank Boshqaruviga yuklatiladi. Ushbu Kodeksning bajarilishi ustidan nazorat qilish Bank Kengashiga yuklatiladi.

### **X. YAKUNIY QOIDALAR**

**106.** Ushbu Kodeks zarur bo'lganda Bankda korporativ boshqaruvning samaradorligini oshirish maqsadida qayta ko'rib chiqiladi va yangilanadi.

**107.** Bank ushbu Kodeksda bayon etilgan qo'shimcha talablarga va tamoyillarga (qonunchilik bilan belgilangan talablardan tashqari) rioya qilish bo'yicha majburiyatlarni o'z zimmasiga olib, ma'lum holatlar bo'lganda, Bank ob'ektiv sabablarga ko'ra ba'zi qoidalariga yoki tamoyillarga rioya qila olmasligi yoki rioya qila olmaydigan holatda bo'lishi yuzaga keladigan vaziyatlar paydo bo'lishi mumkinligini anglab yetadi. Bunday holatlarda, boshqaruv organlari yuzaga kelgan vaziyatni muvofiq tuzatish bo'yicha faol choralarni ko'rishi, yoki barcha aksiyadorlarning manfaatlarini hisobga olish tamoyilidan kelib chiqib, Kodeksning qoidalariga rioya qilmaslik sabablari to'g'risida asoslantirilgan izohlar berishi lozim bo'ladi.

**Kiritilgan:**

**«O'zsanoatqurilishbank» ATB**  
**Kengashi** **huzuridagi**  
**Korporativ maslahatchi**



**K.F. Alimov**

**“O‘ZBEKISTON SANOAT - QURILISH BANKI”  
AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI**



**Kun tartibidagi 9 masala**

**“O‘zsanoatqurilishbank” ATB Aksiyadorlarining Umumiy yig‘ilishini o‘tkazish  
to‘g‘risidagi reglament” (yangi tahriri)ni tasdiqlash to‘g‘risida.**





**«O'ZBEKISTON SANOAT-QURILISH BANKI»  
AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI**

**I. UMUMIY QOIDALAR**

**«MA'QULLANGAN»**  
**«O'zsanoatqurilishbank» ATB**  
**Kengashi yig'ilishining bayonnomasi**  
**bilan**  
**№ \_\_\_\_ -son, 2025 yil «\_\_» may**

**«TASDIQLANGAN»**  
**«O'zsanoatqurilishbank» ATB**  
**Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi**  
**to'monidan**  
**№ \_\_\_\_ -son**  
**2025 yil «\_\_» iyun**

**«O'ZSANOATQURILISHBANK» ATB**  
**AKSIYADORLARI UMUMIY YIG'ILISHINI O'TKAZISH**  
**REGLAMENTI**  
**(yangi tahrirda)**

**Toshkent - 2025 yil**

1. Ushbu «O'zsanoatqurilishbank» aksiyadorlik tijorat bankining Aksiyadorlari umumiy yig'ilishini o'tkazish Reglamenti (keyingi o'rinlarda – «Reglament») Bank Ustavi asosida, va O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 06 maydagi O'RQ-370-son «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida» Qonuniga (keyingi o'rinlarda – «Aksiyadorlik jamiyatlari to'g'risida Qonun»), O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 5 noyabrda O'RQ-580-son «Banklar va bank faoliyati to'g'risida» yangi tahrirdagi Qonuniga, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2020 yil 25 maydagi 12/8-sonli qarori bilan tasdiqlangan Tijorat banklarida korporativ boshqaruv to'g'risida Nizomga, hamda Bank Aksiyadorlari umumiy yig'ilishining qarori bilan tasdiqlangan «O'zsanoatqurilishbank» aksiyadorlik tijorat bankining (keyingi o'rinlarda – «Bank») Korporativ boshqaruv Kodeksiga, va Bank Kengashining qarori bilan qabul qilingan Bankning korporativ boshqaruv Siyosatiga muvofiq ishlab chiqilgan.

2. Ushbu Reglament bilan Bank aksiyadorlarining umumiy yig'ilishini (keyingi o'rinlarda – «Umumiy yig'ilish») chaqirish, tayyorlash va o'tkazish, Umumiy yig'ilish tomonidan qabul qilingan qarorlarni rasmiylashtirish, va ularni Bankning aksiyadorlari e'tiboriga yetkazish tartibi tartibga solinadi.

3. Ushbu Reglament bilan tartibga solinmaydigan, Umumiy yig'ilishni chaqirish va o'tkazishga tegishli bo'lgan masalalar, ushbu Reglamentda bunga tegishli ko'rsatma borligi, yoki Aksiyadorlik jamiyatlari to'g'risida Qonunning me'yorlariga tegishli havola bor-yo'qligidan qat'i nazar, bevosita Aksiyadorlik jamiyatlari to'g'risida Qonunning me'yorlari bilan tartibga solinadi.

4. Umumiy yig'ilish Bankning oliy boshqaruv organi hisoblanadi. Umumiy yig'ilishning mutlaq vakolatlari Aksiyadorlik jamiyatlari to'g'risida Qonun bilan belgilangan, Umumiy yig'ilishning vakolatlari doirasi esa Bank Ustavida belgilab berilgan.

5. Ushbu Reglament ham yillik Umumiy yig'ilishni, ham navbatdan tashqari Umumiy yig'ilishni chaqirish va o'tkazish holatida qo'llanishi lozim. Yillik yoki navbatdagi Umumiy yig'ilishni chaqirish va o'tkazishga nisbatan maxsus qoidalarining qo'llanishi alohida belgilab o'tiladi.

6. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risida qaror Bank Kengashi tomonidan Umumiy yig'ilish tomonidan tasdiqlangan Bank Ustaviga va Bank Kengashi to'g'risida Nizomga muvofiq holda, shuningdek ushbu Reglamentning talablarini hisobga olgan holda qabul qilinadi.

7. Korporativ maslahatchining va Korporativ boshqaruv Xizmatining Bank aksiyadorlari, Kengashi va Boshqaruvi bilan, hamda Bankning mas'ul bo'linmalari, mansabdor shaxslari va boshqa xodimlari bilan Umumiy yig'ilishni chaqirish, uni o'tkazishga tayyorgarlik, uni o'tkazish va Umumiy yig'ilish to'g'risida ma'lumotni oshkor etish (e'lon qilish, taqdim etish) masalalari bo'yicha o'zaro munosabatlari ushbu Reglament, Korporativ maslahatchi to'g'risida Nizom bilan va Bankning boshqa ichki hujjatlari bilan, hamda O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

8. Bankning aksiyadori manziliga yuborilgan har qanday xat-xabar, agar bunday aksiyador o'zining Bankka murojaatida unga javobni yoki boshqa uning tomonidan so'ralgan xat-xabarlarni yuborish uchun boshqa rekvizitlarni ko'rsatmagan bo'lsa, unga pochta jo'natmasi yoki kurerlik yetkazib berish xizmati bilan, Markaziy qimmatli qog'ozlar depozitariysi tomonidan taqdim etilgan Bank aksiyadorlarining reestridan olingan ma'lumotlar asosida, aksiyadorning joylashgan manzili (yashash joyi) rekvizitlari bo'yicha yuborilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi, Bank Ustavi, ushbu Reglament yoki Bankning boshqa ichki hujjatlari bilan elektron xabarlar almashinuvi ko'zda tutilgan holatlarda, bunday elektron xabarlar ularga ilova qilingan elektron hujjatlar yoki boshqa materiallar bilan birgalikda, Korporativ maslahatchi yoki Korporativ boshqaruv Xizmati tomonidan aksiyadorning manziliga,

Markaziy qimmatli qog'ozlar depozitariysi tomonidan taqdim etilgan Bank aksiyadorlarining reestrda bo'lgan rekvizitlar bo'yicha yuboriladi.

## II. UMUMIY YIG'ILISHNI CHAQIRISH

### A. Yillik Umumiy yig'ilishni chaqirish

9. Yillik Umumiy yig'ilish Bank Kengashi tomonidan chaqiriladi.

10. Bo'lajak yillik Umumiy yig'ilish to'g'risidagi e'lon, yillik Umumiy yig'ilish ular bo'yicha Aksiyadorlik jamiyatlari to'g'risida Qonunning talablariga muvofiq qaror qabul qilishi lozim bo'lgan masalalarning ro'yxatiga muvofiq bo'lgan kun tartibini, hamda Bank aksiyadorlariga bo'lajak yillik Umumiy yig'ilishning kun tartibiga kiritish uchun masalalarni taklif etish yuzasidan taklifni o'z ichiga olishi lozim.

11. Ushbu Reglamentning 10-bandida ko'zda tutilgan e'lon, Korporativ maslahatchi tomonidan o'zbek, rus va ingliz tillarida tayyorlangan bo'lishi kerak.

Sanab o'tilgan uchala tilda yozilgan e'lon Bankning mas'ul bo'linmalari (mansabdor shaxslari va boshqa xodimlari) tomonidan Korporativ maslahatchining taqdimotiga binoan va uning yozma yo'riqnomalariga muvofiq holda Yagona korporativ axborot portalida va Bankning korporativ internet-resursida joylashtirilishi kerak, shuningdek, u bosma («Xalq So'zi» va «Birja» gazetalari) va/yoki elektron ommaviy axborot vositalarida (<https://openinfo.uz> i <https://www.uzse.uz>) e'lon qilinishi kerak.

Korporativ maslahatchining taqdimnomasi va uning bunday e'lonni joylashtirish (e'lon qilish) bo'yicha yo'riqnomalari tegishli Bankning mas'ul bo'linmalari, mansabdor shaxslari va boshqa xodimlari tomonidan bajarilishi uchun majburiydir.

12. Ushbu Reglamentning 10-bandida ko'zda tutilgan e'lonni joylashtirishga (e'lon qilishga) qo'shimcha ravishda, Korporativ maslahatchi yoki Korporativ boshqaruv Xizmati bunday e'lonni mustaqil holda yoki boshqa shaxslar bilan birgalikda Bankning ovoz beruvchi aksiyalarining kamida 1 (bir) foiziga egalik qiluvchi har bir aksiyadorga, elektron pochta orqali, Markaziy qimmatli qog'ozlar depozitariysi tomonidan taqdim etilgan Bank aksiyadorlarining reestrda elektron manzillarga yuborishi kerak.

13. Mustaqil holda yoki boshqa aksiyadorlar bilan birgalikda Bankning ovoz beruvchi aksiyalarining kamida 1 (bir) foiziga egalik qiluvchi har bir aksiyador, hisobot davri tugaganidan keyin 5 mart sanasidan kech bo'lmagan muddatda, yillik Umumiy yig'ilishning kun tartibi bo'yicha, hamda Bankning hisobot davri uchun sof daromadini taqsimlash yuzasidan, Bank Kengashiga nomzodlarni ko'rsatish yuzasidan masalalar bo'yicha takliflarni kiritishga haqli bo'ladi. Bunda, Bankning ushbu organlariga nomzodlarning soni tegishli Bank organi a'zolarining umumiy sonidan ortiq bo'lmaligi lozim.

Aksiyadorming bo'lajak yillik Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibi masalalari bo'yicha taklifi Bank manziliga, Korporativ maslahatchining nomiga yozma shaklida, Bank Ustavining 45.1-bandida belgilangan talablariga rioya qilgan holda yuborilishi kerak.

14. Hisobot davri tugaganidan keyin 30 kundan kech bo'lmagan muddatda (qonunchilikka muvofiq) Korporativ maslahatchi yillik Umumiy yig'ilishni o'tkazish sanasi va joyi haqidagi taklifni, hamda Bank Kengashi tomonidan yillik Umumiy yig'ilishni chaqirish to'g'risida qarorni qabul qilish sanasini o'z ichiga olgan, yillik Umumiy yig'ilishni chaqirish va o'tkazish lozimligi to'g'risidagi yozma murojaatni (xizmat xatini) Bank Kengashiga, Bank Kengashi Raisining nomiga yuborishi kerak.

15. Korporativ maslahatchining Bank Kengashiga yillik Umumiy yig'ilishni chaqirish haqidagi murojaati quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi lozim:

- O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi talablariga muvofiq holda yillik Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibiga kiritilishi lozim bo'lgan masalalarning ro'yxati;

- belgilanishi lozim bo'lgan Umumiy yig'ilishni o'tkazish uchun aksiyadorlar reestrini qayd etish (ro'yxatini tuzish) sanasini ko'rsatish;

- Aksiyadorlik jamiyatlari to'g'risida Qonunga va qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatlangan davlat organining talablariga muvofiq holda, yillik Umumiy yig'ilishning kun tartibining har bir masalasi bo'yicha aksiyadorlarga taqdim etilishi lozim bo'lgan materiallar va boshqa ma'lumotlarning ro'yxatini ko'rsatish;

- kvorum bo'lmagan holda, takroriy Umumiy yig'ilishni o'tkazishning tavsiya etilgan sanasi;

- yillik Umumiy yig'ilishning kun tartibining har bir alohida masalasi bo'yicha materiallarni va boshqa ma'lumotlarni tayyorlash uchun mas'ul bo'lgan Bank bo'linmalari (mansabdor shaxslari, xodimlari) to'g'risida taklif;

- Bank aksiyadorlaridan kelib tushgan yillik Umumiy yig'ilishning kun tartibiga qo'shimcha masalalarni kiritish bo'yicha takliflar (bunday qo'shimcha masalalar bo'yicha ular tomonidan taqdim etilgan materiallar ko'rsatilgan, va tegishli aksiyador (aksiyadorlar) tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar aks ettirilgan holda);

- imtiyozli aksiyalarning egalari yillik Umumiy yig'ilishning taklif etilayotgan kun tartibining qaysi masalalari bo'yicha qarorni qabul qilish yuzasidan ovoz berishda ishtirok etishini ko'rsatish;

- yillik Umumiy yig'ilishning taklif etilayotgan kun tartibining qaysi masalalari bo'yicha ovoz beruvchi aksiyalar egalari ovozlarining malakalangan ko'pchiligi talab etilishini ko'rsatish;

- yillik Umumiy yig'ilishning taklif etilayotgan kun tartibining qaysi masalalari bo'yicha qarorlar kumulyativ ovoz berish orqali qabul qilinishini ko'rsatish;

- Umumiy yig'ilishni o'tkazish to'g'risida xabarning tartibi yuzasidan axborot (tavsiyalar).

Korporativ maslahatchi shuningdek Bank Kengashining a'zolariga nomzodlar reestrlaridagi, va/yoki Bank Kengashida lavozimlarning vorisiyligi Rejasidagi (mavjud bo'lganda) ma'lumotlar asosida, taklif etiladigan nomzodlarni asoslab bergan holda, Bank Kengashiga Bank Kengashining a'zolariga nomzodlar to'g'risida takliflarni berish huquqiga ega bo'ladi.

16. Yillik Umumiy yig'ilishning kun tartibini belgilashda, Bank Kengashi Aksiyadorlik jamiyatlari to'g'risida Qonun, Bank Ustavi va ushbu Reglament bilan belgilangan tartibga muvofiq Bank aksiyadorlari tomonidan taklif etilgan masalalarni kun tartibiga kiritish, shuningdek ular taklif etgan Bank Kengashi va Taftish komissiyasi tarkibiga nomzodlar to'g'risidagi axborotni yillik Aksiyadorlari umumiy yig'ilishi materiallarining tarkibiga kiritish masalasini mustaqil holda hal etadi.

Bank Kengashi Aksiyadorlik jamiyatlari to'g'risida Qonunning talablariga muvofiq holda masalani yillik Aksiyadorlari umumiy yig'ilishining kun tartibiga kiritishni yoki Bank Kengashiga va Taftish komissiyasiga (taftishchisiga) saylash bo'yicha ovoz berish uchun nomzodlarning ro'yxatiga nomzodni kiritishni rad etish to'g'risida qarorni qabul qilgan holda, Bank Kengashining bunday qarori bunday rad etishning sabablarini (asoslarini) izohlashni o'z ichiga olishi kerak. Bu holda Korporativ maslahatchi Bank Kengashining bunday asoslantirilgan qarori asosida, ushbu qaror qabul qilingan sanadan boshlab 3 (uch) kun ichida tegishli masalani kiritgan yoki tegishli taklifni taqdim etgan aksiyadorga (aksiyadorlarga), Bankning nomidan Bank Kengashining bunday rad etish to'g'risidagi asoslantirilgan qarorini yuborishi kerak.

17. Bank Kengashining yillik Umumiy yig'ilishni chaqirish to'g'risidagi qarori hisobot davri yakunlanganidan keyin 5 (besh) oy ichida qabul qilinishi, yillik Umumiy yig'ilish esa hisobot davri yakunlanganidan keyin ko'pi bilan 6 (olti) oy o'tganda o'tkazilishi kerak.

18. Yillik aksiyadorlar umumiy yig'ilishini o'tkazish sanasi uni o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan boshlab o'n kundan kamroq va o'ttiz kundan ko'proq o'tganda belgilanishi mumkin emas.

### B. Navbatdan tashqari Umumiy yig'ilishni chaqirish.

19. Navbatdan tashqari Umumiy yig'ilish Bank Kengashi tomonidan uning o'z tashabbusiga binoan, hamda Bankning Taftish komissiyasi yoki uning tomonidan Umumiy yig'ilishni chaqirish



to'g'risida talabni qo'yishi paytiga kelib, (mustaqil holda yoki Bankning boshqa aksiyadorlari bilan birligida) Bankning ovoz beruvchi aksiyalarining kamida 5 (besh) foiziga egalik qiluvchi Bank aksiyadorining talabiga binoan chaqiriladi.

20. Navbatdan tashqari Umumiy yig'ilishni chaqirish to'g'risida talabnoma Aksiyadorlik jamiyatlari to'g'risida Qonunning uning shakliga va mazmuniga, hamda uni taqdim etish (Bankka yuborish) usuliga oid qoidalariga muvofiq bo'lishi kerak.

21. Navbatdan tashqari Umumiy yig'ilishni chaqirish to'g'risida talabnoma Bankka Bank Kengashining Raisi va Korporativ maslahatchi nomiga yuborilishi kerak.

22. Bankka navbatdan tashqari Umumiy yig'ilishni chaqirish to'g'risida talabnoma kelib tushgan paytidan boshlab 15 (o'n besh) ish kuni ichida Bank Kengashining Raisi navbatdan tashqari Umumiy yig'ilishni chaqirish to'g'risida yoki uni chaqirishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilish uchun Kengashning majlisini chaqirishi shart.

23. Bank Kengashi Raisining harakatlaridan mustaqil holda, Korporativ maslahatchi Bankka navbatdan tashqari Umumiy yig'ilishni chaqirish to'g'risida talabnoma kelib tushgan kundan boshlab 7 (etti) ish kuni ichida Bank Kengashining Raisiga navbatdan tashqari Umumiy yig'ilishni chaqirish to'g'risida yoki uni chaqirishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilish uchun Kengashning majlisini chaqirish taklifini yuborishi va unga qaror qabul qilish uchun zarur bo'lgan materiallarni, shu jumladan Umumiy yig'ilishni chaqirish to'g'risida talabnomani ilova qilishi, hamda Umumiy yig'ilishni chaqirish zarurligi yoki uni chaqirishni rad etish maqsadga muvofiqligi yuzasidan o'zining yozma fikrini yuborishi shart. Korporativ maslahatchining yozma fikri shuningdek bu holatda qo'llanishi mumkin bo'lgan tavsiyalarni va ushbu Reglamentning 16-bandida ko'rsatilgan boshqa ma'lumotlarni o'z ichiga olishi lozim.

24. Bank Kengashining taqdim etilgan talabnoma asosidagi navbatdan tashqari Umumiy yig'ilishni chaqirish to'g'risida yoki uni chaqirishni rad etish to'g'risida qarori Bank Kengashi tomonidan Bankka navbatdan tashqari Umumiy yig'ilishni chaqirish to'g'risida talabnoma kelib tushgan kundan boshlab ko'pi bilan 20 (yigirma) kun ichida qabul qilinishi kerak.

Aksiyadorlik jamiyatlari to'g'risida Qonunning talablariga muvofiq Bank Kengashi navbatdan tashqari Aksiyadorlar umumiy yig'ilishini chaqirishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilgan holda, Bank Kengashining bunday qarori bunday rad etishning sabablarini (asoslarini) izohlashni o'z ichiga olishi kerak. Bu holda Korporativ maslahatchi Bank Kengashining bunday asoslantirilgan qarori asosida, ushbu qaror qabul qilingan sanadan boshlab 5 (besh) kun ichida tegishli talabnomani taqdim etgan aksiyadorga (aksiyadorlarga), Bankning nomidan Bank Kengashining bunday rad etish to'g'risidagi asoslantirilgan qarorini yuborishi kerak.

#### V. Bank Kengashining Umumiy yig'ilishni chaqirish to'g'risida qarori va Umumiy yig'ilishni chaqirish to'g'risidagi xabarnoma.

25. Bank Kengashining Umumiy yig'ilishni chaqirish to'g'risida qarori Korporativ maslahatchining Umumiy yig'ilishni o'tkazish sanasi va joyi, Umumiy yig'ilishni o'tkazish uchun aksiyadorlar reestrini qayd etish (ro'yxatini tuzish) sanasi va Umumiy yig'ilishni o'tkazish to'g'risida xabar berish tartibi yuzasidan tavsiyalarini hisobga olgan holda qabul qilinishi kerak.

26. Umumiy qoidaga ko'ra, Umumiy yig'ilishni o'tkazish joyi, Umumiy yig'ilishda ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tkazish, kun tartibi masalalarini ko'rib chiqish va ular bo'yicha Umumiy yig'ilishda Bankning barcha aksiyadorlari yoki ularning vakolatli vakillari (100% kvorum) va tegishli taklif etilgan shaxslar ishtirok etishini ko'zda tutgan holda qarorlarni qabul qilish imkonini beradigan, Umumiy yig'ilishni uning barcha ishtirokchilari uchun o'tkazish xavfsizligi hamda bunday rejimga rioya etish zarur bo'lgan hollarda, axborotni himoya qilish rejimini ta'minlash yuzasidan talablarni hisobga olgan Bank xonasi bo'lishi kerak.

Umumiy yig'ilishni Bank xonasida o'tkazish biror-bir sabablarga ko'ra mumkin yoki maqsadga muvofiq bo'lmagan hollarda, Korporativ maslahatchi Bankning tegishli bo'linmasi bilan o'zaro birligida Umumiy yig'ilishni o'tkazish uchun maqbul bo'lgan joyni aniqlashi, uning

mulkdori bilan birga undan Umumiy yig'ilishni o'tkazish uchun foydalanish mumkinligini va shartlarini avvaldan kelishib olishi lozim.

Umumiy yig'ilishni o'tkazish joyi Bank joylashgan manzilida (ya'ni aholi punktida) bo'lishi, Bank aksiyadorlarining ustuvor ko'pchiligi yetib kelishi uchun qulay bo'lishi, qonunchilik bilan belgilangan yong'in xavfsizligi talablariga mos bo'lishi kerak.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan joyda Umumiy yig'ilish ishtirokchilarini ro'yxatdan o'tkazish uchun alohida xoll hamda 100% kvorum bo'lishi va Umumiy yig'ilishda barcha taklif etilgan shaxslar ishtirok etishi hisobga olingan Umumiy yig'ilishni o'tkazish uchun jihozlangan zal bo'lishi kerak. Umumiy yig'ilish o'tkaziladigan zalning jihozlanishi Umumiy yig'ilish ishtirokchilarining o'tirishi uchun yetarli o'rindiqlar soni bo'lishi, rayosat (prezidium), kotibiyat va sanoq komissiyasi joylashadigan joy, Umumiy yig'ilish kun tartibining masalalari bo'yicha so'zga chiqish uchun minbar, mikrofonlar va ovozni kuchaytiruvchi boshqa vositalar, hamda videomateriallarni namoyish qilish uchun ekran va jihozlar, Umumiy yig'ilish borishining audio- va videoyozuvini yuritish uchun jihozlarni o'z ichiga olishi lozim.

27. Korporativ maslahatchining aksiyadorlarning reestrini qayd etish (ro'yxatini tuzish) sanasi yuzasidan tavsiyasi Aksiyadorlik jamiyatlari to'g'risida Qonunning talablari asoslangan bo'lishi kerak. Xususan, Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish uchun aksiyadorlar reestrini tuzish sanasi, rasmiy e'lon qilingan Umumiy yig'ilishni o'tkazish sanasidan 3 (uch) kalendar kuni avval shakllantirilgan Bank aksiyadorlarining reestrinda qayd etilgan aksiyadorlar, Umumiy yig'ilishda ishtirok etish huquqiga ega ekanligi haqidagi talabni hisobga olgan holda, belgilanishi lozim.

28. Umumiy yig'ilish ishtirokchilarini ro'yxatdan o'tkazish boshlanishi vaqti Bank Kengashining Umumiy yig'ilishni chaqirish to'g'risidagi qarorida, bunday ro'yxatdan o'tkazish Umumiy yig'ilish boshlanishining belgilangan vaqtdan kamida 90 (to'qson) daqiqa avval boshlanadigan qilib belgilanishi kerak.

Umumiy yig'ilish ishtirokchilarini ro'yxatdan o'tkazish yakunlanishi vaqti Bank Kengashining Umumiy yig'ilishni chaqirish to'g'risidagi qarorida, sanoq komissiyasiga kvorumni hisoblash va Umumiy yig'ilish ishtirokchilarini ro'yxatdan o'tkazish bayonnomasini tegishli rasmiylashtirish uchun yetarli vaqt beradigan qilib belgilanishi, va ro'yxatdan o'tkazish yakunlanishi va Umumiy yig'ilishning boshlanishi (e'lon qilingan boshlanishi vaqti) orasida kamida 15 (o'n besh) daqiqa vaqt oralig'ini tashkil etishi kerak.

29. Aksiyadorlarni va davlat vakilini Umumiy yig'ilishning kun tartibi masalalari bo'yicha axborot (materiallar) bilan tanishish tartibi va usuli Bank Kengashining qarorida belgilanishi kerak, bunda Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi kun tartibining materiallari:

- aksiyadorlarga (ularning vakillariga) Umumiy yig'ilishda ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tishda taqdim etilishi;

- Bankning korporativ internet-resursida (rasmiy saytida) joylashtirilishi (Bank Kengashining Umumiy yig'ilishni chaqirish to'g'risidagi qarorida joylashtirilgan Umumiy yig'ilishning materiallariga internet-havola ko'rsatilishi kerak);

- Korporativ maslahatchi tomonidan yoki Korporativ boshqaruv Xizmati tomonidan Umumiy yig'ilishni o'tkazish sanasigacha istalgan ish vaqtda, Korporativ boshqaruv xizmatining ofisida Bank Kengashining Umumiy yig'ilishni chaqirish to'g'risidagi qarorida ko'rsatilgan manzilda taqdim etilishi hisobga olinishi lozim.

Bank Kengashining qarorida Korporativ maslahatchi tomonidan (barcha aksiyadorlarga yoki alohida aksiyadorga so'rov bo'yicha) bo'lajak Umumiy yig'ilishning kun tartibi masalalari bo'yicha materiallarni va axborotni elektron pochta orqali, yoki aksiyador o'z so'rovida ko'rsatgan rekvizitlar bo'yicha yuborish imkonini ko'zda tutilishi mumkin.

Bank Kengashining qarorida shuningdek Korporativ boshqaruv xizmati tomonidan bo'lajak Umumiy yig'ilishning kun tartibi masalalari bo'yicha materiallarni va axborotni pochta jo'natmasi bilan yoki kurer yetkazishi orqali aksiyadorning so'roviga binoan, hamda aksiyador tomonidan tegishli xarajatlar to'lanishi yoki bunday yuborish (etkazib berish) bilan bog'liq bo'lgan Bank

amalga oshirgan xarajatlarning ularga qoplanishi sharti bilan yuborish imkonini ko'zda tutilishi mumkin.

Aksiyadorlarga yoki boshqa manfaatdor shaxslarga bo'lajak Umumiy yig'ilishning kun tartibi masalalari bo'yicha materiallarni (axborotni) taqdim etishda, Bankning tijorat sirini va qonunchilikka, hamda Bankning ichki siyosatlariga va boshqa ichki hujjatlariga muvofiq muhofaza qilindigan sirni himoya qilishga oid talablarga rioya etish lozim.

30. Bank Kengashining Umumiy yig'ilishni chaqirish to'g'risidagi qarorida quyidagi ma'lumotlar bo'lishi lozim:

- Umumiy yig'ilishni chaqirish to'g'risida e'lon;
- Umumiy yig'ilishni o'tkazish sanasi, vaqti va joyi;
- Umumiy yig'ilish ishtirokchilarini ro'yxatdan o'tkazish boshlanishi va yakunlanishi vaqti;
- Umumiy yig'ilishning kun tartibi;
- Umumiy yig'ilishni o'tkazish uchun Bank aksiyadorlarining reestrini qayd etish (ro'yxatini tuzish) sanasi;
- Umumiy yig'ilishni o'tkazish to'g'risida aksiyadorlarga va davlat vakiliga xabar berish tartibi;
- Umumiy yig'ilishni o'tkazishga tayyorgarlikda aksiyadorlarga va davlat vakiliga taqdim etiladigan axborot (materiallar) ro'yxati, hamda shunday axborotdan foydalanish usullari va uni taqdim etish usullari;

- kворum bo'lmagan holda, takroriy Umumiy yig'ilishni o'tkazish sanasi, vaqti va joyi.

Umumiy yig'ilishning kun tartibi Bank Kengashining Umumiy yig'ilishni chaqirish to'g'risidagi qarorida, Umumiy yig'ilish tanaffussiz o'tkaziladigan, va uni o'tkazishning e'lon qilingan kunida yakunlanadigan qilib belgilanishi kerak.

Umumiy yig'ilishni chaqirish to'g'risidagi qarorda majburiy tartibda ovoz berish byulletenining shakli va Umumiy yig'ilish kun tartibining har bir masalasi bo'yicha byulletenning matni tasdiqlanadi. Bunday byulletenlar shakli Korporativ maslahatchi tomonidan tayyorlanadi.

31. Bank Kengashining Umumiy yig'ilishni chaqirish to'g'risidagi qarori bilan Umumiy yig'ilishni tayyorlash va o'tkazish bo'yicha chora-tadbirlarning ro'yxati va jadvali, har bir alohida tadbir bo'yicha Bankning mas'ul mansabdor shaxslari, hodimlari va tarkibiy bo'linmalari mahkamlangan holda, tasdiqlanishi kerak.

Bunday chora-tadbirlarning ro'yxati va jadvali quyidagi tadbirlar o'tkazilishini ko'zda tutishi lozim:

- Umumiy yig'ilishni chaqirish va o'tkazish to'g'risida xabarnomaning matnini tayyorlash (ushbu Reglamentning 35-bandiga muvofiq);
- Umumiy yig'ilishni chaqirish to'g'risida xabarnomani e'lon qilish (ushbu Reglamentning 11 va 33-bandlariga muvofiq);
- aksiyadorlarga va davlat vakiliga Umumiy yig'ilishni chaqirish to'g'risida xabarnomani yuborish (ushbu Reglamentning 34-bandiga muvofiq);
- ushbu Reglamentning 26-bandi talablariga muvofiq Bank xonasida Umumiy yig'ilishni o'tkazish joyini tayyorlash;
- ushbu Reglamentning 26-bandi talablariga muvofiq Umumiy yig'ilishni o'tkazish uchun xonani ijaraga olish (Umumiy yig'ilish Bank xonasida o'tkazilmaydigan bo'lsa);
- Bank Kengashining qarori bilan belgilangan Umumiy yig'ilishni o'tkazish haqida xabar berish sanasiga tuzilgan Bank aksiyadorlarining reestrini olish uchun, Markaziy qimmatli qog'ozlar depozitariysi bilan o'zaro harakatlar;
- Bank Kengashining qarori bilan tasdiqlangan Umumiy yig'ilish kun tartibining har bir masalasi bo'yicha ovoz berish uchun byulletenlar shakliga muvofiq holda, byulletenlarning kerakli miqdorini hisoblash (ko'zda tutilmagan holatlar uchun zaxirasi bilan) va chop etish;
- aksiyadorlarga taqdim etish uchun Umumiy yig'ilish kun tartibining har bir masalasi bo'yicha materiallarni va axborotni tayyorlash va shakllantirish;

- Korporativ boshqaruv xizmatining ofisi xonasida Umumiy yig'ilish kun tartibining masalalari bo'yicha materiallardan (axborotdan) foydalanish imkonini ta'minlash;

- Umumiy yig'ilish kun tartibining masalalari bo'yicha materiallarni (axborotni) Bankning korporativ internet-resursida (rasmiiy saytida) joylashtirish va ushbu Reglamentning talablariga muvofiq aksiyadorlar va boshqa manfaatdor shaxslar uchun ulardan foydalanish imkonini ta'minlash;

- Umumiy yig'ilishni ochib berishi kerak bo'lgan shaxsni, va nomzodi Umumiy yig'ilishda raislik etuvchi sifatida saylash uchun taklif etilgan shaxsni belgilash;
- Umumiy yig'ilish kun tartibining har bir masalasi bo'yicha ma'ruzachini belgilash;
- Umumiy yig'ilishning rayosatiga (prezidiumiga) taklif etiladigan shaxslar doirasini belgilash;

- nomzodlari Umumiy yig'ilish kotibiyatining tarkibiga va Umumiy yig'ilish bayonnomasini yuritish va rasmiylashtirish uchun mas'ul bo'lgan Umumiy yig'ilishning kotibi sifatida taklif etiladigan shaxslarni belgilash;

- avval shakllantirilgan sanoq komissiyasi tarkibining to'liqligini tekshirish va sanoq komissiyasining barcha a'zolari Umumiy yig'ilishni o'tkazish kunida ularga yuklatilgan vazifalarni bajarishini ta'minlash;

- sanoq komissiyasiga Umumiy yig'ilishning ishtirokchilarini ro'yxatdan o'tkazishda Bank aksiyadorlari vakillarining vakolatlarini tasdiqlashda ko'maklashish uchun Bankning yuridik xizmati xodimini belgilash (agar sanoq komissiyasining tarkibida Bankning yuridik xizmati xodimi bo'lgan komissiya a'zosi, yoki aksiyadorlarni Umumiy yig'ilishda vakil sifatida ifoda etish vakolatlari mavjudligini baholash malakasiga ega bo'lgan boshqa shaxs bo'lmasa);

- Bank xodimlari ichidan hisobchilar ro'yxatini shakllantirish [sanoq komissiyasiga Umumiy yig'ilish kun tartibining masalalari bo'yicha materiallarni tarqatishda, imzolangan ovoz berish byulletenlarini yig'ish, mikrofonlarni berish, aksiyadorlarning yozma so'rovlarini va savollarini yig'ish va Umumiy yig'ilish kotibiyatiga topshirish, hamda sanoq komissiyasi ishi doirasida boshqa harakatlarni amalga oshirishga ko'maklashish uchun]; ular o'z vazifalarini tegishli bajarishi uchun treningni o'tkazish;

- Umumiy yig'ilishni o'tkazish joyida, uni o'tkazish sanasida, Umumiy yig'ilishning ishtirokchilarini ro'yxatdan o'tkazish boshlanishi paytidan to Umumiy yig'ilishni yakunlash paytigacha tibbiy xodimning mavjudligini ta'minlash;

- xavfsizlik va qo'riqlash xizmati xodimlarining ro'yxatini shakllantirish, ularni Umumiy yig'ilishni o'tkazish joyida qo'yib chiqish rejasini belgilash, ularni qo'yib chiqish va vazifalarini taqsimlashning tasdiqlangan rejasiga muvofiq, ularning Umumiy yig'ilishni ishtirokchilarini ro'yxatdan o'tkazish va Umumiy yig'ilishning ishlashi joyida va vaqtida tartibni saqlash bo'yicha funksiyalarni bajarishini ta'minlash;

- Bankning tegishli bo'linmalari tomonidan moddiy ta'minot va axborot qo'llab-quvvatlash, Umumiy yig'ilish o'tkaziladigan xonaning ushbu Reglament talablariga muvofiq, uning jihozlanishi va ishga yaroqli holatdagi videouratga olish, audioyozuv yozish hamda video va audiomateriallarni namoyish etish jihozlarining mavjudligi masalalari ta'minlanishi;

- Umumiy yig'ilishni o'tkazish paytida uning sanoq komissiyasi va hisobchilari, rayosati (prezidiumi) va kotibiyati tegishli ishlashini ta'minlash uchun, Umumiy yig'ilish o'tkaziladigan xonaning tegishli jihoz-uskunalar bilan jihozlanishi;

- Umumiy yig'ilishni o'tkazish sanasidan kamida bir sutka avval, Umumiy yig'ilish stsenariysini tuzish hamda sanoq komissiyasining a'zolari, kotibiyatga saylash uchun nomzodlar, xavfsizlik va qo'riqlash xizmatining xodimlari va uning o'tkazilishida ishtirok etadigan boshqa shaxslar (zarur bo'lganda) ishtirok etgan holda, uning repetitsiyasini o'tkazish;

- Umumiy yig'ilish kun tartibining har bir masalasi bo'yicha ma'ruzalarni tayyorlash;
- Umumiy yig'ilish bayonnomasining loyihasini tayyorlash;
- Umumiy yig'ilish bayonnomasini rasmiylashtirish va imzolash;
- Umumiy yig'ilishning yakunlari to'g'risida axborotni tayyorlash;

- Umumiy yig'ilishning o'tkazilishi va yakunlari to'g'risida axborotni e'lon qilish;
- Umumiy yig'ilish materiallarining arxivini shakllantirish, ularni Bankning ichki hujjatlariga muvofiq saqlash uchun topshirish.

32. Umumiy yig'ilishni chaqirish to'g'risida axborot (xabar) Kengashning Umumiy yig'ilishni chaqirish to'g'risidagi qarorini qabul qilish kundan boshlab 7 (etti) ish kuni ichida, ushbu Reglamentning 11-bandiga muvofiq Umumiy yig'ilishni chaqirish to'g'risida xabarni e'lon qilish orqali, aksiyadorlar va davlat vakilining e'tiboriga yetkazilishi kerak. Bunday xabar Korporativ maslahatchi tomonidan tayyorlanishi kerak.

33. Umumiy yig'ilishni chaqirish to'g'risida xabarni joylashtirishga (e'lon qilishga) qo'shimcha ravishda, Korporativ maslahatchi yoki Korporativ boshqaruv xizmati Bank aksiyadorlariga va davlat vakiliga bunday xabarni ushbu Reglamentning 8-bandida ko'zda tutilgan quyidagi usullardan biri yoki ikkalasi orqali yuborishi lozim:

- adresatning yashash manzili yoki joylashgan manzili bo'yicha pochta jo'natmasi yoki kurer yetkazib berishi orqali, yoki
- Markaziy qimmatli qog'ozlar depozitariysi tomonidan taqdim etilgan reestrda muvofiq elektron manzillarga, elektron pochta orqali.

Umumiy yig'ilishni o'tkazish to'g'risidagi xabar quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- Bankning nomi va joylashuvi (pochta manzili);
- Umumiy yig'ilishni o'tkazish sanasi, vaqti va joyi;
- Umumiy yig'ilish ishtirokchilarini ro'yxatdan o'tkazish boshlanishi va yakunlanishi vaqti;
- Umumiy yig'ilishni o'tkazish uchun Bank aksiyadorlarining reestrini (ro'yxatini) tuzish sanasi;

- Umumiy yig'ilishning kun tartibi;
- aksiyadorlarni va davlat vakilini Umumiy yig'ilish kun tartibining masalalari bo'yicha axborot (materiallar) bilan tanishtirish tartibi (usuli);
- Umumiy yig'ilish kun tartibining qaysi masalalari bo'yicha qarorlarni qabul qilish yuzasidan ovoz berishda imtiyozli aksiyalarning egalari ishtirok etishi yuzasidan ko'rsatmalar;
- Umumiy yig'ilish kun tartibining qaysi masalalari bo'yicha ovoz beruvchi aksiyalar egalarning malakali ovoz ko'pchiligi talab etilishi yuzasidan ko'rsatmalar;
- Umumiy yig'ilish kun tartibining qaysi masalalari bo'yicha qarorlar kumulyativ ovoz berish orqali qabul qilinishi yuzasidan ko'rsatmalar;
- Umumiy yig'ilishda ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tkazishda, shaxsini tasdiqlovchi hujjatni, va (aksiyadorning vakili uchun) Umumiy yig'ilishda ishtirok etish va/yoki Umumiy yig'ilish kun tartibining barcha yoki ayrim belgilangan masalalari bo'yicha ovoz berish uchun tegishli tarzda rasmiylashtirilgan ishonchnomani taqdim etish zarurligi yuzasidan ko'rsatmalar;
- kvorum bo'lmaganda, takroriy Umumiy yig'ilishni o'tkazish sanasi, vaqti va joyi.

### III. UMUMIY YIG'ILISHDA ISHTIROK ETISH HUQUQI

34. Umumiy yig'ilishda Markaziy qimmatli qog'ozlar depozitariysi tomonidan, ushbu Reglamentning 33 va 35-bandlariga muvofiq rasmiy e'lon qilingan Umumiy yig'ilishni o'tkazish sanasidan 3 (uch) kalendar kuni avval shakllantirilgan Bank aksiyadorlari reestrining ma'lumotlariga ko'ra, Bankning oddiy (odatdagi) va/yoki imtiyozli aksiyalariga ega bo'lgan Bankning har qanday aksiyadori ishtirok etishga haqlidir.

35. Umumiy yig'ilishda ishtirok etish huquqiga quyidagi vakolatlar kiradi:

- umumiy yig'ilish ishtirokchisi sifatida ro'yxatdan o'tishni talab qilish va shunday ro'yxatdan o'tish;
- Umumiy yig'ilish kun tartibining masalalari bo'yicha materiallarni olish va bunday materiallardan Bankning barcha aksiyadorlari bilan bir xil shartlarda foydalanish;
- kun tartibidagi masalalar ko'rib chiqilayotganda Umumiy yig'ilish o'tkaziladigan zalda bo'lish (Umumiy yig'ilishda ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tish sharti bilan);

- muhokamada ishtirok etish, savollar berish, takliflar kiritish, so'zga chiqish va boshqa yo'llar bilan Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibiga kiritilgan masalalarni muhokama qilishda qatnashish;

- Umumiy yig'ilishning ishchi organlariga (shu jumladan, rayosat, kotibiyat va sanoq komissiyasi) saylash uchun nomzodlarni ko'rsatish;

- Bankning ovoz beruvchi aksiyalariga egalik qilgan holda, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Bank Ustavi va ushbu Reglament talablariga muvofiq, Umumiy yig'ilishning kun tartibiga kiritilgan tegishli masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilinganda ovoz berish.

36. Bankning oddiy (odatdagi) aksiyalarining egalari Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi kun tartibining barcha masalalari bo'yicha ovoz berish huquqiga ega bo'ladi.

37. Bankning imtiyozli aksiyalarining egalari Aksiyadorlik jamiyatlari to'g'risidagi qonunda ko'zda tutilgan hollarda, Aksiyadorlari umumiy yig'ilishi kun tartibining masalalari bo'yicha qarorlarni qabul qilishda ovoz berish huquqiga ega bo'ladi.

38. Umumiy yig'ilishda ishtirok etuvchi har bir Bank aksiyadori, Bankning ovoz beruvchi aksiyalariga egalik qilishdan qat'i nazar, Umumiy yig'ilish kun tartibining masalalari bo'lmagan, Umumiy yig'ilishning barcha tashkiliy masalalari bo'yicha ovoz berish huquqiga ega bo'ladi.

39. Har bir jismoniy shaxs bo'lgan Bank aksiyadori, Umumiy yig'ilishda shaxsan yoki o'zining vakolatli vakili orqali ishtirok etishga haqli bo'ladi.

40. Har qanday aksiyador, Umumiy yig'ilishning qarorlarni qabul qilishda ovoz berishda ishtirok etish vakolatlari har bir alohidagi tashkiliy masala bo'yicha va Umumiy yig'ilish kun tartibining har bir masalasi bo'yicha faqat ularning bittasi tomonidan amalga oshirilishi sharti bilan, Umumiy yig'ilishda o'zining bir yoki bir nechta vakillari bilan bir vaqtda ishtirok etish huquqiga ega bo'ladi.

41. Jismoniy shaxs bo'lgan aksiyadorning vakili quyidagi shaxs bo'ladi:

- aksiyadordan berilgan, qo'llanadigan qonunchilik va ushbu Reglament bilan belgilangan, uning shakliga va mazmuniga qo'yiladigan talablarga mos bo'lgan Umumiy yig'ilishda ishtirok etish va/yoki ovoz berish uchun amalda bo'lgan ishonchnomaga ega bo'lgan, yoki

- vakolatli sudning qarori yoki qo'llanadigan qonunchilikda ko'zda tutilgan boshqa hujjatlar bilan tasdiqlangan holda, qo'llanadigan qonunchilikka muvofiq aksiyadorning qonuniy vakili bo'lgan shaxs.

42. Yuridik shaxs bo'lgan aksiyadorning vakili quyidagi shaxs bo'ladi:

- ustavning asosida ushbu yuridik shaxsni ifoda etib vakil bo'lishi uchun vakolatlangan, yoki
- aksiyadordan berilgan, qo'llanadigan qonunchilik va ushbu Reglament bilan belgilangan, uning shakliga va mazmuniga qo'yiladigan talablarga mos bo'lgan Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish va/yoki ovoz berish uchun amalda bo'lgan ishonchnomaga ega bo'lgan shaxs.

43. Yig'ilishda ishtirok etish uchun ishonchnomada ishonchnoma bo'yicha vakilni Umumiy yig'ilish kun tartibining barcha yoki ayrim masalalari bo'yicha ovoz berish yuzasidan bir ma'noli vakolatlashni o'z ichiga olishi lozim. Ishonchnomada aksiyadorning o'z vakiliga ovoz berish huquqini berishga shunday bir ma'noli ko'rsatma bo'lmaganda, bunday vakil Umumiy yig'ilishda ishtirok etish, va Umumiy yig'ilish kun tartibining masalalari bo'yicha ovoz berish vakolatidan tashqari, ushbu Reglamentning 38-bandida ko'zda tutilgan barcha vakolatlarni amalga oshirish huquqiga ega bo'ladi.

44. Umumiy yig'ilishda va/yoki Umumiy yig'ilish kun tartibining masalalari bo'yicha qarorlarni qabul qilishda ovoz berishda ishtirok etish uchun har qanday ishonchnoma O'zbekiston Respublikasi qonunchiligining, Bank Ustavining va ushbu Reglamentning ishonchnoma shakli va mazmuniga oid talablariga muvofiq bo'lishi kerak, ishonchnoma xorijiy davlatning qonunchiligiga muvofiq berilgan holda, u konsullik legalizatsiya yoki apostil bilan (vaziyatga bog'liq xolda) tasdiqlanishi hamda ishonchnomani va apostilini o'zbek yoki rus tillaridagi notarial tasdiqlangan tarjimai bilan taqdim etilishi kerak.



Aksiyadorning so'roviga binoan yoki Korporativ maslahatchining tashabbusiga binoan, bunday ishonchnomaning shakliga va mazmuniga qo'yiladigan talablar ushbu Reglamentning 11-bandida ko'zda tutilgan tartibda e'lon qilinish mumkin.

45. Umumiy yig'ilish ishtirokchisi yoki uning vakili shaxsini, hamda Umumiy yig'ilishda va uning qarorlarini qabul qilishda ovoz berishda ishtirok etish huquqini tasdiqlovchi har qanday hujjatlar, Umumiy yig'ilishda ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tkazish paytida, asl nusxa shaklida taqdim etilishi lozim.

#### IV. UMUMIY YIG'ILISHNI O'TKAZISHGA TAYYORGARLIK

46. Bank Kengashi tomonidan tasdiqlangan, ushbu Reglamentning 32-bandida ko'zda tutilgan Umumiy yig'ilishni tayyorlash va o'tkazish bo'yicha chora-tadbirlar ro'yxati va jadvalining bajarilishi bilan bog'liq bo'lgan harakatlarni nazorat qilish va muvofiqlashtirish bo'yicha vakolatlar va vazifalar, Korporativ maslahatchiga yuklatiladi.

Korporativ maslahatchining tasdiqlangan chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha ko'rsatmalari va yo'riqnomalari bunday ro'yxatda belgilangan Bankning mansabdor shaxslari, xodimlari va tarkibiy bo'linmalari tomonidan bajarilishi uchun majburiy deb hisoblanadi.

47. Bo'lajak Umumiy yig'ilish kun tartibining masalalari bo'yicha materiallar (axborot) to'liq va haqqoniy, har bir aksiyador tegishli masala bo'yicha o'zining asoslangan pozitsiyasini ishlab chiqishi uchun yetarli bo'lishi kerak.

48. Bo'lajak Umumiy yig'ilish kun tartibining masalalari bo'yicha materiallar (axborot), Bank Kengashini ushbu Umumiy yig'ilishni chaqirish to'g'risidagi qarori bilan tasdiqlangan Umumiy yig'ilishni tayyorlash va o'tkazish bo'yicha chora-tadbirlar ro'yxatiga va jadvaliga muvofiq tayyorlanishi lozim.

Kun tartibining har bir masalasi bo'yicha materiallar Bankning vakolatli mansabdor shaxsi yoki tarkibiy bo'linmasi tomonidan tayyorlanishi va ularning to'liqligi hamda kun tartibining masalalari bo'yicha materiallarni rasmiylashtirishning yagona standartlariga muvofiqligi yuzasidan tekshirish uchun Korporativ maslahatchiga yuborilishi kerak. Vakolatli mansabdor shaxs yoki tarkibiy bo'linma Korporativ maslahatchining Umumiy yig'ilish kun tartibining masalalari bo'yicha tayyorlangan materiallar yuzasidan har qanday e'tirozlarini tegishli tarzda bartaraf etishi shart.

49. Bo'lajak Umumiy yig'ilish kun tartibining barcha masalalari bo'yicha materiallar (axborot) Bankning korporativ internet-resursida (rasmii saytida) joylashtirilishi, aksiyadorlarga Korporativ boshqarish xizmatining ofisida, Bank Kengashining Umumiy yig'ilishni chaqirish to'g'risidagi qarorida ko'rsatilgan manzil bo'yicha, ushbu Reglamentning 33-bandiga muvofiq bo'lajak Umumiy yig'ilish haqidagi xabar e'lon qilingan kundan kechikmay taqdim etish uchun ochiq bo'lishi kerak.

50. Korporativ maslahatchi Umumiy yig'ilishni o'tkazish uchun Bank aksiyadorlarining reestrini (ro'yxatini) o'z vaqtida olish uchun Markaziy qimmatli qog'ozlar depozitariysi bilan o'zaro hamkorlik qiladi. Taqdim etilgan Bank aksiyadorlarining reestri (ro'yxati), Umumiy yig'ilishda ishtirok etish uchun kelgan har bir aksiyadorni haqqoniy identifikatsiya qilish, uning vakilini aniqlash, hamda aksiyadorga tegishli bo'lgan Aksiyadorlari umumiy yig'ilishi kun tartibining har bir masalasi bo'yicha ovoz beruvchi aksiyalarning miqdorini aniqlash imkonini berishi lozim.

Umumiy yig'ilishni o'tkazish maqsadlari uchun qabul qilingan Bank aksiyadorlarining reestri, Markaziy qimmatli qog'ozlar depozitariysi tomonidan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Umumiy yig'ilishni o'tkazish uchun aksiyadorlarning reestrini (ro'yxatini) taqdim etish masalalari bo'yicha har qanday hamkorlik qilish, Umumiy yig'ilishda ishtirok etish uchun yetib kelgan aksiyadorlarni va ularning vakillarini ro'yxatdan o'tkazish boshlanishi paytiga kelib, yakunlanishi kerak. E'lon qilingan xabarda va tarqatilgan Umumiy yig'ilishni chaqirish to'g'risida xabarnomalarda e'lon qilinganiga muvofiq bunday ro'yxatdan o'tkazish boshlanishi paytidan

boshlab aksiyadorlarning reestriga (ro'yxatiga) hech qanday o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilishi mumkin emas.

51. Sanoq komissiyasi taqdim etilgan aksiyadorlarning reestri (ro'yxati) ma'lumotlari asosida quyidagilarni yakuniy hisoblashni ta'minlashi lozim:

- Umumiy yig'ilishning kvorumi, Umumiy yig'ilish kun tartibining har bir masalasini hisobga olgan holda;

- kun tartibining har bir masalasi bo'yicha, «bir aksiya – bir ovoz» tamoyili bo'yicha ovoz berish yoki kumulyativ ovoz berish o'tkazilishi hisobga olingan holda, Umumiy yig'ilishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan har bir Bank aksiyadoriga tegishli bo'lgan ovozlar miqdori.

52. Taqdim etilgan aksiyadorlarning reestri (ro'yxati), yoki Umumiy yig'ilishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlarning bunday reestri (ro'yxati) asosida tayyorlangan Umumiy yig'ilish ishtirokchilarini ro'yxatdan o'tkazish jurnali, quyidagilarga imkon berishi kerak:

- unga aksiyadorning vakili haqida ma'lumotlarni, aksiyadorning vakili bo'lishi yuzasidan uning vakolatlarini tasdiqlovchi hujjat (-lar) rekvizitlarini kiritish;

- aksiyadorning Umumiy yig'ilishda ishtirok etish va/yoki Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi kun tartibi bo'yicha qarorlarni qabul qilishda ovoz berish yuzasidan vakolatlari mazmunini ko'rsatish;

- aksiyador (uning vakili) Umumiy yig'ilishning materiallarini va uning kun tartibi masalalari bo'yicha ovoz berish byulletenlarini olganini tasdiqlash uchun imzo qo'yish.

53. Umumiy yig'ilishda ishtirok etish uchun aksiyadorlarni ro'yxatdan o'tkazish jurnali (reestri) (zarur bo'lganda) alfavit harflari bo'yicha bir nechta qismga taqsimlanishi mumkin, bunday jurnalning qismlari esa (zarur bo'lganda) sanoq komissiyasining bir nechta a'zolari o'rtasida, sanitariya-gigiyenik talablariga rioya qilgan holda bir vaqtning o'zida bir nechta aksiyadorlarni ro'yxatdan o'tkazishga imkon beradigan tarzda taqsimlanishi kerak.

Aksiyadorlarni ro'yxatdan o'tkazish xonasida (zarur bo'lganda) taqsimlangan alfavit harflariga muvofiq bir nechta ro'yxatdan o'tkazish stollari qo'yib chiqilgan bo'lishi, har bir ro'yxatdan o'tkazish stolining yonida Umumiy yig'ilish kun tartibining materiallari va ovoz berish byulletenlari bo'lgan paketlar (papkalar) joylashtirilishi kerak.

54. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining materiallari bo'lgan paketlar (papkalar) soni, Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida Bank Kengashi tomonidan belgilangan uni tuzish (qayd etish) sanasida aksiyadorlarning reestrda ro'yxatdan o'tkazilgan Bankning barcha aksiyadorlari, ularga tegishli bo'lgan Bank aksiyalarining turidan qat'i nazar, ishtirok etishi hisobga olingan miqdorda tayyorlanishi kerak.

55. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishini o'tkazish zalida o'rindiqlar (stullar) soni, Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida Bank Kengashi tomonidan belgilangan uni tuzish (qayd etish) sanasida aksiyadorlarning reestrda ro'yxatdan o'tkazilgan Bankning barcha aksiyadorlari, ularga tegishli bo'lgan Bank aksiyalarining turidan qat'i nazar, ishtirok etishi hisobga olingan miqdorda mos bo'lishi kerak.

56. Umumiy yig'ilishni o'tkazish zalida so'zga chiqish uchun minbar va Umumiy yig'ilishning rayosati uchun mo'ljallangan, unda rayosatga taklif etilishi rejalashtirilgan barcha shaxslar o'tirishi mumkin bo'ladigan stol joylashtirilishi kerak.

57. Umumiy yig'ilishni o'tkazish zalida Umumiy yig'ilishning kotibiyati uchun mo'ljallangan, unda kotibiyat a'zolariga nomzodlar sifatida tasdiqlangan barcha shaxslar o'tirishi mumkin bo'ladigan alohida stol joylashtirilishi kerak.

58. Umumiy yig'ilishni o'tkazish zalida, hisobchilarga ovoz berish byulletenlarini tarqatish va yig'ish uchun, Umumiy yig'ilishning kotibiyatiga xatlarni topshirish uchun, savol berish va so'zga chiqish uchun mikrofonlarni berish uchun Umumiy yig'ilishning har bir ishtirokchisiga, kotibiyatga va rayosatga (prezidiumga) yetib borish imkonini ta'minlaydigan, hamda yig'ilish ishtirokchilariga Umumiy yig'ilishni o'tkazish zalida joylashish, minbarga chiqish va zaldan chiqish uchun to'siqsiz yetib borish imkonini beradigan yo'laklar tashkil etilishi lozim.



59. Zarur bo'lganda va Korporativ maslahatchining qaroriga ko'ra, Umumiy yig'ilishning sanasidan bir kun avval Korporativ maslahatchining rahbarligi ostida, sanoq komissiyasining barcha a'zolari, hisobchilar, kotibiyat tarkibiga nomzodlar, xavfsizlik va qo'riqlash xizmatining xodimlari, tibbiy xodim, kun tartibining masalalari bo'yicha ma'ruzachilar, Umumiy yig'ilishni tayyorlash va o'tkazishda ishtirok etadigan shaxslar ishtirokida Umumiy yig'ilishning repetitsiyasi o'tkazilishi kerak.

60. Umumiy yig'ilishni o'tkazish joyini to'liq rasmiylashtirish va texnik jihozlash Umumiy yig'ilishning sanasidan bir kun avval to'liq yakunlanishi lozim.

## V. UMUMIY YIG'ILISHDA ISHTIROK ETISH UCHUN RO'YXATDAN O'TISH

61. Umumiy yig'ilish ishtirokchilarini ro'yxatdan o'tkazish, e'lon qilingan Umumiy yig'ilishni o'tkazish to'g'risidagi xabarnomada Umumiy yig'ilish ishtirokchilarini ro'yxatdan o'tkazish boshlanishi vaqti sifatida ko'rsatilgan paytda boshlanishi kerak.

62. Umumiy yig'ilish ishtirokchilarini va taklif etilgan shaxslarni ro'yxatdan o'tkazish sanoq komissiyasi a'zolari tomonidan amalga oshiriladi.

Sanoq komissiyasining miqdoriy va shaxsiy tarkibi Umumiy yig'ilish tomonidan belgilanadi. Sanoq komissiyasi har yili yillik Umumiy yig'ilish tomonidan keyingi yillik Umumiy yig'ilish yakunlanishigacha muddatga saylanadi.

Sanoq komissiyasining faoliyati Aksiyadorlik jamiyatlari to'g'risida Qonun, Bank Ustavi, ushbu Reglament bilan tartibga solinadi.

Umumiy yig'ilish ishtirokchilarini va taklif etilgan shaxslarni ro'yxatdan o'tkazish bunday ro'yxatdan o'tkazish xonasida (xoll) amalga oshiriladi.

63. Umumiy yig'ilishda ishtirok etish uchun yetib kelgan, jismoniy shaxs bo'lgan Bank aksiyadori uning familiyasining birinchi harfi ko'rsatilgan ro'yxatdan o'tkazish stolining oldiga kelib, uning shaxsini tasdiqlovchi hujjatni (ro'yxatni o'tkazish tashkil etilganda) taqdim etishi lozim.

Agar bunday aksiyador Umumiy yig'ilishda ishtirok etish uchun o'z vakili yoki bir nechta vakillari bilan birga kelgan bo'lsa, har bir bunday vakil ham uning shaxsini tasdiqlovchi hujjatni, hamda uning Umumiy yig'ilishda ishtirok etish va/yoki aksiyadorning nomidan Umumiy yig'ilishning qarorlarini qabul qilishda ovoz berish vakolatlarini tasdiqlovchi ishonchnomani taqdim etishi lozim. Bunda, aksiyador ulardan qaysi biri tashkiliy masalalar va kun tartibining masalalari bo'yicha ovoz berishda ishtirok etishini ko'rsatishi kerak, bu haqda Umumiy yig'ilish ishtirokchilarini ro'yxatdan o'tkazish jurnalida belgi qo'yilishi kerak.

Agar Umumiy yig'ilishda ishtirok etish uchun aksiyadorning ishonchnoma asosidagi vakili kelgan bo'lsa, bunday vakil uning shaxsini tasdiqlovchi hujjatni, hamda uning Umumiy yig'ilishda ishtirok etish va/yoki aksiyadorning nomidan Umumiy yig'ilishning qarorlarini qabul qilishda ovoz berish vakolatlarini tasdiqlovchi ishonchnomani taqdim etishi lozim.

Agar Umumiy yig'ilishda ishtirok etish uchun aksiyadorning qonuniy vakili kelgan bo'lsa, bunday vakil uning shaxsini tasdiqlovchi hujjatni, va uning aksiyadorning qonuniy vakili sifatidagi vakolatlarini tasdiqlovchi hujjatni (-larni) taqdim etishi lozim.

64. Umumiy yig'ilishda ishtirok etish uchun kelgan, yuridik shaxs (shu jumladan xorijiy kompaniya) yoki davlat (davlat organi) bo'lgan Bank aksiyadorining vakili, yuridik shaxslar bo'lgan yig'ilish ishtirokchilarini ro'yxatdan o'tkazish stoli oldiga kelishi, uning shaxsini tasdiqlovchi hujjatni, hamda uning Umumiy yig'ilishda ishtirok etish va/yoki aksiyadorning nomidan Umumiy yig'ilishning qarorlarini qabul qilishda ovoz berish vakolatlarini tasdiqlovchi ishonchnomani taqdim etishi lozim.

65. Aksiyadori (aksiyadorning vakilini) Umumiy yig'ilishda ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tkazishda sanoq komissiyasining a'zosi quyidagilarni bajarishi kerak:

- yuzini uning shaxsini tasdiqlovchi hujjatdagi fotosuratga taqqoslash;

- aksiyadorning ismini/nomini aksiyadorlarning reestri (Umumiy yig'ilish ishtirokchilarini ro'yxatdan o'tkazish jurnali) ma'lumotlariga taqqoslash;

- aksiyadorning vakili kelganda – taqdim etilgan ishonchnoma yoki ushbu Umumiy yig'ilishda aksiyadorning vakili bo'lish yuzasidan vakolatlovchi boshqa hujjatlar, aynan aksiyadorlarning reestrida (Umumiy yig'ilish ishtirokchilarini ro'yxatdan o'tkazish jurnalida) ko'rsatilgan aksiyador tomonidan berilganligiga ishonch hosil qilish;

- aksiyador vakiliga berilgan vakolatlarining mazmunini aniqlash – uchastvovat v Umumiy yig'ilishda ishtirok etish yoki ishtirok etish va Umumiy yig'ilish kun tartibining ma'lum yoki barcha masalalari bo'yicha ovoz berish; aksiyadorlarning reestrida (Umumiy yig'ilish ishtirokchilarini ro'yxatdan o'tkazish jurnalida) ushbu aksiyadorning nomidan ovoz beradigan shaxsga nisbatan, bunday vakolatlar mazmuni to'g'risida tegishli belgini qo'yish;

- agar Umumiy yig'ilishda ishtirok etish uchun aksiyador o'z vakili yoki bir nechta vakili bilan kelgan bo'lsa – aksiyadordan, ulardan qaysi biri tashkiliy xususiyatdagi masalalar bo'yicha qarorlarni qabul qilishda ovoz berishini aniqlash; aksiyadorlarning reestrida (Umumiy yig'ilish ishtirokchilarini ro'yxatdan o'tkazish jurnalida) ovoz berish uchun vakolatlangan shaxs to'g'risida tegishli belgini qo'yish;

- ushbu aksiyador Umumiy yig'ilishning ishtirokchisi sifatida ro'yxatdan o'tganini va Umumiy yig'ilishning materiallari bo'lgan paketni (papkani) olganligini tasdiqlash sifatida, aksiyador (aksiyadorning vakili) imzosini olish;

- aksiyadorga (aksiyadorning vakiliga) Umumiy yig'ilish kun tartibining masalalari bo'yicha materiallar va byulletenlar bo'lgan paketni (papkani) berish; agar o'z vakili yoki bir nechta vakili bilan kelgan bo'lsa, yoki aksiyadorning ovoz berish huquqi bo'lgan bir nechta vakili kelgan bo'lsa – faqat bitta Umumiy yig'ilishning materiallari bo'lgan paketni (papkani) va Umumiy yig'ilish kun tartibining masalalari bo'yicha ovoz berish uchun byulletenlar to'plamini berish;

- aksiyadorga (aksiyadorning vakiliga) Umumiy yig'ilish kun tartibining masalalari bo'yicha ovoz berish byulletenlaridan foydalanish tartibini tushuntirish;

- agar aksiyador vakilining vakolatlari faqat Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etishni ko'zda tutadigan bo'lsa – unga faqat Umumiy yig'ilishning materiallari bo'lgan bir paketni (papkani) berish;

- agar aksiyador vakilining vakolatlari faqat Umumiy yig'ilish kun tartibining ayrim masalalari bo'yicha (barchasi bo'yicha emas) ovoz berish huquqini ko'zda tutadigan bo'lsa – unga faqat ular bo'yicha qarorlarni qabul qilishda ovoz berishga vakolatlangan masalalar bo'yicha ovoz berish byulletenlarini berish;

- uning Umumiy yig'ilish borishining audioyozuvini yuritishga roziligini tasdiqlash uchun Umumiy yig'ilishning ro'yxatdan o'tgan ishtirokchisining imzosini olish (bunday shaklni imzolashdan bosh tortishga yo'l qo'yilmaydi, chunki Umumiy yig'ilish bayonnomasining eng to'liq mazmunini ta'minlash va Umumiy yig'ilish qarorlari ustidan shikoyat qilish yoki boshqa korporativ nizolar risklarini minimallashtirish uchun audioyozuv zarur bo'ladi);

- Umumiy yig'ilishni o'tkazishning videos'emkasini yuritish taxmin qilinsa, bunday videos'emkani amalga oshirishga roziligini tasdiqlash uchun Umumiy yig'ilishning ro'yxatdan o'tgan ishtirokchisining imzosini olish (bunday shaklni imzolashdan bosh tortishga yo'l qo'yilmaydi, chunki Umumiy yig'ilish bayonnomasining eng to'liq mazmunini ta'minlash va Umumiy yig'ilish qarorlari ustidan shikoyat qilish yoki boshqa korporativ nizolar risklarini minimallashtirish uchun videos'emka zarur bo'ladi);

Umumiy yig'ilish ishtirokchilarini ro'yxatdan o'tkazishni amalga oshiruvchi sanoq komissiyasining a'zosi, aksiyadorlarning reestriga (Umumiy yig'ilish ishtirokchilarini ro'yxatdan o'tkazish jurnaliga) aksiyador vakilining ma'lumotlarini, hamda uning shaxsini tasdiqlovchi hujjatning va ishonchnomaning rekvizitlarini kiritishi lozim.

Ishonchnomaning asl nusxasi Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tkazishda sanoq komissiyasiga topshirilishi kerak.

Bank aksiyadorlarining vakillari tomonidan Umumiy yig'ilishda ishtirok etish uchun taqdim etgan barcha ishonchnomalar, sanoq komissiyasi tomonidan tayyorlangan ushbu ishonchnomalarning ro'yxati bilan birgalikda, ushbu Umumiy yig'ilishning boshqa hujjatlari tarkibida Korporativ maslahatchining arxiviga topshirilishi lozim.

66. Agar Umumiy yig'ilishda ishtirok etish va Aksiyadorlari umumiy yig'ilishi kun tartibining masalalari bo'yicha qarorlarni qabul qilishda ovoz berish bo'yicha ishonchnoma xorijiy davlatda berilgan bo'lsa, yoki bunday ishonchnoma yuridik shaxs tomonidan berilgan bo'lsa, bunday ishonchnomaning shakliga va mazmuniga qo'yiladigan talablarga uning muvofiqligini baholash, sanoq komissiyasining a'zosi bo'lgan Bank yuridik xizmatining xodimi tomonidan, yoki sanoq komissiyasiga Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi ishtirokchilarini ro'yxatdan o'tkazishda ko'maklashish uchun belgilangan xodim tomonidan belgilanishi kerak.

Bank yuridik xizmatining bunday xodimi ishonchnomaning belgilangan talablarga muvofiqligini Umumiy yig'ilish ishtirokchilarini ro'yxatdan o'tkazish jurnalida imzo qo'yish orqali tasdiqlashi lozim.

67. Agar aksiyador vakilining ishonchnomasi uning shakliga yoki mazmuniga qo'yilgan talablarga muvofiq bo'lmasa va aksiyadorning vakilini Umumiy yig'ilishda ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tkazish imkonini bermasa, bunday ro'yxatdan o'tkazish rad etilishi lozim.

Ushbu shaxs buni talab qilgan holda, sanoq komissiyasi Umumiy yig'ilish ishtirokchisini ro'yxatdan o'tkazishni rad etish to'g'risida bayonnomani rasmiylashtirishi lozim. Bunday bayonnomada ro'yxatdan o'tkazishni rad etish asosi ko'rsatilishi lozim, bayonnoma ikki nusxada (aksiyador (uning vakili) uchun va Bank uchun bittadan) rasmiylashtiriladi, va sanoq komissiyasi raisi va Umumiy yig'ilishning ishtirokchisi sifatida ro'yxatdan o'tkazish rad etilgan shaxs tomonidan imzolanishi lozim. Bankning bunday bayonnomasining nusxasi ushbu Umumiy yig'ilishning boshqa hujjatlari bilan birga Korporativ maslahatchining arxiviga topshirilishi kerak.

68. Aksiyadori (aksiyador vakilini) Umumiy yig'ilishning ishtirokchisi sifatida ro'yxatdan o'tkazish tugaganda, Umumiy yig'ilishning ochilishi paytidan boshlab Umumiy yig'ilishni o'tkazish zalining eshiklari yopilgan bo'lishi, va unga kirish imkoni taqiqlanishi lozimligi haqidagi majburiy qoida bilan, Umumiy yig'ilishning ro'yxatdan o'tkazilgan ishtirokchisi Umumiy yig'ilishni o'tkazish zaliga taklif etilishi mumkin.

69. Berilmay qolgan Umumiy yig'ilish kun tartibining masalalari bo'yicha ovoz berish byulletenlari, Umumiy yig'ilish ishtirokchilarini ro'yxatdan o'tkazish tugaganda, ularning har biriga chiziq tortilishi va bunday chiziq tortilgan byulletenda sanoq komissiyasi raisining imzosi va/yoki sanoq komissiyasining tamg'asi (mavjud bo'lganda) qo'yilishi orqali, zudlik bilan o'chirilishi kerak. O'chirilgan byulletenlar ushbu Umumiy yig'ilishning boshqa hujjatlari bilan birga Korporativ maslahatchining arxiviga topshirilishi kerak.

70. Umumiy yig'ilish ishtirokchilarini ro'yxatdan o'tkazish, Umumiy yig'ilishni o'tkazish haqidagi e'lon qilingan xabarda Umumiy yig'ilish ishtirokchilarini ro'yxatdan o'tkazish yakunlanishi vaqti sifatida ko'rsatilgan paytda yakunlanishi kerak. Umumiy yig'ilish ishtirokchilarini ro'yxatdan o'tkazish yakunlanishi vaqti yetib kelganidan so'ng birorta aksiyador yoki uning vakili ushbu Umumiy yig'ilishda ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tkazilishi mumkin emas.

71. Agar Umumiy yig'ilish ishtirokchisi sifatida ro'yxatdan o'tkazishga kechikkan shaxs buni talab qilsa, sanoq komissiyasi Umumiy yig'ilishda ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tkazishga kech yetib kelish to'g'risidagi bayonnomani rasmiylashtirishi shart. Bunday bayonnomada ro'yxatdan o'tkazish uchun yetib kelish vaqti ko'rsatilishi lozim, bayonnoma ikki nusxada (aksiyador (uning vakili) uchun va Bank uchun bittadan) rasmiylashtiriladi, va sanoq komissiyasi raisi va kech qolgan aksiyador (uning vakili) tomonidan imzolanishi lozim. Bankning bunday bayonnomasining nusxasi ushbu Umumiy yig'ilishning boshqa hujjatlari bilan birga Korporativ maslahatchining arxiviga topshirilishi kerak.

72. Umumiy yig'ilish ishtirokchilarini ro'yxatdan o'tkazish vaqti tugaganda, sanoq komissiyasi kvorum borligini aniqlashi va Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi ishtirokchilarini ro'yxatdan o'tkazish bayonnomasini rasmiylashtirishi lozim.

73. Umumiy yig'ilishning kvorumini aniqlash, uning kun tartibi masalalarini va qaysi aksiyalar turlarining egalari kun tartibining masalalari bo'yicha qarorlarni qabul qilish uchun ovoz berishga qo'yilishini hisobga olgan holda, amalga oshiriladi.

Agar Umumiy yig'ilish kun tartibining hech bo'lmasa bir masalasi bo'yicha qarorlarni qabul qilish uchun, Umumiy yig'ilish kun tartibining boshqa masalalari bo'yicha qarorlarni qabul qilish uchun talab etilganiga nisbatan ko'proq aksiyalar soni ovoz beruvchi deb tan olinsa (masalan, ushbu masala bo'yicha ovoz berishda imtiyozli aksiyalar egalari ishtirok etishi lozimligini hisobga olgan holda), ushbu Umumiy yig'ilishning kvorumi, bunday talab etiladigan ovoz beruvchi aksiyalarning ko'proq miqdoridan kelib chiqib, aniqlanishi lozim.

74. Umumiy yig'ilish ishtirokchilarini ro'yxatdan o'tkazish va Umumiy yig'ilish kvorumini aniqlash natijalari Umumiy yig'ilishning bayonnomasida aks ettirilishi kerak, unda (i) jami qancha Bankning oddiy aksiyalari joylashtirilgan, (ii) jami qancha Bankning imtiyozli aksiyalari joylashtirilgan, (iii) qancha Bankning oddiy aksiyalari egalari bo'lgan aksiyadorlar (ularning vakillari), Umumiy yig'ilishda ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tkazilgan, (iv) qancha Bankning imtiyozli aksiyalari egalari bo'lgan aksiyadorlar (ularning vakillari), Umumiy yig'ilishda ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tkazilgan, (v) qanday aksiyalar ushbu Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ovoz beruvchi hisoblanadi, (vi) kun tartibining masalalarini hisobga olganda, ushbu Umumiy yig'ilishning kvorumi qanday bo'lishi kerak, (vii) ushbu Umumiy yig'ilish, uning barcha kun tartibi masalalari bo'yicha qarorlarni qabul qila olishi uchun zarur bo'lgan kvorumning borligi yoki yo'qligi to'g'risida xulosa ko'rsatilishi kerak.

75. Umumiy yig'ilishning ishtirokchilari bo'lmagan, taklif etilgan shaxslarni ro'yxatdan o'tkazish sanoq komissiyasi tomonidan alohida ro'yxatdan o'tkazish jurnalida amalga oshiriladi. Bunday ro'yxatdan o'tkazishni bajarishda sanoq komissiyasining a'zosi: (i) taklif etilgan shaxsning tegishli ro'yxatdan o'tkazish jurnalida borligini tekshirish, (ii) jurnal ma'lumotlarini shaxsini tasdiqlovchi hujjatning ma'lumotlari bilan taqqoslash, (iii) taklif etilgan shaxsning ushbu Reglamentga muvofiq audioyozuvni va videos'emkani yuritishga roziligini olish, (iv) Umumiy yig'ilishning materiallari bo'lgan papkani (paketni) topshirish kerak.

76. Umumiy yig'ilish ishtirokchilarini ro'yxatdan o'tkazish bayonnomasi sanoq komissiyasining raisi va barcha a'zolari tomonidan imzolanishi kerak.

77. Umumiy yig'ilish ishtirokchilarini ro'yxatdan o'tkazish bayonnomasi, aksiyadorlarning reestri (ro'yxatdan o'tkazish jurnali), taklif etilgan shaxslarni ro'yxatdan o'tkazish jurnali, yig'ib olingan (tegishli tarzda nomlangan, muhrlangan va sanoq komissiyasining barcha a'zolari tomonidan imzolangan alohida xatjildlarga joylashtirilgan) Umumiy yig'ilishning audioyozuvlarini va videos'emkalarini yuritishga roziliklar ushbu Umumiy yig'ilishning boshqa hujjatlari bilan birga Korporativ maslahatchining arxiviga topshirilishi kerak.

## **VI. UMUMIY YIG'ILISHNI OCHISH**

78. Umumiy yig'ilishning boshlanishi Umumiy yig'ilishni o'tkazish haqidagi e'lon qilingan xabarda Umumiy yig'ilishning boshlanishi vaqti (o'tkazilishi vaqti) sifatida ko'rsatilgan paytda bo'lishi kerak. Umumiy yig'ilishning boshlanishi Bank Kengashining Raisi tomonidan, yoki Bank Kengashi to'g'risidagi Nizomga muvofiq Bank Kengashining vazifalarini bajaruvchi shaxs tomonidan, yoki Bank Kengashining Umumiy yig'ilishni chaqirish va o'tkazish to'g'risidagi qarorida belgilangan boshqa shaxs tomonidan e'lon qilinadi.

79. Umumiy yig'ilishning boshlanishi e'lon qilinganidan keyin, Bank Kengashining Raisi (Bank Kengashi Raisining vazifasini bajaruvchi shaxs) sanoq komissiyasi raisini Umumiy yig'ilish ishtirokchilarini ro'yxatdan o'tkazish bayonnomasini taqdim etish va bunday ro'yxatdan o'tkazishning natijalarini e'lon qilish uchun taklif qiladi.



80. Umumiy yig'ilish ishtirokchilarini ro'yxatdan o'tkazish natijalari sanoq komissiyasi raisi tomonidan Umumiy yig'ilishning minbaridan ushbu Umumiy yig'ilishda ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tkazilgan, Umumiy yig'ilishni o'tkazish zalida bo'lgan shaxslar e'tibori uchun e'lon qilinishi lozim.

81. Umumiy yig'ilish ishtirokchilarini ro'yxatdan o'tkazish natijalariga ko'ra ushbu Umumiy yig'ilishni o'tkazish uchun kvorumning yo'qligi aniqlansa, Bank Kengashining Raisi (Bank Kengashi Raisining vazifasini bajaruvchi shaxs), kvorumning yo'qligi sababli ushbu Umumiy yig'ilish o'tkazilishi mumkin emasligini, u bo'lib o'tmagan deb tan olinishini, xuddi shunday kun tartibi bilan takroriy Umumiy yig'ilish Aksiyadorlik jamiyatlari to'g'risida Qonunga va Bank Ustaviga muvofiq holda, Umumiy yig'ilishni chaqirish to'g'risida xabarnomaga muvofiq o'tkazilishini e'lon qilish kerak.

Bu holda, Bank Kengashining Raisi (Bank Kengashi Raisining vazifasini bajaruvchi shaxs), sanoq komissiyasining raisi va barcha a'zolari, Umumiy yig'ilish kvorum bo'lmagani sababli bo'lib o'tmagani haqidagi bayonnomani imzolashi, bu bayonnomani Korporativ maslahatchiga bo'lib o'tmagan Umumiy yig'ilish to'g'risida xabarni tayyorlash va e'lon qilish uchun topshirishi kerak. Bunday bayonnomada Bank Kengashining ushbu Umumiy yig'ilishni chaqirish va o'tkazish to'g'risidagi qarorining sanasi va raqami, Umumiy yig'ilishni o'tkazishning e'lon qilingan joyi va vaqti, hamda Umumiy yig'ilish kvorumning yo'qligi sababli bo'lib o'tmaganligi to'g'risida bayonot ko'rsatilishi kerak.

82. Umumiy yig'ilish ishtirokchilarini ro'yxatdan o'tkazish natijalariga ko'ra, ushbu Umumiy yig'ilishni o'tkazish uchun kvorum borligi aniqlansa, Bank Kengashining Raisi (Bank Kengashi Raisining vazifasini bajaruvchi shaxs) ushbu Umumiy yig'ilish uning kun tartibining barcha masalalarini ko'rib chiqish va ular bo'yicha qarorlarni qabul qilish huquqiga ega ekanligini e'lon qilishi, hamda Umumiy yig'ilishdagi raislik etuvchini va Umumiy yig'ilishning kotibini saylashni taklif etishi kerak.

83. Umumiy yig'ilishdagi raislik etuvchini va Umumiy yig'ilishning kotibini saylash ochiq ovoz berish bilan, qo'llarni ko'tarish orqali amalga oshiriladi.

Umumiy yig'ilishdagi raislik etuvchi va Umumiy yig'ilishning kotibi sifatida saylash uchun nomzodlar Umumiy yig'ilishning istalgan ishtirokchisi tomonidan, hamda Umumiy yig'ilishni ochib bergan Bank Kengashining Raisi (Bank Kengashi Raisining vazifasini bajaruvchi shaxs) tomonidan ko'rsatilishi mumkin.

Umumiy yig'ilishdagi raislik etuvchi sifatida Bank Kengashining Raisi (Bank Kengashi Raisining vazifasini bajaruvchi shaxs) yoki Bankning ovoz beruvchi aksiyalarining kamida 5 (besh) foiziga egalik qilgan har qanday aksiyador (yuridik shaxs bo'lgan aksiyadorning vakili) saylanishi mumkin.

Umumiy yig'ilish kotibi sifatida Korporativ maslahatchi yoki Bankning Korporativ boshqaruv xizmatining xodimi saylanishi mumkin.

Umumiy yig'ilishdagi raislik etuvchini va Umumiy yig'ilishning kotibini saylash bo'yicha ovoz berish alohida – avval yig'ilishda raislik etuvchini saylash bo'yicha ovoz berish, keyin – Umumiy yig'ilishning kotibini saylash bo'yicha ovoz berish o'tkazilishi kerak.

Umumiy yig'ilish ishtirokchilarining ko'pchiligi ular uchun ovoz bergan shaxslar, Umumiy yig'ilishdagi raislik etuvchi va Umumiy yig'ilishning kotibi sifatida saylangan deb hisoblanadi.

84. Umumiy yig'ilishdagi raislik etuvchi ushbu Reglamentga rioya etilishini, Umumiy yig'ilish kun tartibining barcha masalalarini tegishli ko'rib chiqish va ular bo'yicha qarorlarni qabul qilishni ta'minlash uchun, Umumiy yig'ilish ishtirokchilarining huquqlariga rioya etilishi uchun, hamda Umumiy yig'ilish bayonnomasining tegishli mazmuni, rasmiylashtirish va imzolanishi uchun vakolatlangan va mas'ul bo'ladi.

85. Umumiy yig'ilishning kotibi Umumiy yig'ilish bayonnomasini yuritish, rasmiylashtirish va imzolash uchun, hamda rasmiylashtirilgan bayonnomani Bank arxiviga (ushbu Umumiy yig'ilishning boshqa hujjatlari bilan birga Korporativ maslahatchining arxiviga) tegishli

topshirish uchun mas'ul bo'ladi. Umumiy yig'ilishning kotibi Umumiy yig'ilishning kotibiyati tarkibiga kiradi va uning faoliyatini tashkil etadi.

86. Umumiy yig'ilishdagi raislik etuvchi saylanganidan keyin Umumiy yig'ilishning rayosati (prezidiumi) stolida o'rni egallashi, hamda Umumiy yig'ilish kotibini Umumiy yig'ilish kotibiyatining stolida o'z o'rni egallashini va Umumiy yig'ilish kotibining vazifalarini bajarishini taklif etishi kerak. Umumiy yig'ilish yig'ilishdagi raislik etuvchi shuningdek Bank Kengashining Umumiy yig'ilishni chaqirish to'g'risidagi qaroriga muvofiq belgilangan shaxslarni, rayosatda (prezidiumda) joylarini egallashini taklif qilishi kerak.

87. Umumiy yig'ilishdagi raislik etuvchi Umumiy yig'ilish kotibiyatini kamida uch kishi miqdorida saylashni taklif etadi. Umumiy yig'ilish kotibiyatining miqdoriy va shaxsiy tarkibi ochiq ovoz berish bilan, qo'llarni ko'tarish orqali amalga oshiriladi.

Umumiy yig'ilish kotibiyati tarkibiga saylash uchun nomzodlar Umumiy yig'ilishning istalgan ishtirokchisi yoki Umumiy yig'ilishdagi raislik etuvchi tomonidan, Umumiy yig'ilishda ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tkazilgan aksiyadorlar (aksiyadorlarning vakillari), hamda Korporativ boshqaruv xizmatining xodimlari va/yoki Bank xodimlari ichidan ko'rsatilishi mumkin.

Umumiy yig'ilishning kotibiyatini shakllantirish masalasi bo'yicha ovoz berish ro'yxat asosida (shaxsiy tartibda emas) amalga oshiriladi.

88. Umumiy yig'ilish kotibiyatining funksiyasi Umumiy yig'ilish bayonnomasini yuritishda ko'maklashishdan, hamda aksiyadorlarning Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi kun tartibining masalalari bo'yicha so'zga chiqishi va ularning Umumiy yig'ilishni olib borish iltimosnomalarni bildirishi yuzasidan navbatini shakllantirishda ko'maklashishdan iborat bo'ladi. Kotibiyat nomidan Umumiy yig'ilishning kotibi so'zga chiqadi.

89. Kotibiyat shakllantirilganidan keyin Umumiy yig'ilishda raislik etuvchi kotibiyatning saylangan a'zolariga kotibiyatning stolidagi o'z o'rinlarini egallashni va o'z vazifalarini bajarishga kirishishni taklif etishi lozim.

90. Raislik etuvchi Umumiy yig'ilishning kun tartibini Bank Kengashining qarori tomonidan tasdiqlangan va ushbu Reglamentga muvofiq holda e'lon qilingan holatiga muvofiq ravishda e'lon qilishi kerak, shuningdek Umumiy yig'ilishning ishtirokchilariga Aksiyadorlik jamiyatlari to'g'risida Qonunga muvofiq, Umumiy yig'ilish bu kun tartibiga o'zgartirishlarni kiritish huquqiga ega emasligini bildirishi kerak.

91. Umumiy yig'ilishning kun tartibi e'lon qilinganidan keyin Umumiy yig'ilishda raislik etuvchi Umumiy yig'ilishning ishtirokchilariga Umumiy yig'ilishni tanaffussiz o'tkazishni (*yig'ilish ishtirokchilarini takroriy ro'yxatdan o'tkazishga yo'l qo'ymaslik va Umumiy yig'ilish kvorumini belgilash uchun*) va kun tartibi masalalarini ko'rib chiqish uchun reglamentni belgilashni, Umumiy yig'ilish kun tartibining masalalari bo'yicha ma'ruzachilar (asosiy ma'ruzachilar) va holatlarga bog'liq holda, qo'shimcha ma'ruzachilar so'zga chiqishi uchun, shuningdek Umumiy yig'ilish ishtirokchilarining muhokama qilish jarayonida so'zga chiqishlari, javoblari va replikalari uchun maksimal vaqtini belgilashni taklif etishi kerak.

Shuningdek, kun tartibining masalalari bo'yicha ma'ruzachilar va qo'shimcha ma'ruzachilar Umumiy yig'ilishning minbaridan so'zga chiqishi kerakligini, shu bilan birga savollar va replikalar i mogut bnt mikrofonlardan foydalanib joyidan berilishi (bajarilishi) mumkinligini belgilash lozim. Umumiy yig'ilish kotibiyatiga yozma murojaat qilish, xat orqali so'zga chiqish, savol berish yoki replikani berish imkoniga ega bo'lish uchun tartibini alohida belgilash kerak.

Shuningdek, ovoz berish natijalari va Umumiy yig'ilishning qabul qilingan qarorlari, kun tartibining keyingi masalasini ko'rib chiqish kun tartibining avvalgi masalasi bo'yicha qarorni qabul qilish va e'lon qilishsiz mumkin bo'lmagan holatlardan tashqari, Umumiy yig'ilish kun tartibining barcha masalalarini ko'rib chiqish va Umumiy yig'ilishning qarorlarini qabul qilish bo'yicha ovoz berishni o'tkazishdan keyin e'lon qilinishini alohida belgilab olish kerak. Bunday vaziyatda tegishli keyingi masalani ko'rib chiqishga o'tishdan avval, ovozlarni sanash o'tkazilishi, ovoz berish natijalari va qabul qilingan qaror e'lon qilinishi kerak. Ushbu Umumiy yig'ilishda bunday tartib qo'llanishi mumkin bo'lsa, Umumiy yig'ilishda raislik etuvchi ushbu axborotni Umumiy

yig'ilishning ishtirokchilari e'tiboriga yetkazishi, yoki ushbu Umumiy yig'ilishni o'tkazish reglamentini belgilash masalasi ovoz berishga qo'yilishidan avval sanoq komissiyasi raisiga buni amalga oshirishni taklif etishi kerak.

92. Umumiy yig'ilishni yuritish reglamenti bo'yicha har qanday takliflar ovoz berishga qo'yilishi kerak. Umumiy yig'ilishni tanaffussiz o'tkazish va kun tartibining masalalarini ko'rib chiqish uchun reglamentni belgilash to'g'risidagi qarorlar ochiq ovoz berish bilan, qo'llarni ko'tarish orqali ovozlarni ko'pchiligi bilan qabul qilinishi kerak.

93. Umumiy yig'ilishda raislik etuvchini va Umumiy yig'ilishning kotibini saylash, kotibiyatni shakllantirish va Umumiy yig'ilishni olib borish reglamentini belgilashdan keyin Umumiy yig'ilishda raislik etuvchi Umumiy yig'ilish kun tartibining masalalarini ko'rib chiqishga va muhokama qilishga o'tish to'g'risida e'lon qilishi lozim.

## **VII. KUN TARTIBI MASALALARINI KO'RIB CHIQISH**

94. Kun tartibining masalalarini ko'rib chiqish va ular bo'yicha ovoz berish ketma-ket, Umumiy yig'ilishning kun tartibi shakllantirilganligiga va kun tartibi doirasida masalalar qanaday taqsimlanganligiga muvofiq holda amalga oshiriladi.

95. Umumiy yig'ilishda raislik etuvchi Umumiy yig'ilish kun tartibining muayyan masalasini ko'rib chiqishni e'lon qilishi, va masalaning mohiyatini ma'ruza qilish uchun bu masala bo'yicha ma'ruzachi etib tayinlangan shaxsni taklif etishi kerak.

96. Umumiy yig'ilish kun tartibining tegishli masalasi bo'yicha har bir ma'ruzachi va qo'shimcha ma'ruzachi Umumiy yig'ilishda raislik etuvchining taklifidan keyin Umumiy yig'ilishning minbariga chiqishi va ushbu masala bo'yicha ma'ruzachiing tadsizqlangan matniga muvofiq so'zga chiqishi, bunda so'zga chiqish uchun belgilangan reglamentga rioya qilishi kerak.

97. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida raislik etuvchi kun tartibining masalasi bo'yicha ma'ruza yakunlanganidan keyin ma'ruzani muhokama qilishga o'tishni e'lon qilishi kerak.

Muhokamaning birinchi qismida ma'ruzachining / qo'shimcha ma'ruzachining Umumiy yig'ilish ishtirokchilarining savollariga javoblari ko'zda tutiladi. Ma'ruza bo'yicha savollar raislik etuvchi savolni berishni taklif etganidan keyin, joyidan turib mikrofondan berilishi kerak. Bunday savol berishning taklifi qo'l ko'tarilishga javoban beriladi.

98. Barcha berilgan savollarga javoblar berilganidan keyin, Umumiy yig'ilishda raislik etuvchi ma'ruza bo'yicha muhokama qilishni, kun tartibining ushbu masalasi bo'yicha qaror qilish yuzasidan takliflarini e'lon qilishi kerak. E'lon qilingan muhokama Umumiy yig'ilish ishtirokchilarining belgilangan so'zga chiqish reglamenti doirasida so'zga chiqishi shaklida o'tkaziladi.

Umumiy yig'ilishda raislik etuvchi tomonidan so'zga chiqishni taklif etish avval Umumiy yig'ilish kotibiyatiga yuborilgan va kotibiyat tomonidan raislik etuvchiga topshirilgan Umumiy yig'ilish ishtirokchilarining xatlariga javoban, berilgan yozma so'rovlarni bo'yicha so'zga chiqishlar tugaganidan keyin – ko'tarilgan qo'lga javoban amalga oshiriladi.

99. Umumiy yig'ilishga bildirilgan kun tartibi masalasi bo'yicha barcha so'zga chiqishlar yakunlanganidan keyin, raislik etuvchi Umumiy yig'ilishning ushbu masala bo'yicha qarori yuzasidan kelib tushgan barcha takliflarni e'lon qilishi, va boshqa takliflar bor-yo'qligini so'rashi kerak. Kun tartibining bildirilgan va muhokama qilingan masalasi bo'yicha Umumiy yig'ilishning qarori yuzasidan boshqa takliflar bo'lmaganda, Umumiy yig'ilishda raislik etuvchi ushbu masalani muhokama qilishni yakunlashni va ushbu masala bo'yicha Umumiy yig'ilishning qarorini qabul qilish uchun ovoz berishga o'tishni e'lon qilishi kerak.

## **VIII. KUN TARTIBI MASALALARI BO'YICHA OVOZ BERISH**

100. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kun tartibining masalalari bo'yicha ovoz berish aksiyadorga (aksiyador vakiliga) Umumiy yig'ilish ishtirokchilarini ro'yxatdan o'tkazishda berilgan ovoz berish byulletenlari bilan amalga oshiriladi.

101. Umumiy qoidaga ko'ra, Umumiy yig'ilish kun tartibining masalalari bo'yicha qarorlarni qabul qilishda Umumiy yig'ilishda ovoz berish «jamiyatning bir ovoz beruvchi aksiyasi — bir ovoz» tamoyili bo'yicha amalga oshiriladi.

102. Bank Kengashi a'zolarini saylash bo'yicha kumulyativ ovoz berishni o'tkazish, hamda Aksiyadorlik jamiyatlari to'g'risida Qonunda ko'zda tutilgan boshqa holatlar ushbu Reglamentning 109-bandida bo'lgan umumiy qoidadan istisno hisoblanadi.

103. Tashkiliy xususiyatdagi qarorlarni qabul qilishda «bir aksiyador – bir ovoz» (aksiyadorga tegishli bo'lgan aksiyalar sonidan qat'i nazar) tamoyili bo'yicha ovoz berishni o'tkazish, ushbu Reglamentning 91, 95 va 100-bandlarida tartibga solinishi kabi, ushbu Reglamentning 109-bandida bo'lgan umumiy qoidadan boshqa istisno hisoblanadi.

104. Umumiy yig'ilishning kun tartibiga ko'ra uning qarorini qabul qilish uchun ovoz berishga qo'yilgan masalaga bog'liq holda, Umumiy yig'ilishning bunday qarori, Aksiyadorlik jamiyatlari to'g'risida Qonun va Bank Ustavining talablariga muvofiq holda Umumiy yig'ilish kun tartibining ushbu masalasi bo'yicha ovoz beruvchi deb tan olinadigan Bank aksiyalari egalari bo'lgan aksiyadorlarning ushbu umumiy yig'ilishimda ishtirok etuvchi ovozlarni ko'pchiligi bilan qabul qilinadi.

105. Aksiyalarni Umumiy yig'ilish kun tartibining muayyan masalasi bo'yicha qaror qabul qilish uchun ovoz beruvchi sifatida belgilash Aksiyadorlik jamiyatlari to'g'risida Qonun va Bank Ustavining me'yorlari asosida amalga oshiriladi.

106. Aksiyalarni Umumiy yig'ilish kun tartibining muayyan masalasi bo'yicha qaror qabul qilish uchun kerakli (oddiy yoki malakali) ovoz ko'pchiligini belgilash Aksiyadorlik jamiyatlari to'g'risida Qonun va Bank Ustavining me'yorlari asosida amalga oshiriladi.

107. Umumiy yig'ilish kun tartibining har bir muayyan masalasi bo'yicha ovoz berishga o'tishda Umumiy yig'ilishda raislik etuvchi sanoq komissiyasi raisiga aksiyadorlarning e'tiboriga quyidagi axborotni yetkazish uchun so'z berishi kerak: (i) ushbu masala bo'yicha qaror qabul qilish uchun qaysi aksiyalar ovoz beruvchi aksiyalar deb tan olinishi va ushbu masala bo'yicha ovoz berishda bankning qaysi turdagi aksiyalarining egalari ishtirok etishi; (ii) ushbu masala bo'yicha qaror qabul qilingan deb hisoblanishi uchun qanday ko'pchilik (oddiy yoki malakali) talab qilinadi; (iii) ushbu masala bo'yicha ovoz berish tartibi qanday, shu jumladan (agar mavjud bo'lsa) kumulyativ ovoz berish tartibi, hamda (iv) ovoz berish natijalari va qabul qilingan qaror qachon e'lon qilinadi (Umumiy yig'ilish kun tartibidagi keyingi masalani ko'rib chiqishga o'tishdan oldin, yoki kun tartibidagi barcha masalalarni ko'rib chiqish va ular bo'yicha ovoz berish tugaganidan keyin).

Sanoq komissiyasining raisi ko'rsatilgan ma'lumotlarni Umumiy yig'ilishning barcha ishtirokchilari e'tiboriga yetkazish uchun Umumiy yig'ilish minbaridan taqdim etishi shart.

108. Sanoq komissiyasi raisining nutqidan so'ng Umumiy yig'ilishda raislik etuvchi Umumiy yig'ilish kun tartibining ushbu masalasi bo'yicha ovoz berishni e'lon qiladi, uning raqamini, kun tartibidagi ushbu masalaning ifodalanihini va qabul qilish uchun taklif qilingan qaror(lar)ni e'lon qiladi, shuningdek, hisobchilarga ovoz berishda qatnashayotgan Umumiy yig'ilish ishtirokchilaridan byulletenlarni yig'ishni, ovozlarni sanab chiqish va ovoz berish bayonnomasini tuzish uchun yig'ilgan byulletenlarni sanoq komissiyasiga topshirishni topshiradi.

Ovoz berishni o'tkazish va to'ldirilgan byulletenlarni yig'ish uchun ovoz beruvchi Umumiy yig'ilish ishtirokchilari ovoz berishi va byulletenlarni hisobchilarga topshirishi uchun yetarli bo'lgan, lekin 10 (o'n) daqiqadan oshmagan vaqt ajratilishi kerak.

109. Hisobchilar barcha to'ldirilgan ovoz berish byulletenlarini yig'ib olgandan so'ng, Umumiy yig'ilishda raislik etuvchi kun tartibining ushbu masalasi bo'yicha ovoz berish yakunlanganligini e'lon qiladi va muayyan holatlarga bog'liq holda, (i) Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi kun tartibining navbatdagi masalasini ko'rib chiqishga o'tishni e'lon qiladi, yoki (ii)



Umumiy yig'ilish kun tartibini yakunlangan deb e'lon qiladi va sanoq komissiyasi raisini ovoz berish natijalarini va Umumiy yig'ilish kun tartibining har bir masalasi bo'yicha qabul qilingan qarorlarini e'lon qilish uchun taklif etadi, yoki (iii) agar Umumiy yig'ilish kun tartibining keyingi masalasini ko'rib chiqish Umumiy yig'ilish kun tartibining avvalgi masalasi bo'yicha qabul qilingan Umumiy yig'ilish qarori bilan belgilab berilgan bo'lsa, sanoq komissiyasi raisini bunday Umumiy yig'ilish kun tartibining avvalgi masalasi bo'yicha ovoz berish natijalarini va qabul qilingan qarorni e'lon qilish uchun taklif qiladi.

110.To'ldirilgan byulletenlarni yig'ish jarayonida hisobchilar ovoz berish ishtirokchilariga byulletenlarni to'ldirish qoidalarini tushuntirishi, va Umumiy yig'ilish ishtirokchisi yordam so'ragan holda byulletenlarni to'ldirishda yordam berishi shart. Bunday yordam berishdan maqsad - byulletenning buzilishiga va ovozlarni sanab chiqish uchun haqiqiy emas deb topilishiga yo'l qo'ymaslikdir.

Hisobchilarga aksiyadorning irodasini bildirishiga ta'sir qilish yoki aksiyadorlarga kun tartibining masalasi bo'yicha qaror qabul qilishda qanday ovoz berish kerakligi haqida ko'rsatma berish taqiqlanadi.

111.Ovoz berish byulletenini haqiqiy emas deb topish sanoq komissiyasi vakolatiga kiradi.

Uning mazmunidan aksiyadorning irodasini bildirishini tushunish mumkin bo'lmagan byulleten, shu jumladan, ovoz berish byulletenida ovoz berishning ehtimoliy variantlarining bittadan ortig'i qoldirilganda yoki ovoz berishning birorta ehtimoliy varianti qoldirilmaganda, haqiqiy emas deb topiladi.

Haqiqiy emas deb topilgan ovoz berish byulletenlarida berilgan ovozlarni, ovoz berish natijalarini hisoblashda hisobga olinmaydi.

112.Umumiy yig'ilish kun tartibining masala(-lar)i bo'yicha ovoz berish natijalarini va qabul qilingan qaror(-lar)ni e'lon qilish Umumiy yig'ilishda amalga oshiriladi.

113.Umumiy yig'ilish kun tartibining masala(-lar)i bo'yicha ovoz berish natijalarini va qabul qilingan qaror(-lar)ni e'lon qilish Umumiy yig'ilishda raislik etuvchining taklifi bilan sanoq komissiyasi raisi tomonidan amalga oshiriladi. Bunday e'lon qilish Umumiy yig'ilishning minbaridan amalga oshiriladi.

114.Umumiy yig'ilish kun tartibining masalalari bo'yicha ovoz berish natijalarini va qabul qilingan qarorni e'lon qilish sanoq komissiyasi tomonidan tuzilgan ovoz berish natijalari bayonnomasi (ovoz berish bayonnomasi) asosida amalga oshiriladi.

115.Ovoz berish bayonnomasida quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

- kun tartibi masalasining raqamlari va ifodalanishi,
- ushbu masala bo'yicha ovoz berish uchun berilgan byulletenlarning umumiy soni,
- ovoz berish jarayonida berilgan to'ldirilgan byulletenlarning soni,
- sanoq komissiyasi tomonidan buzilgan deb tan olingan byulletenlarning soni,
- ushbu qarorni qabul qilish uchun berilgan ovozlarni soni,
- ushbu qarorni qabul qilishga qarshi berilgan ovozlarni soni,
- ushbu qarorni qabul qilishda betaraf qolib berilgan ovozlarni soni,
- kun tartibining ushbu masalasi bo'yicha qabul qilingan Umumiy yig'ilish qarorining ifodalanishi (ushbu masala bo'yicha ovoz berish byulletenlarida ifodalangani kabi),
- aksiyadorning ovoz berishga qo'yilgan masala bo'yicha, ovoz berish byulletenida yoki Umumiy yig'ilish kun tartibining masalasini muhokama qilish davomida umumiy yig'ilishning minbaridan so'zga chiqish paytida ifodalangan alohidagi fikri bo'lganda, - ifodalangan alohida fikri bayon etilgan va uning nomidan ushbu fikr ifodalangan aksiyador ko'rsatilgan holda, tegnishli yozuv kiritiladi.

116.Umumiy yig'ilish kun tartibining masalasi bo'yicha ovoz berish ye po voprosu ni oglasheniyem rezultatov kun tartibining avvalgi masalasi bo'yicha ovoz berish natijalari va qabul qilingan qarori bilan belgilab berilganligiga bog'liq holda, sanoq komissiyasi Umumiy yig'ilish kun tartibining barcha masalalar bo'yicha bir ovoz berish bayonnomasini yoki kun tartibining ayrim masalalari bo'yicha bir nechta ovoz berish bayonnomalarini rasmiylashtiradi.

117.Ovoz berish bayonnoma(-lar)i sanoq komissiyasining raisi va a'zolari tomonidan ovoz berish natijalari e'lon qilinishidan avval imzolaniishi kerak.

118.Ovoz berish bayonnomasiga barcha berilgan, shu jumladan buzilgan deb tan olingan ovoz berish byulletenlari ilova qilinishi kerak. Kun tartibining har bir masalasi bo'yicha ovoz berish byulletenlari muhrlanishi va sanoq komissiyasining barcha a'zolari tomonidan imzolaniishi zarur bo'lgan alohida xatjildga solinishi kerak. Har bir bunday xatjildda, Umumiy yig'ilish kun tartibining qanday masalasi bo'yicha byulletenlar ushbu xatjildga solinganligi ko'rsatilishi kerak.

119.Ovoz berish bayonnomasi ushbu Reglamentning talablariga muvofiq Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi bayonnomasiga ilova qilinishi lozim.

120.Ovoz berish bayonnoma(-lar)i, barcha berilgan va ushbu Reglamentning 123-bandining talablariga muvofiq muhrlangan ovoz berish byulletenlari bilan birgalikda, Umumiy yig'ilish tugaganda, ushbu Umumiy yig'ilishning boshqa hujjatlari bilan birga Bank arxiviga (Korporativ maslahatchining arxiviga) topshirilishi kerak.

## **IX. UMUMIY YIG'ILISHNI YAKUNLASH; UMUMIY YIG'ILISHNING BAYONNOMASINI RASMIYLASHTIRISH**

121.Kun tartibining barcha masalalari bo'yicha ovoz berish natijalarini va qabul qilingan qarorlarni e'lon qilishdan keyin Umumiy yig'ilishda raislik etuvchi Umumiy yig'ilishning ishi yakunlanganligini, Umumiy yig'ilish – yopilganligini e'lon qiladi.

Umumiy yig'ilishning yakunlanganligini e'lon qilib, raislik etuvchi Umumiy yig'ilish ishtirokchilariga, Umumiy yig'ilishning bayonnomasi Aksiyadorlik jamiyatlari to'g'risida Qonunning talablariga muvofiq Umumiy yig'ilish yakunlangan kunidan boshlab 10 (o'n) kun ichida tegishli tarzda rasmiylashtirilishi haqida, hamda Umumiy yig'ilishning yakunlari va Umumiy yig'ilish kun tartibining masalalari bo'yicha qabul qilingan qarorlar to'g'risidagi axborot O'zbekiston Respublikasining qonunchiligining talablariga va Bankning ichki hujjatlariga muvofiq e'lon qilinishi to'g'risida xabar berishi kerak.

122.Umumiy yig'ilishni yakunlangan (yopiq) deb e'lon qilinganidan keyin hech qanday qarorlar qabul qilinishi mumkin emas, va Umumiy yig'ilish ishtirokchilari Umumiy yig'ilish o'tkaziladigan joyni tark etishi shart.

123.Korporativ boshqaruv xizmati, Umumiy yig'ilish ishtirokchilariga berish uchun ishlatilgan va/yoki Umumiy yig'ilishni o'tkazish jarayonida yaratilgan barcha materiallar, bayonnomalar va boshqa hujjatlar Umumiy yig'ilishni o'tkazish joyidan Korporativ maslahatchining ofisiga olib ketilishini (ko'chirilishini) ta'minlashi lozim.

124.Korporativ boshqaruv xizmatining ofisiga yetkazilgan, ushbu Reglamentda ko'rsatilgan barcha materiallar, bayonnomalar va boshqa hujjatlar ushbu Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining hujjatlari sifatida Bank arxiviga (Korporativ maslahatchining arxiviga) topshirish uchun taqsimlanishi, va yo'q qilinishi yoki Bankning ichki hujjatlari, shu jumladan Bankning shaxsiy ma'lumotlarni va boshqa maxfiy ma'lumotlarni himoya qilish bilan bog'liq bo'lgan hujjatlarning talablariga muvofiq, boshqa yo'l bilan utilizatsiya qilinishi kerak.

Korporativ maslahatchi – Umumiy yig'ilish hujjatlarini Bank arxiviga (Korporativ maslahatchining arxiviga) tegishli tarzda topshirilishini/qabul qilinishini, va Reglamentning ushbu bandi talablariga muvofiq ushbu arxivga topshirilishi shart bo'lmagan Umumiy yig'ilishning boshqa hujjatlari va materiallarini yo'q qilinishini/utilizatsiya qilinishini ta'minlashi shart bo'lgan mas'ul shaxsdir.

125.Umumiy yig'ilish yakunlanganidan keyin 10 (o'n) kun ichida Umumiy yig'ilishning kotibi Aksiyadorlik jamiyatlari to'g'risida Qonunning va ushbu Reglamentning talablariga muvofiq Umumiy yig'ilish bayonnomasining loyihasini rasmiylashtirishi, va bu loyihani Umumiy yig'ilishning bayonnomasini rasmiylashtirishga qo'yiladigan belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirish uchun Korporativ maslahatchiga taqdim etishi lozim.

126.Umumiy yig'ilishning bayonnomasida quyidagi ma'lumotlar ko'rsatilishi:

- Bank (Bank Boshqaruvi) to'liq nomi va joylashgan manzili;
- Umumiy yig'ilishni o'tkazish sanasi, vaqti va joyi;
- Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida taqdim etilgan Bankning ovoz beruvchi aksiyalarining soni to'g'risida ma'lumot (agar kun tartibining ayrim masalalari bo'yicha ovoz beruvchi aksiyalarning soni kun tartibining boshqa masalalari bo'yicha Bankning ovoz beruvchi aksiyalari sonidan farq qilsa, bunday soni sababi ko'rsatilgan holda ko'rsatilishi kerak);
- Umumiy yig'ilishning kvorumi (agar kun tartibining birov-bir masalalari bo'yicha Bankning ovoz beruvchi aksiyalarining ko'proq soni talab etilsa, kvorumning eng katta qiymatini hisobga olganda);
- Umumiy yig'ilishning kun tartibi;
- Umumiy yig'ilishda ovoz berish tartibi (shu jumladan kun tartibining ma'lum masalalari bo'yicha kumulyativ ovoz berishning xususiyatlarini, hamda tashkiliy xususiyatdagi qarorlarni qabul qilish yuzasidan xususiyatlarni hisobga olgan holda);
- Umumiy yig'ilishda raislik etuvchini, Umumiy yig'ilishning rayosati a'zolarini va Umumiy yig'ilishning kotibini ko'rsatish;
- Umumiy yig'ilishda ishtirok etgan shaxslarning ma'ruzalari matnini va so'zga chiqishlarini bayon etish;
- Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kun tartibining ovoz berishga qo'yilgan har bir masalasi bo'yicha ovozlarining umumiy soni;
- tashkiliy masalalar bo'yicha va Umumiy yig'ilish kun tartibining ovoz berishga qo'yilgan masalalari bo'yicha savollar, ular bo'yicha ovoz berish natijalari;
- Umumiy yig'ilish tomonidan qabul qilingan qarorlarning ifodalanishi;
- Bank Kengashini saylash (Kengashning yangi a'zosini saylash) holatida, saylangan Kengash a'zosining nomzodi kim tomonidan ko'rsatilganligini, va/yoki saylangan Kengash a'zosi qaysi aksiyadorning vakili ekanligini, saylangan Kengash a'zosi mustaqil direktor ekanligi yoki yo'qligini ko'rsatish.

127.Korporativ maslahatchi tomonidan Umumiy yig'ilish bayonnomasining belgilangan talablarga va Umumiy yig'ilishning haqiqiy holatlariga muvofiqligi aniqlanganda, Umumiy yig'ilishning kotibi ushbu bayonnomani ikki nusxada imzolaydi va ikkala nusxani imzolash uchun ushbu Umumiy yig'ilishda raislik etuvchi bo'lgan shaxsga yuboradi.

Umumiy yig'ilishda raislik etuvchi Umumiy yig'ilish bayonnomasining ikkala nusxasini imzolashi va Umumiy yig'ilish o'tkazilgan kundan boshlab 15 (o'n besh) kundan kechikmay Korporativ maslahatchiga imzolangan holatida qaytarishi kerak.

128.Umumiy yig'ilishning imzolangan bayonnomasi ovoz berish natijalari to'g'risida bayonnoma (-lar) (ovoz berish bayonnomasi), Umumiy yig'ilishda ishtirok etish va ovoz berish huquqiga ishonnomalar bilan birgalikda tikilgan bo'lishi kerak. Bunday tarzda tikilgan Umumiy yig'ilishning bayonnomasi muhrlanishi va Umumiy yig'ilishning kotibi va Korporativ maslahatchi tomonidan imzolanishi kerak.

129.Tegishli tarzda rasmiylashtirilgan va imzolangan Umumiy yig'ilish bayonnomasining ikkita nusxasini olganidan keyin Korporativ maslahatchi:

- Umumiy yig'ilish bayonnomasi tegishlixa tayyorlanganligi, rasmiylashtirilganligi va imzolanganligi to'g'risida zudlik bilan Bank Kengashiga yozma ravishda (xixmat xatini yuborish orqali) xabar berish;
- e'lon qilish hamda aksiyadorlarga va O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va ushbu Reglament talablariga muvofiq boshqa manfaatdor shaxslar e'tiboriga yetkazish uchun, Umumiy yig'ilish natijalari va qabul qilingan qarorlar to'g'risida hisobotni (xabarni) hisobot (xabar) tayyorlash (tayyorlanishini ta'minlash).

## **X. UMUMIY YIG'ILISHNING VAKOLATLARIDAGI MASALALAR BO'YICHA SIRTQI OVOZ BERISH ORQALI QARORLARNI QABUL QILISH XUSUSIYATLARI**

130.Bank Ustavida belgilangan, lekin Aksiyadorlik jamiyatlari to'g'risida Qonunga muvofiq Umumiy yig'ilishning mutlaq vakolatlariga kiritilmagan, Umumiy yig'ilish vakolatlaridagi masalalar bo'yicha Umumiy yig'ilishning qarorlari, Umumiy yig'ilishning majlisi o'tkazilmagan holda sirtqi ovoz berish orqali (so'rov yo'li bilan) qabul qilinishi mumkin.

131.Umumiy yig'ilishning (so'rov yo'li bilan) qaror(-lar)ini qabul qilish bo'yicha sirtqi ovoz berish Bank Kengashining tashabbusi bilan o'tkazilishi mumkin.

Bunda, Bank Kengashi Umumiy yig'ilishning (so'rov yo'li bilan) qaror(-lar)ini qabul qilish bo'yicha sirtqi ovoz berish tashabbusini faqat favqulodda holatlarda, Umumiy yig'ilishning vakolatlaridagi masalalar bo'yicha o'z vaqtida ishtirok etgan holda yoki aksiyadorlar masofadan ishtirok etgan holda qarorlarni qabul qilish mumkin bo'lmaganda, yoki o'ta murakkab bo'lganda (masalan, yengib bo'lmas kuchdagi holatlar tufayli) berishi mumkin.

Aralash umumiy yig'ilishni o'tkazish, ya'ni Umumiy yig'ilishning shaxsan ishtirokli yig'ilishini sirtidan ovoz berish (so'rov orqali) bilan birlashtirishga yo'l qo'yilmaydi.

132.Umumiy yig'ilishning (so'rov yo'li bilan) qaror(-lar)ini qabul qilish bo'yicha sirtqi ovoz berishni o'tkazish qarori Bank Kengashi tomonidan qabul qilinishi kerak.

133.Bank Kengashining Umumiy yig'ilishning (so'rov yo'li bilan) qaror(-lar)ini qabul qilish bo'yicha sirtqi ovoz berishni o'tkazish to'g'risidagi qarorida quyidagi ma'lumot bo'lishi kerak:

- ushbu Bank Kengashining qarori qabul qilingan sana;
- Umumiy yig'ilishning (so'rov yo'li bilan) qaror(-lar)ini qabul qilish bo'yicha sirtqi ovoz berishni o'tkazish to'g'risida e'lon qilish;
- Umumiy yig'ilishning qaror(-lar)ini qabul qilish bo'yicha sirtqi ovoz berish o'tkaziladigan masalalarning ifodalanishi;
- Umumiy yig'ilishning (so'rov yo'li bilan) qaror(-lar)ini qabul qilish bo'yicha sirtqi ovoz berishni o'tkazishning sabab(-lar)ini ko'rsatish, yoki Umumiy yig'ilishni shaxsan ishtirok etgan holda yoki aksiyadorlar bu qarorlarni qabul qilish uchun masofadan ishtirok etgan holda o'tkazish mumkin emasligini tushuntirish;
- aksiyadorlar tomonidan to'ldirilgan va imzolangan sirtqi ovoz berish byulletenlarini taqdim etishning yakuniy sanasi va vaqti;
- aksiyadorlarga va davlat vakiliga ushbu Reglamentga muvofiq Umumiy yig'ilishning (so'rov yo'li bilan) qaror(-lar)ini qabul qilish bo'yicha sirtqi ovoz berishni o'tkazish to'g'risida xabar berish tartibi;

- Umumiy yig'ilishni o'tkazishga tayyorgarlik paytida taqdim etiladigan axborot (materiallar) ro'yxati, shuningdek ushbu Reglamentning talablarini hisobga olgan holda, bunday axborotni olish va uni taqdim etish usullari;

- bunday sirtqi ovoz berish uchun chiqarilgan Umumiy yig'ilishning vakolatidagi masalalar bo'yicha Umumiy yig'ilishning (so'rov yo'li bilan) qaror(-lar)ini qabul qilish bo'yicha sirtqi ovoz berish byulletenini tasdiqlash;

- aksiyadorlarga va davlat vakiliga bunday sirtqi ovoz berish uchun chiqarilgan Umumiy yig'ilishning vakolatidagi masalalar bo'yicha Umumiy yig'ilishning (so'rov yo'li bilan) qaror(-lar)ini qabul qilish bo'yicha sirtqi ovoz berishni o'tkazish to'g'risida xabar berish matnini tasdiqlash.

134.Umumiy yig'ilishning (so'rov yo'li bilan) qaror(-lar)ini qabul qilish bo'yicha sirtqi ovoz berish byulletenida quyidagilar bo'lishi kerak:

- Bank (Bank Boshqaruvi) to'liq nomi va joylashgan manzili;
- Bank Kengashini Umumiy yig'ilishning qaror(-lar)ini qabul qilish bo'yicha sirtqi ovoz berish o'tkazilishining tashabbuskori sifatida ko'rsatish;
- ular bo'yicha Umumiy yig'ilishning qaror(-lar)ini qabul qilish bo'yicha sirtqi ovoz berish o'tkazilayotgan masalalarning ifodalanishi;
- aksiyadorlar tomonidan to'ldirilgan sirtqi ovoz berish byulletenlarini taqdim etishining usuli, hamda yakuniy sanasi va vaqti;

- sirtqi ovoz berish byulletenlaridan foydalanib sirtqi ovoz berish orqali qabul qilingan Umumiy yig'ilishning qarorini qabul qilish sanasi (Umumiy yig'ilishning qarorini rasmiylashtirish sanasi);

- Umumiy yig'ilishning qaror(-lar)ini qabul qilish bo'yicha sirtqi ovoz berishga qo'yilgan har bir masala bo'yicha ovoz berish variantlari, ular «rozi», «qarshi», «betaraf» so'zlari bilan ifodalanishi kerak;

- Umumiy yig'ilishning qaror(-lar)ini qabul qilish bo'yicha sirtqi ovoz berishga qo'yilgan har bir masala bo'yicha ovoz berish (byulletenni to'ldirish) tartibini tushuntirish;

- byulletenni aksiyador (uning vakili) imzolashi va ushbu imzoning tasdiqlanishi uchun bo'sh joy.

135. Umumiy yig'ilishning qaror(-lar)ini qabul qilish bo'yicha sirtqi ovoz berishni o'tkazish to'g'risidagi xabarda quyidagilar bo'lishi kerak:

- Bank (Bank Boshqaruvi) to'liq nomi va joylashgan manzili;

- Umumiy yig'ilishning (so'rov yo'li bilan) qaror(-lar)ini qabul qilish bo'yicha sirtqi ovoz berish o'tkazilishi to'g'risida e'lon;

- Umumiy yig'ilishning qaror(-lar)ini qabul qilish bo'yicha sirtqi ovoz berish o'tkaziladigan masalalarning ifodalanishi;

- Bank Kengashini Umumiy yig'ilishning qaror(-lar)ini qabul qilish bo'yicha sirtqi ovoz berish o'tkazilishining tashabbuskori sifatida ko'rsatish;

- Umumiy yig'ilishning (so'rov yo'li bilan) qaror(-lar)ini qabul qilish bo'yicha sirtqi ovoz berishni o'tkazishning sabab(-lar)ini ko'rsatish, yoki Umumiy yig'ilishni shaxsan ishtirok etgan holda yoki aksiyadorlar bu qarorlarni qabul qilish uchun masofadan ishtirok etgan holda o'tkazish mumkin emasligini tushuntirish;

- sirtqi ovoz berishda ushbu xabarni e'lon qilish sanasiga kelib Bankning ovoz beruvchi aksiyalariga egalik qilgan uning aksiyadorlari ishtirok etish huquqiga ega ekanligini ko'rsatish;

- sirtqi ovoz berishga qo'yilgan masalalarning har biri bo'yicha Bankning qaysi aksiyalari ovoz beruvchi ekanligini ko'rsatish;

- aksiyadorlar tomonidan to'ldirilgan va imzolangan sirtqi ovoz berish byulletenlarini taqdim etishning usulini, hamda yakuniy sanasi va vaqtini ko'rsatish;

- Umumiy yig'ilishni o'tkazishga tayyorgarlik paytida aksiyadorlarga va davlat vakiliga taqdim etiladigan axborot (materiallar) ro'yxati, hamda bunday axborotni olish va uni taqdim etish usullari, shu jumladan, ushbu Reglamentning talablarini hisobga olgan holda Bankning korporativ internet-resursida (rasmiy saytida) joylashtirilgan materiallarga kirish internet-havolasini ko'rsatish;

- ushbu Reglamentga muvofiq Umumiy yig'ilishning (so'rov yo'li bilan) qaror(-lar)ini qabul qilish bo'yicha sirtqi ovoz berish byulleteni.

136. Umumiy yig'ilishning (so'rov yo'li bilan) qaror(-lar)ini qabul qilish bo'yicha sirtqi ovoz berish o'tkazilishi to'g'risida xabar Bank Kengashining uni o'tkazish to'g'risidagi qarori qabul qilinganidan keyin 3 (uch) ish kuni ichida e'lon qilinishi kerak. Bunday xabar ushbu Reglamentga muvofiq e'lon qilinishi lozim.

137. Ushbu Reglamentga muvofiq e'lon qilinishiga qo'shimcha, sirtqi ovoz berishni o'tkazish to'g'risidagi xabar Bankning har bir aksiyadoriga yuborilishi kerak. Bunday xabar, sirtqi ovoz berish byulleten(-lar)i bilan birgalikda, ushbu sirtqi ovoz berishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan Bankning har bir aksiyadoriga yuborilishi kerak.

Bunda, ushbu Reglamentda ko'zda tutilgan aksiyadorlarga xabar berishning bir yoki bir vaqtning o'zida ikkita usuli qo'llanishidan qat'i nazar, sirtqi ovoz berishni o'tkazish to'g'risidagi xabarni sirtqi ovoz berish byulletenlari bilan birgalikda yuborish, xabarni e'lon qilish sanasidan boshlab ko'pi bilan 3 (uch) ish kuni ichida amalga oshirilishi kerak.

138. Sirtqi ovoz berishga qo'yiladigan masalalar bo'yicha materiallar Bankning korporativ internet-resursida (rasmiy saytida) joylashtirilishi kerak, shuningdek, Korporativ maslahatchi yoki Korporativ boshqaruv xizmati tomonidan sirtqi ovoz berish byulletenlarini taqdim etishning belgilangan vaqti yetib kelguncha istalgan vaqtda, Korporativ boshqaruv xizmatining ofisida, Bank

Kengashining sirtqi ovoz berishni o'tkazish to'g'risidagi qarorida ko'rsatilgan manzilida taqdim etilishi mumkin.

Aksiyadorlarga va boshqa manfaatdor shaxslarga bo'lajak sirtqi ovoz berish masalalari bo'yicha materiallarni (axborotni) taqdim etishda, Bankning tijorat sirini va boshqa qonunchilikka, hamda Bankning ichki siyosatlariga va boshqa ichki hujjatlariga muvofiq muhofaza qilinadigan sirni himoya qilishga oid talablarga rioya etish lozim.

139. Umumiy yig'ilishning vakolatidagi masalalar bo'yicha qarorni qabul qilish bo'yicha sirtqi ovoz berishda, ushbu sirtqi ovoz berishni o'tkazish to'g'risidagi xabar e'lon qilingan sanaga kelib, sirtqi ovoz berishga qo'yilgan qarorlarni qabul qilish uchun Bankning ovoz beruvchi aksiyalari hisoblangan aksiyalarga egalik qilgan barcha Bank aksiyadorlari ishtirok etishga haqli bo'ladi.

140. To'ldirilgan sirtqi ovoz berish byulletenlari Kengashning qarori bilan belgilangan sanada byulletenlarni taqdim etishning belgilangan vaqti tugashidan avval Bankka taqdim etilishi kerak. Bunda, shunday byulletenlar Kengashning qarorida belgilangan usul bilan taqdim etilishi lozim.

Sirtqi ovoz berish byulletenlarini taqdim etishning yakuniy sanasi sifatida Bank Kengashi tomonidan e'lon qilingan sanasidan boshlab 30 (o'ttiz) kundan 45 (qirq besh) kungacha bo'lgan vaqt oralig'idagi istalgan kun belgilanishi kerak.

141. Sirtqi ovoz berish byulletenlari asl nusxasida taqdim etilishi, shaxsan aksiyador tomonidan yoki yuridik shaxs bo'lgan aksiyadorning vakili tomonidan imzolanishi kerak. Jismoniy shaxs bo'lgan aksiyadorning imzosi, notarius tomonidan yoki notarial tasdiqlashga tenglashtirilgan usul bilan tasdiqlanishi kerak. Byulletenni yuridik shaxs tomonidan imzolash, ushbu yuridik shaxsning korporativ muhri bilan, u bo'lmaganda esa – aksiyadorning nomidan vakolatlangan shaxs imzosining haqiqiylikini tasdiqlashning boshqa usullari bilan tasdiqlanishi kerak.

142. Byulletenlarni yakuniy taqdim etishning belgilangan sanasidan va vaqtdan keyin taqdim etilgan (belgilangan usul bilan bo'lsa ham) sirtqi ovoz berish byulletenlari ovozlarni hisoblashda hisobga olinmaydi.

143. Ushbu Reglamentning 150-bandi talablari buzilgan holda taqdim etilgan byulletenlar, hamda ushbu Reglamentning 119-bandiga ko'ra buzilgan deb tan olingan byulletenlar, ovozlarni hisoblashda hisobga olinmaydi.

144. Umumiy yig'ilishning vakolatiga kiritilgan masala bo'yicha qaror, agar ushbu qarorni qabul qilish uchun ovoz berishda ishtirok etgan Bank aksiyadorlarining umumiy sonidan talab etilgan (oddiy yoki malakali) ko'pchiligi ovoz bergan holda, aksiyadorlar tomonidan qabul qilingan deb hisoblanadi.

145. Taqdim etilgan sirtqi ovoz berish byulletenlari bo'yicha ovozlarni hisoblash va sirtqi ovoz berish bayonnomasini rasmiylashtirish, ushbu sirtqi ovoz berishdan avvalgi yillik Umumiy yig'ilish tomonidan shakllantirilgan sanoq komissiyasining amaldagi tarkibi tomonidan amalga oshiriladi.

146. Taqdim etilgan sirtqi ovoz berish byulletenlari bo'yicha ovozlarni hisoblash va sirtqi ovoz berish bayonnomasini rasmiylashtirish sanoq komissiyasi tomonidan Bank Kengashining qarori bilan belgilangan aksiyadorlar tomonidan to'ldirilgan va imzolangan byulletenlarni taqdim etishning yakuniy sanasidan keyin 3 (uch) kun ichida yakunlanishi kerak.

147. Barcha taqdim etilgan ovoz berish byulletenlari ovozlarni hisoblashdan keyin muhrlangan hamda sanoq komissiyasining raisi va barcha a'zolari tomonidan imzolangan xatjildga solinishi lozim.

148. Sirtqi ovoz berish natijalari haqida bayonnomada quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

- kun tartibi masalasining raqami va ifodalanishi,

- ushbu masala bo'yicha berilgan ovoz berish byulletenlarining umumiy soni,

- sirtqi ovoz berish jarayonida taqdim etilgan to'ldirilgan byulletenlar soni,

- sanoq komissiyasi tomonidan buzilgan deb tan olingan yoki ushbu Reglamentning 152-bandida ko'zda tutilgan boshqa asoslarga ko'ra ovozlarni hisoblashda hisobga olinmagan byulletenlar soni,



- ushbu qarorni qabul qilish uchun berilgan ovozlar soni,
- ushbu qarorni qabul qilishga qarshi berilgan ovozlar soni,
- ushbu qarorni qabul qilishda betaraf deb berilgan ovozlar soni,
- kun tartibining ushbu masalasi bo'yicha qabul qilingan Umumiy yig'ilish qarorining ifodalanishi (ushbu masala bo'yicha sirtqi ovoz berish byulletenlarida ifodlangani kabi).

149.Sanoq komissiyasi tomonidan rasmiylashtirilgan sirtqi ovoz berish natijalari to'g'risida bayonnoma Korporativ maslahatchiga berilishi kerak, u bayonnomaning belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirishi lozim. Bayonnomaning belgilangan talablarga muvofiq emasligi aniqlangan holda, Korporativ maslahatchining e'tirozlari sanoq komissiyasi tomonidan zudlik bilan bartaraf etilishi lozim.

Sirtqi ovoz berish bayonnomasi belgilangan talablarga muvofiqligi aniqlanganidan keyin Korporativ maslahatchi bayonnomani (zarur bo'lganda) davlat vakiliga yuborishi kerak.

150.Agar unga sirtqi ovoz berish bayonnomasi taqdim etilgan payidan boshlab 3 (uch) kun ichida davlat vakili qabul qilingan qarorlarga veto qo'ymagan bo'lsa, bunday qarorlar qabul qilingan deb hisoblanadi. Davlat vakili qabul qilingan qarorlarga veto qo'ygani to'g'risida Bank Kengashiga va Korporativ maslahatchiga yozma xabar berishi lozim.

151.Umumiy yig'ilishning vakolatidagi masalalar bo'yicha qarorni qabul qilish bo'yicha sirtqi ovoz berishni o'tkazishda, Korporativ maslahatchi quyidagilarni bajarishi kerak:

(i) Bank Kengashining sirtqi ovoz berishni o'tkazish to'g'risidagi qarori qabul qilinishidan avval:

- Bank Kengashiga sirtqi ovoz berish orqali (so'rov yo'li bilan) qarorlarni qabul qilish uchun tegishli masalalarni kiritish mumkinligini yozma tarzda tasdiqlash;
- sirtqi ovoz berish byulleteni shaklini tayyorlash;
- Bank aksiyadorlariga sirtqi ovoz berishni o'tkazish to'g'risidagi xabarni tayyorlash;
- Bankning mas'ul bo'linmalari va xodimlari bilan o'zaro hamkorlikda sirtqi ovoz berishga qo'yilgan masalalar bo'yicha materiallarni tayyorlashni ta'minlash;

(ii) Bank Kengashining sirtqi ovoz berishni o'tkazish to'g'risidagi qarori qabul qilinganidan keyin:

- Bankning mas'ul bo'linmalari va xodimlari bilan o'zaro hamkorlikda sirtqi ovoz berishni o'tkazish to'g'risidagi xabarni e'lon qilishni ta'minlash;
- Bank aksiyadorlariga sirtqi ovoz berishni o'tkazish to'g'risidagi xabarni yuborishni ta'minlash;
- Bankning mas'ul bo'linmalari va xodimlari bilan o'zaro hamkorlikda sirtqi ovoz berishga qo'yilgan masalalar bo'yicha materiallarni joylashtirish, hamda aksiyadorlarning ulardan foydalanishini ta'minlash;

(iii) sanoq komissiyasi bayonnomasi rasmiylashtirilganidan keyin:

- sirtqi ovoz berish bayonnomasining belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirish;
- sirtqi ovoz berish bayonnomasini davlat vakiliga uning qabul qilingan qarorlarga veto qo'yishi masalasini hal qilish uchun yuborish (zarur bo'lganda);
- Umumiy yig'ilishning vakolatidagi masalalar bo'yicha qarorni qabul qilish bo'yicha o'tkazilgan sirtqi ovoz berishning natijalari to'g'risidagi Bank Kengashining qarorini tayyorlash;
- o'tkazilgan sirtqi ovoz berishning natijalari to'g'risidagi Bank Kengashining qarori asosida, Umumiy yig'ilishning vakolatidagi masalalar bo'yicha qarorni qabul qilish bo'yicha o'tkazilgan sirtqi ovoz berishning natijalari to'g'risidagi Bank xabarini tayyorlash, Bankning mas'ul bo'linmalari va xodimlari bilan o'zaro hamkorlikda ushbu Reglamentning talablariga muvofiq sirtqi ovoz berish o'tkazilganligi to'g'risidagi xabarni e'lon qilishni ta'minlash.

152.Ushbu Reglamentda ko'zda tutilgan vazifalarni bajarayotgan Bankning mas'ul bo'linmalari va xodimlariga qaratilgan Korporativ maslahatchining taqdimnomasi va uning yo'riqnomalari, tegishli Bankning mas'ul bo'linmalari, mansabdor shaxslari va boshqa xodimlari tomonidan bajarilishi uchun majburiydir.

153.Umumiy yig'ilishning vakolatidagi masalalar bo'yicha qarorni qabul qilish bo'yicha o'tkazilgan sirtqi ovoz berishning natijalari to'g'risidagi Bank Kengashining qarori, sanoq komissiyasining sirtqi ovoz berish natijalari haqidagi bayonnoma rasmiylashtirilgan kundan boshlab 10 (o'n) kun ichida qabul qilinishi va Korporativ maslahatchiga topshirilishi lozim.

154.Bankning Umumiy yig'ilishning vakolatidagi masalalar bo'yicha qarorni qabul qilish bo'yicha o'tkazilgan sirtqi ovoz berishning natijalari to'g'risidagi xabari, ushbu Reglamentning talablariga muvofiq e'lon qilinishi lozim.

## **XI. UMUMIY YIG'ILISHDA MASOFADAN ISHTIROK ETISH SHARTLARI VA XUSUSIYATLARI\***

155.Umumiy yig'ilishda masofadan ishtirok etish, Umumiy yig'ilishni o'tkazish joyida jismonan bo'lmagan holda, elektron / raqamli kommunikatsiya vositalaridan foydalanib, Umumiy yig'ilish kun tartibining masalalarini muhokama qilishda va ular bo'yicha qarorlarni qabul qilishda real vaqt rejimida ishtirok etishni bildiradi.

156.Umumiy yig'ilishni unda masofadan ishtirok etish imkoniyati bilan o'tkazish holatida, ushbu Reglamentda ko'zda tutilgan Umumiy yig'ilishni chaqirish va o'tkazish, Umumiy yig'ilish ishtirokchilarini ro'yxatdan o'tkazish bayonnomasini, ovoz berish natijalari to'g'risida bayonnoma(-lar)ni (ovoz berish bayonnomalari) va Umumiy yig'ilish bayonnomasini rasmiylashtirish, hamda Umumiy yig'ilishni o'tkazish natijalari to'g'risida axborotni e'lon qilish qoidalarini ushbu XI Bo'limida ko'zda tutilgan xususiyatlarni hisobga olgan holda, Bankning Umumiy yig'ilishni o'tkazish maqsadlari uchun bunday platformadan foydalanishga oid ichki qoidalariga muvofiq holda Umumiy yig'ilishni o'tkazishning elektron platformasidan foydalanish sharti bilan qo'llanadi.

157.Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida masofadan ishtirok etishga, faqat Bank tomonidan foydalaniladigan Umumiy yig'ilishni o'tkazishning elektron platformasi, shu jumladan tegishli axborot texnologiyalari, jihoz-uskunalar, kommunikatsiya tarmoqlari va dasturiy ta'minot, quyidagilarga imkon berishi sharti bilan, yo'l qo'yiladi: (i) aksiyador yoki uning vakilining shaxsini haqqoniy identifikatsiya qilish; (ii) aksiyadornig vakiliga Umumiy yig'ilishda ishtirok etish uchun berilgan vakolatlarining asosini, mazmunini va hajmini haqqoniy belgilash; (iii) elektron formatidagi ovoz berish byulletenlarini imzolashning texnikaviy imkoniyati hisobiga, Umumiy yig'ilishning qarorlarini qabul qilishda ovoz berishda ishtirok etuvchi har bir aksiyadornig iroda-fikrini haqqoniy aniqlash va ishonchli qayd etish (*ovoz berish byulletenlaridan real vaqt rejimida foydalanish imkoni bo'lmaganda*); (iv) har bir aksiyador real vaqt rejimida Umumiy yig'ilish kun tartibining masalalari bo'yicha ma'ruzalarni va boshqa so'zga chiqishlarni tinglashi, hamda o'zi so'zga chiqishi, ularning muhokamasida ishtirok etishi va ular bo'yicha taklif kiritishi; (v) Umumiy yig'ilishda faqat unda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan va unda ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tkazilgan shaxslarning ishtirokini ta'minlash.

158.Umumiy yig'ilishda aksiyadorlar va ularning vakillari, agar Bank Kengashining Umumiy yig'ilishni chaqirish va o'tkazish to'g'risidagi qarorida Umumiy yig'ilishda bunday masofadan ishtirok etish ko'zda tutilgan bo'lsa, masofadan ishtirok etishga yo'l qo'yiladi.

Bu holda ushbu Reglament bilan belgilangan Umumiy yig'ilishda ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tkazish va qog'oz tashuvchidagi byulletenlardan foydalanib ovoz berish qoidalarini qo'llanmaydi, lekin bunday Umumiy yig'ilishda ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tkazish va Umumiy yig'ilishning qarorlarini qabul qilishda ovoz berish Umumiy yig'ilishni o'tkazish maqsadlari uchun bunday platformadan foydalanish qoidalariga muvofiq, Umumiy yig'ilishni o'tkazishning elektron platformasidan foydalanib, amalga oshiriladi.

159.Umumiy yig'ilishda masofadan ishtirok etish Bankning barcha aksiyadorlari (ularning vakillari) uchun ko'zda tutilishi mumkin. Bu holda Umumiy yig'ilishda masofadan ishtirok etish barcha aksiyadorlar va ularning vakillari uchun majburiy bo'ladi.



160.Umumiy yig'ilishda masofadan ishtirok etish shuningdek Umumiy yig'ilishda ishtirok etishning jismoniy ishtirok etishga qo'shimcha usuli sifatida belgilanishi mumkin. Bu holda Bankning barcha aksiyadorlariga Umumiy yig'ilishda ishtirok etish usulini tanlash huquqi beriladi.

161.Bank Kengashi unda aksiyadorlar va ularning vakillari majburiy yoki ehtimoliy masofadan ishtirok etgan holda, Umumiy o'tkazish to'g'risida qarorni qabul qilgan holda, Umumiy yig'ilishni tegishli o'tkazishni, barcha Bank aksiyadorlari uchun unda masofadan ishtirok etishi imkoniyatini, shu jumladan Umumiy yig'ilish kun tartibining masalalari bo'yicha aksiyadorlarning ularga tegishli bo'lgan ovoz beruvchi aksiyalar bo'yicha samarali ovoz berishi imkoniyatini ta'minlash –Bankning majburiyati hisoblanadi.

## **XII. QABUL QILINGAN QARORLAR TO'G'RISIDA AXBOROTNI E'OLON QILISH VA UNI AKSIYADORLARNING E'TIBORIGA YETKAZISH. UMUMIY YIG'ILISHNING HUJJATLARINI SAQLASH UCHUN TOPSHIRISH**

162.Korporativ maslahatchi quyidagilarni olganidan keyin, Umumiy yig'ilishni, sirtqi ovoz berishni o'tkazish to'g'risida, Umumiy yig'ilishning vakolatidagi masalalar bo'yicha qabul qilingan qarorlar to'g'risida xabarni (hisobotni) tayyorlashi kerak:

- Umumiy yig'ilish kvorum bo'lmaganligi sababli bo'lib o'tmaganligi to'g'risida bayonnoma – olgan paytidan boshlab 3 (uch) kun ichida;
- ushbu Reglamentga muvofiq Umumiy yig'ilishning bayonnomasi (Umumiy yig'ilish o'tkazilganda, shu jumladan unda masofadan ishtirok etgan holda) – olgan paytidan boshlab 5 (besh) kun ichida;
- Bank Kengashining Umumiy yig'ilishning vakolatiga kiritilgan masalalar bo'yicha qarorlarni qabul qilish bo'yicha o'tkazilgan sirtqi ovoz berishning natijalari to'g'risidagi qaror – olgan paytidan boshlab 5 (besh) kun ichida.

163.Bankning bo'lib o'tmagan Umumiy yig'ilish to'g'risida xabari, hamda Umumiy yig'ilishni, sirtqi ovoz berishni o'tkazish to'g'risida, Umumiy yig'ilishning vakolatidagi masalalar bo'yicha qabul qilingan qarorlar to'g'risida hisoboti, ushbu Reglamentda ko'zda tutilgani kabi tartibda e'lon qilinishi kerak.

164.Umumiy yig'ilish, Umumiy yig'ilishning vakolatidagi masalalar bo'yicha qarorlarni qabul qilish bo'yicha sirtqi ovoz berish yakunlanganda, ushbu Reglamentning talablariga muvofiq rasmiylashtirilgan quyidagi Umumiy yig'ilishning hujjatlari Bank arxiviga (Korporativ maslahatchining arxiviga) topshirilishi kerak:

- Umumiy yig'ilishning bayonnomalari, sirtqi ovoz berish natijalari to'g'risida bayonnomalar,
- Umumiy yig'ilish kun tartibining masalalari bo'yicha ovoz berish natijalari to'g'risida bayonnomalar (ovoz berish bayonnomalari),
- ovoz berish byulletenlari (shu jumladan, haqiqiy emas deb topilgan byulletenlar, va berilmay qolib ketgan, o'chirilgan byulletenlar),
- Umumiy yig'ilish kun tartibining masalalari bo'yicha materiallar,
- Umumiy yig'ilishni o'tkazish uchun taqdim etiladigan aksiyadorlarning reestrlari (aksiyadorlarning ro'yxatlari), va Umumiy yig'ilish ishtirokchilarini ro'yxatdan o'tkazish, sirtqi ovoz berish uchun, hamda taklif etilgan shaxslarni ro'yxatdan o'tkazish jumallari,
- bayonnomalar Umumiy yig'ilish ishtirokchilarini ro'yxatdan o'tkazish, Umumiy yig'ilish davomida audioyozuvni va videos'emkani olib borishga roziliklar,
- ushbu Reglamentda Bank arxiviga (Korporativ maslahatchining arxiviga) topshirish uchun ko'zda tutilgan Umumiy yig'ilishning boshqa hujjatlar.

165.Korporativ maslahatchi Umumiy yig'ilishning barcha hujjatlarini Bank arxiviga (Korporativ maslahatchining arxiviga) topshirish uchun tegishli rasmiylashtirishni ta'minlashi lozim.

166.Ushbu Reglamentning 164-bandida ko'rsatilgan Umumiy yig'ilishning hujjatlari, Bank arxivini (Korporativ maslahatchining arxivini) yuritish va saqlash to'g'risidagi Bankning ichki qoidalariga muvofiq Bank faoliyatining butun muddati davomida Bank arxivida (Korporativ maslahatchining arxivida) saqlanishi lozim.

167.Aksiyadorning yozma talabiga ko'ra Korporativ maslahatchi unga Umumiy yig'ilish bayonnomasining nusxasini, sirtqi ovoz berish natijalari to'g'risida bayonnomani bunday talabnoma kelib tushgan kundan boshlab ko'pi bilan o'n kalendar kuni ichida taqdim etishi lozim.

168.Umumiy yig'ilish bayonnomasining nusxasini, sirtqi ovoz berish natijalari to'g'risida bayonnomani olganda, aksiyador unga taqdim etilgan Umumiy yig'ilish bayonnomasining nusxasida, sirtqi ovoz berish natijalari to'g'risida bayonnomada bo'lishi mumkin bo'lgan xizmat, tijorat siri yoki boshqa qonunga muvofiq qo'riqlanadigan siring rejimiga rioya qilish to'g'risidagi majburiyatni imzolashi lozim.

169.Bankning ichki hujjatlarida aksiyadorga Umumiy yig'ilish bayonnomasining nusxasini, sirtqi ovoz berish natijalari to'g'risida bayonnomani taqdim etish uchun to'lov undirish ko'da tutilgan bo'lishi mumkin. Bu hujjatlar nusxalarini taqdim etish uchun to'lov miqdori Bank tomonidan bir tomonlama tartibda belgilanadi, lekin hujjatlar nusxalarini tayyorlash xarajatlari va aksiyadorga hujjatlarni yetkazib berish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar qiymatidan ortiq bo'lishi mumkin emas.

## **XIII. YAKUNIY HOLATLAR**

170.Ushbu Reglament Bank aksiyadorlarining Umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan Bankning ichki hujjatidir.

171.Ushbu hujjatda bayon etilgan barcha axborot maxfiy hisoblanadi, va «O'zsanoatqurilishbank» ATB ning mulki hisoblanadi. «O'zsanoatqurilishbank» ATB ning xodimlari tomonidan ushbu hujjatni, hamda uning ilovalarini to'liq yoki qisman uchinchi tomonga oshkor etish, faqat Korporativ maslahatchining ruxsati mavjud bo'lgandagina mumkin bo'ladi.

**Kiritilgan:**

**«O'zsanoatqurilishbank» ATB  
Kengashi huzuridagi  
Korporativ maslahatchi**



**K.F.Alimov**

**“O‘ZBEKISTON SANOAT - QURILISH BANKI”  
AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI**



**Kun tartibidagi 10 masala**

**“O‘zsanoatqurilishbank” ATB Kengashi to‘g‘risidagi Nizom” (yangi tahriri)ni  
tasdiqlash to‘g‘risida.**



«O'ZBEKISTON SANOAT-QURILISH BANKI»

AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI

**«MA'QULLANGAN»**  
**«O'zsanoatqurilishbank» ATB**  
**Kengashi yig'ilishining bayonnomasi**  
**bilan**  
**№ \_\_\_\_ -son, 2025 yil « \_\_\_\_ » may**

**«TASDIQLANGAN»**  
**«O'zsanoatqurilishbank» ATB**  
**Aksiyadorlarining umumiy**  
**yig'ilishi tomonidan**  
**№ \_\_\_\_ -son, 2025 yil « \_\_\_\_ » iyun**

«O'ZSANOATQURILISHBANK» ATB KENGASHI TO'G'RISIDA

**NIZOM**

(yangi tahrirda)

Toshkent - 2025 yil

**I. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga, «O'zsanoatqurilishbank» ATB (keyingi o'rinlarda - «Bank») Ustavi, Bankning boshqa ichki hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, Bank Kengashining (keyingi o'rinlarda - «Kengash») faoliyatini tashkil etishning asosiy tamoyillarini, shu jumladan Bank Kengashi va Boshqaruvi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni belgilab beradi.

Bank Kengashi Bank faoliyatiga umumiy rahbarlik qilishni amalga oshiruvchi, boshqarish qarorlarini qabul qilish jarayonida nazorat va kuzatuv vazifalarini bajaruvchi organ bo'lib, Bankning umuman faoliyati va moliyaviy barqarorligi uchun mas'ul bo'ladi. Kengash, O'zbekiston Respublikasining «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida» Qonuni (keyingi o'rinlarda – Qonun) va Bank Ustavi bilan Bank Aksiyadorlari Umumiy yig'ilishining mutlaq vakolatlariga kiritilgan masalalarni hal etishdan tashqari, Bank faoliyatining masalalari bo'yicha har qanday qarorlarni qabul qilishga vakolatli bo'ladi.

Kengash Bank ijroiya organining (Boshqaruvining) samarali faoliyatini ta'minlaydi va uni nazorat qiladi. Kengashning mutlaq vakolatlari Bank Ustavida va ushbu Nizomda belgilanadi.

2. Kengash o'z faoliyatini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga, shu jumladan vakolatli organning me'yoriy-huquqiy hujjatlariga va Bank Ustaviga, hamda ichki qoidalariga va ushbu Nizomga tayanadi.

3. Ushbu Nizom Kengashning vakolatlarini, tarkibini, Kengash a'zolariga qo'yiladigan talablarni, ularning huquqlari va majburiyatlarini, Kengash Raisining vakolatlarini, hamda Kengash faoliyatining tashkil etilishini belgilab beradi.

**II. Bank Kengashining vakolatlari**

4. Kengashning mutlaq vakolatlariga quyidagi masalalar kiradi:

5. Bank faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash.

6. Bank Aksiyadorlarining yillik va navbatdan tashqari Umumiy yig'ilishlarini chaqirish, O'zbekiston Respublikasining «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida» Qonunining (keyingi o'rinlarda – Qonun) 65-moddasi, o'n birinchi qismida ko'zda tutilgan holatlardan tashqari.

7. Aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining kun tartibini tayyorlash.

8. Aksiyadorlar Umumiy yig'ilishini o'tkazish sanasini, vaqtini va joyini belgilash.

9. Aksiyadorlar Umumiy yig'ilishini o'tkazish haqida xabar berish uchun jamiyat aksiyadorlari reyestrini shakllantirish sanasini belgilash.

10. Aksiyadorlar Umumiy yig'ilishiga hal qilish uchun Qonunning 59-moddasi, birinchi qismining ikkinchi, o'n ikkinchi xat boshida ko'zda tutilgan masalalarni kiritish.



11. Bank e'lon qilingan aksiyalarning miqdori va turlari doirasida qo'shimcha aksiyalarni joylashtirishi yo'li bilan Bankning ustav fondini ko'paytirish.

12. Emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni joylashtirish to'g'risida qarorlarni qabul qilish.

13. Mulkning bozor qiymatini belgilashni tashkil etish.

14. Bankning yillik biznes-rejasini ma'qullash va tasdiqlash (keyingi yil uchun biznes-reja Kengashning majlisida joriy yilning 1 dekabridan kechikmay ma'qullanishi kerak).

15. Bank Kengashi huzuridagi Korporativ maslahatchini tayinlash, uning vakolatlarini tugatish, Korporativ maslahatchining bo'ysunuvidagi Bank Kengashi huzuridagi korporativ boshqarish xizmatini tuzish, uning miqdoriy tarkibini belgilash, hamda Korporativ maslahatchi va Bank Kengashi huzuridagi korporativ boshqarish xizmati to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash, xizmat xodimlarining ish haqi va mukofotlarining miqdorini va shartlarini belgilash hamda xizmatning, shu jumladan korporativ maslahatchining yillik xarajatlar smetasini tasdiqlash.

16. Bank Kengashi huzuridagi ichki audit bo'limini tuzish, uning miqdoriy tarkibini belgilash, uning rahbarini va xodimlarini tayinlash, vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish, hamda har yil choragida hisobotlarni tinglash, uning ish tartibini belgilash, shu jumladan Bankning ichki audit xizmati Nizomini tasdiqlash, xodimlarining ish haqi va mukofotlarining miqdorini va shartlarini belgilash, yillik xarajatlar smetasini tasdiqlash, ichki auditning etika kodeksini, ichki auditning yillik ish rejasini tasdiqlash, ichki auditning texnologik rivojlanishi ustidan nazoratni tashkil etish, hamda Bankning sho'ba tashkilotlarida ichki auditning tartibini, standartlarini va tamoyillarini joriy etishni ta'minlash.

17. Bank Kengashi huzuridagi ichki korrupsiyaga qarshi nazorat bo'limini tuzish, uning miqdoriy tarkibini belgilash, uning rahbarini tayinlash, vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish, hamda yil davomida kamida ikki marta muntazam hisobotlarni tinglash, uning ish tartibini belgilash, shu jumladan Bank Kengashi huzuridagi ichki korrupsiyaga qarshi nazorat bo'limi Nizomini tasdiqlash, xodimlarining ish haqi va mukofotlarining miqdorini va shartlarini belgilash, yillik xarajatlar smetasini tasdiqlash, ichki korrupsiyaga qarshi nazorat bo'limining yillik ish rejasini tasdiqlash.

18. Kengashga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun, Bankning ijroiya organi faoliyatiga tegishli bo'lgan har qanday hujjatlardan foydalanish va ularni ijroiya organidan olish.

19. Ijroiya organiga to'lanadigan mukofotlar va kompensatsiyalar miqdorini belgilash.

20. Bank Boshqaruvi Raisi va a'zolarining lavozim ish haqining hamda ularni mukofotlashning miqdorini va shartlarini belgilash.

21. Boshqaruv a'zolarining ish unumdorligi ko'rsatkichlarini (KPI), shu jumladan ESG (environmental, social, governance – ekologik-iqlimiy, ijtimoiy va korporativ boshqaruv) xalqaro tamoyillariga muvofiq holda belgilash, va ularning asosida to'lanadigan mukofotlarni, hamda Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan

tasdiqlangan maksimal miqdorlardan oshmaydigan doirada, ijtimoiy to'lovlarni va boshqa turdagi to'lovlarni belgilash.

22. Tashqi auditorlik tashkiloti xizmatlari haqining eng yuqori miqdorini belgilash.

23. Aksiyalar bo'yicha dividendlar miqdori va uni to'lash tartibi bo'yicha tavsiyalarni berish.

24. Bankning zaxira fondidan va boshqa fondlaridan foydalanish;

25. Bankning boshqaruv organlari faoliyatining tartibini belgilab beruvchi hujjatlarni tasdiqlash;

26. Bankning filiallari va vakolatxonalarini tuzish va yopish to'g'risida qarorlarni qabul qilish va ular haqidagi nizomlarni tasdiqlash.

27. Bankning sho'ba va tobe korxonalarini tuzish.

28. «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida» Qonunining 8 va 9-boblarida ko'zda tutilgan holatlarda bitimlarni tuzish to'g'risida qarorlarni qabul qilish.

29. Bankning boshqa xo'jalik jamiyatlarida ishtirok etishi bilan bog'liq bo'lgan bitimlarni tuzish.

30. Bankning strategik maqsadlarini va boshqa ichki siyosatlarini, shu jumladan risklarni aniqlash, boshqarish, monitoring qilish va ular haqida xabar berish, Bank kapitalining adekvatligini saqlash bo'yicha siyosatlarni tasdiqlash va amalga oshirilishini nazorat qilish.

31. Aktivlarni tasniflash asosida yaratiladigan aktivlar bo'yicha ehtimoliy zararlarga qarshi zaxiralarni shakllantirish ustidan nazorat qilish, shuningdek, Bankning kapital va umumiy zaxiralarni yetarli darajada saqlab turishni ta'minlash.

32. Manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va tartibga solish tartibini tasdiqlash.

33. Bankning moliyaviy holatini tiklash rejalarini tasdiqlash;

34. Bank Boshqaruvi ustidan nazorat qilish.

35. Bankning qabul qilingan biznes-rejasining bajarilishi ustidan nazorat qilish, hamda har yil choragida Bank Boshqaruvining Bank faoliyatining yakunlari to'g'risidagi hisobotini tinglash.

36. Bankning ichki audit xizmatining choraklik hisobotlari asosida Bank Boshqaruvi Bankning strategiyalariga va siyosatlariga rioya qilishini baholashni o'tkazish.

37. Bank Boshqaruvi a'zolari tomonidan berilgan axborot, takliflar va tushuntirishlarni o'rganish, muhokama qilish, qarshi dalil keltirish.

38. Bank faoliyatini boshqarish tizimining samaradorligini, shu jumladan, uni boshqarish tamoyillarini monitoring qilish va uni davriy baholashni amalga oshirish hamda aniqlangan nuqsonlarni bartaraf etish uchun tegishli choralarni ko'rish.

39. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga kamida yilda bir marta amalga oshirilayotgan nazorat va kuzatuv faoliyati to'g'risida hisobotni taqdim etish.

40. Yillik moliyaviy hisobotlarni tasdiqlash va buxgalterlik hisobi va moliyaviy hisobot tizimlarining yaxlitligini ta'minlash.

41. Bankning uzoq muddatli moliyaviy manfaatlarini va O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki tomonidan belgilangan kapital yuzasidan talablarni hisobga olgan holda, prudensial talablarga rioya etilishini ta'minlash.

42. Bank faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash, hamda bankning barqaror rivojlanishi maqsadlariga va O'zbekiston Respublikasining xalqaro iqlimiy bitimlarning talablari va vazifalarini bajarish yuzasidan milliy maqsadlariga muvofiq holda iqlimiy maqsadlarni va ustuvor vazifalarni tasdiqlash.

43. Bankning rivojlanish Strategiyasini ma'qullash, O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlarida ko'zda tutilgan holatlarda Bankning rivojlanish rejasini tasdiqlash, hamda tasdiqlangan Bankning rivojlanish Strategiyasi doirasida, risklarning yo'l qo'yiladigan darajalarini, shu jumladan risklar va imkoniyatlarning iqlimiy darajalarini belgilash va tasdiqlash. Bankning rivojlanish Strategiyasi bajarilishini monitoring qilish va uning joriy bozor va iqtisodiy vaziyatiga, risklarning profiliga va moliyaviy salohiyatiga muvofiqligini baholash, risklarning yo'l qo'yiladigan darajalarini hisoblash va ularni Bank risklarining joriy darajasiga taqqoslash natijalari to'g'risida hisobotni ko'rib chiqish.

44. Bank Ustavining O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi talablariga muvofiqligini ta'minlash, hamda uni amaldagi holatida saqlab turish.

45. Qonunda ko'zda tutilgan holatlardan tashqari, aksiyalarni joylashtirish (sotish) to'g'risida, shu jumladan Bankning e'lon qilingan aksiyalari miqdori ichida joylashtiriladigan (sotiladigan) aksiyalarning miqdori, ularni joylashtirish (sotish) usuli va narxi to'g'risida, shu jumladan, Bankning aksiyalari yoki depozitar tilxatlarining boshqa davlatlar fond birjalaridagi listingiga tegishli bo'lgan, qimmatli qog'ozlarni joylashtirish yuzasidan taklif yuzasidan qarorni qabul qilish.

46. Bankning joylashtirilgan aksiyalarni yoki boshqa qimmatli qog'ozlarni qayta sotib olish va ularni qayta sotib olishning narxi to'g'risida qarorni qabul qilish.

47. Bankning yillik moliyaviy hisobotini dastlabki tasdiqlash;

48. Bank obligatsiyalari va hosilaviy qimmatli qog'ozlari chiqarilishining shartlarini belgilash, hamda ularning chiqarilishi to'g'risida qarorlarni qabul qilish.

49. Bank qimmatli qog'ozlarining davlatlar fond birjalaridagi listingi uchun emissiya (chiqarilishi) risolasini tasdiqlash, hamda ularning chiqarilishi to'g'risida qarorlarni qabul qilish.

50. Bank Boshqaruvi a'zolarining miqdoriy tarkibini, vakolatlari muddatini belgilash, Bank Boshqaruvi Raisiga va Bank Boshqaruvi a'zolariga nomzodni ma'qullash, hamda ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish, Bank Boshqaruvi faoliyatini monitoring qilish, nazorat qilish va baholash.

51. Bank faoliyatining asosiy biznes-bloklari (yo'nalishlari) rahbarlarini, shu jumladan Bosh komplayens-nazorat rahbarini, Bosh risklar bo'yicha direktorni (CRO), Bosh biznes bo'yicha direktorni (CVO), Bosh moliyaviy direktorni (CFO), Bosh operatsion direktorni (COO) va boshqa Top-lavozimlarni belgilangan tartibda tayinlash va lavozimidan ozod etish.

52. Auditorlik tashkilotining moliyaviy hisobotning auditi uchun xizmatlari haqi, hamda yirik bitimning predmeti bo'lgan mulkning bozor qiymatini baholash bo'yicha baholovchining xizmat haqi miqdorini belgilash.

53. Bankning zaxira fondidan foydalanish tartibini belgilash.

54. Bankning ichki kredit siyosatiga oid qoidalarini belgilash.

55. Bankning buxgalterlik hisobi siyosatini (Bankning hisob siyosatini) belgilash.

56. O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq Kengashning vakolatiga kiritilgan, Bankning ichki faoliyatini belgilab beruvchi hujjatlarni (qoidalar, siyosatlar, nizomlar va hokazo), shu jumladan, auksionlarni va Bank qimmatli qog'ozlariga obuna bo'lishni o'tkazish shartlarini va tartibini belgilaydigan ichki qoidalarini tasdiqlash, Bank Boshqaruvi Bankning faoliyatini tashkil etish maqsadida qabul qiladigan hujjatlar bundan istisno, shuningdek, Bankning siyosatlari va boshqa ichki hujjatlarining Bankning rivojlanishi strategiyasiga, joriy bozor va iqtisodiy vaziyatga, risklarning profiliga va O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi talablariga muvofiqligini ta'minlash.

57. Yirik bitimlarni va Bank tomonidan tuzilishidan manfaatdorlik bo'lgan bitimlarni tuzish to'g'risida qarorni qabul qilish, ularni tuzish to'g'risida qaror Qonunga muvofiq Bank aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadigan yirik bitimlar bundan istisno.

58. Bank tomonidan, Bank bilan alohida munosabatlari bilan bog'liq bo'lgan shaxslar bilan bitimlarni tuzishi to'g'risida qarorlarni qabul qilish, O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida» Qonunida belgilangan holatlar bundan istisno.

59. Bank xoldinglari bilan tuziladigan bitimlarning shartlariga qo'yiladigan talablarni belgilash.

60. Risklarning turlari bo'yicha jamlanma limitlarni belgilash.

61. Bankda, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi bilan belgilangan tegishli ichki hujjatlarni tasdiqlash yo'li bilan, risklarni boshqarish va ichki nazorat tizimlarining ishlashi ustidan nazoratni ta'minlash. Risklarni boshqarish va ichki nazorat tizimini shakllantirish masalalariga oid me'yoriy-huquqiy hujjatning talablarida ko'zda tutilgan holatlarda, va ularga muvofiq holda, risklarni boshqarish, audit, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi va Bankning ichki hujjatlari talablariga rioya qilish masalalari bo'yicha monitoring va nazorat qilish yakunlariga ko'ra tayyorlangan axborotni va hisobotlarni ko'rib chiqish.

62. Bankda, aksiyadorlar va organlar, Bankning mansabdor shaxslari va aksiyadorlar o'rtasida yuzaga keladigan korporativ nizolarni aniqlash va Bankning ichki qoidalariga muvofiq holda tartibga solish tizimi yaratilishini ta'minlash.

63. Bank aksiyadorlari, shu jumladan minoritar aksiyadorlari bilan doimiy muloqot va o'zaro munosabatlar yuritilishini ta'minlash.

64. Bank majburiyatlarini, Bank o'z kapitali miqdoridan o'n foiz va undan ortiqroq bo'lgan kattalikka oshirish.



65. Kengash huzuridagi qo'mitalarni tuzish, ular to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash, qo'mitalarning a'zolarini va Raislarini saylash.

66. Bankning korporativ boshqarish Kodeksini, hamda unga kiritilgan o'zgartirishlarni va qo'shimchalarni ma'qullash.

67. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan Rag'batlantirish tartibiga muvofiq, Kengash a'zolaridan tashqari, Bank aksiyalari uchun opsiya berilishini, yoki aksiyalar bilan boshqa to'lovlarni ko'zda tutgan holda, Bank xodimlarini mukofotlashning alohida shartlarini, shuningdek, bunday shartlarga kiritiladigan o'zgartirishlarni va qo'shimchalarni tasdiqlash.

68. Bank qimmatli qog'ozlarining (aksiyalaridan tashqari) O'zbekiston Respublikasi va/yoki boshqa davlatlar fond birjalaridagi listingini to'xtatish to'g'risida qarorni qabul qilish.

69. Aksiyalarining (ustav kapitalida ishtirok ulushlarining) o'n foizi va undan ortig'i Bankka tegishli bo'lgan yuridik shaxsning aksiyadorlari (ishtirokchilari) umumiy yig'ilishining vakolatlariga kiruvchi faoliyatining masalalari bo'yicha qarorlarni qabul qilish.

70. Bankning ichki hujjatlariga muvofiq holda, ular haqidagi axborot aksiyadorlar va investorlar e'tiboriga yetkazilishi lozim bo'lgan masalalar ro'yxati bo'yicha qarorlarni qabul qilish.

71. Regulyatorga hisobotni to'liq, haqqoniy va o'z vaqtida shakllantirish va taqdim etish ustidan monitoring qilish va nazorat qilish.

72. Bankning barqaror rivojlanishiga tizimli yondashuvni ta'minlash uchun, energiya samaradorligi, sanoat chiqindilarini kamaytirish, ekologik majburiyatlarini bajarish, iqlimiy risklarni va imkoniyatlarni baholash yo'nalishlari bo'yicha mas'ul muvofiqlashtiruvchini (qo'mita, Kengashning a'zosi) tayinlash.

73. Tashabbuslarning ESG (environmental, social, governance – ekologik-iqlimiy, ijtimoiy va korporativ boshqarish) strategiyasining maqsadli ko'rsatkichlari amalga oshirilishiga ta'sirini baholashni majburiy tartibda o'z ichiga oluvchi, risklarni boshqarish masalalari bo'yicha hujjatlarni tayyorlashning rasmiy taomillarini tasdiqlash va joriy qilish.

74. Davlatda ekologik atrof muhitni qo'llab-quvvatlash va iqlimni korporativ boshqarish, bankning ijtimoiy mas'uliyati va korporativ boshqarish sohasida amalga oshirilayotgan choralarning samaradorligini monitoring qilish, shuningdek, bankning barqaror rivojlanishini ta'minlaydigan jarayonlarni boshqarish bilan bog'liq bo'lgan masalalarni muhokama qilish.

75. Ahamiyatli faktlar haqidagi axborotni oshkor etish hajmi, kanallari va tamoyillari to'g'risi da hisobotni yil davomida kamida ikki marta muntazam ko'rib chiqish.

76. Iqlimni korporativ boshqarish sohasida nazoratni amalga oshirish, shuningdek, iqlim va ekologik atrof muhitni saqlash bilan bog'liq bo'lgan masalalarni har yili muhokama qilish.

77. O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq boshqa masalalar.

78. Bank Kengashining vakolatlariga kiritilgan masalalar, Bankning ijroiya organiga hal qilish uchun topshirilishi mumkin emas.

### **III. Bank Kengashi.**

79. Bank Kengashi uning samarali ishlashini ta'minlaydi. Kengash qarorlarni qabul qilishda Bank aksiyadorlarining manfaatlarini va nuqtai nazarini hisobga oladi.

80. Kengashning a'zosi, Qonunga va Bank Ustaviga muvofiq holda unga yuklatilgan funksiyalarni bajarishni uchinchi shaxslarga topshirish huquqiga ega emas.

81. Kengash a'zolari Bank aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi tomonidan, kumulyativ ovoz berish orqali, kumulyativ ovoz berish byulletenlaridan foydalanib saylanadi, Kengashdagi bir joyga bir nomzod ko'rsatilgan holatlar bundan istisno.

82. Kumulyativ ovoz berish byulleteni quyidagi ustunlarni o'z ichiga olishi lozim:

a) Bank Kengashi a'zolariga nomzodlarning ro'yxati;

b) aksiyadorga tegishli bo'lgan ovozlarning soni;

v) aksiyador Kengash a'zosiga nomzod uchun bergan ovozlarning soni.

Kumulyativ ovoz berish byulleteniga «qarshi» va «betaraf» ovoz berish variantlarini kiritish taqiqlanadi.

83. Kengash a'zolarining miqdoriy tarkibi Bank aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi tomonidan belgilanadi. Kengash a'zolarining kamida 50% qismi mustaqil a'zolar ichidan saylanadi.

84. Bank aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi tomonidan Kengash a'zosi lavozimiga nomzodning saylanishi uchun u haqidagi barcha axborot Bank aksiyadorlariga taqdim etiladi. Axborotda nomzodning yoshi, uning ma'lumoti, uning ishlagan joylari haqidagi va oxirgi uch yil davomida egallagan lavozimlar haqidagi ma'lumotlar, nomzodning ko'rsatilishi paytidagi egallagan lavozimi, hamda nomzodning malakasini va ish tajribasini tasdiqlovchi boshqa ma'lumotlar ko'rsatiladi.

85. Bank Boshqaruvining a'zolari Bank Kengashining a'zolari bo'la olmaydi. Kengash Raisining majburiyatlari O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi bilan belgilangan.

86. Kengash a'zosining vakolatlari Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishining qarori bilan muddatidan ilgari tugatilishi mumkin.

87. Kengash a'zosining vakolatlari muddatidan ilgari tugatilgan holda Kengashning yangi a'zosini saylash Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishida kumulyativ ovoz berish orqali amalga oshiriladi.



88. Kengash a'zosining vakolatlarini uning tashabbusiga binoan muddatidan ilgari tugatish Kengashni yozma xabardor etish asosida amalga oshiriladi. Bunday Kengashning bunday xabarnomani olishi paytida boshlab tugatiladi va ushbu masala eng yaqin aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibiga kiritiladi.

89. Kengashnig bir yoki bir nechta a'zolari vakolatlari tugatilganda, Kengash yig'ilishining kun tartibi masalalari bo'yicha qarorlar kворum mavjud bo'lishi sharti bilan, agar ushbu qarorni qabul qilish uchun Kengashning qolgan a'zolari ovozlarning umumiy sonidan ovoz ko'pchiligi rozi bo'lib ovoz berganda, qabul qilinadi.

90. Bank Kengashining a'zolari Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan, Qonunda, Bank Ustavida va ushbu Nizomda ko'zda tutilgan tartibda, uch yil muddatga saylanadi. Kengash a'zolari, shu jumladan uning mustaqil a'zolari, agar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida va Bank Ustavida boshqacha ko'zda tutilgan bo'lmasa, ularning faoliyati natijalari qoniqarli bo'lishi sharti bilan, Kengash tarkibiga cheklanmagan marta qayta saylanishi mumkin.

91. Bank Kengashining Raisi va Raisining o'rinbosari Bank Kengashining yig'ilishida Bank Kengashining a'zolari tomonidan saylanadi.

92. Po resheniyu Bank Kengashining qaroriga ko'ra Kengash a'zolari, shu jumladan mustaqil a'zolari, ushbu Nizomning VI bo'limining talablariga muvofiq boshqa yuridik shaxslarning organlariga tayinlanishi yoki saylanishi va ularda mansabdor shaxslar vazifalarini bajarishi mumkin.

#### **IV. Bank Kengashining a'zosiga qo'yiladigan talablar**

93. Bank Kengashining a'zolari nuqsonsiz ish obro'siga ega bo'lishi, Bank risklarini samarali boshqarishni ta'minlash, o'z vakolatlari doirasida asosli qarorlarni qabul qilish uchun zarur bo'lgan ish tajribasiga, bilimlarga va malakaga ega bo'lishi lozim. Bank Kengashi a'zoliciga ko'rsatiladigan shaxslarning nomzodlari, ular lavozimiga kirishidan avval, Markaziy Bank bilan kelishiladi. Agar ob'ektiv sabablarga ko'ra avvaldan kelishib olish mumkin bo'lmasa, Bank keyinchalik rozilik olish uchun so'rovni yuborishi kerak.

94. Kengash a'zolari jismoniy va yuridik shaxslar bo'lgan aksiyadorlarning vakillari sifatida, Kengashning tarkibiga saylash uchun tavsiya etilgan jismoniy shaxslar ichidan saylanadi.

95. Quyidagi shaxs Kengashning a'zosi bo'la olmaydi:

- oliy ma'lumotga ega bo'lmagan;
- nuqsonsiz ish obro'siga ega bo'lmagan;
- tashkilot tugatilishiga va (yoki) moliyaviy bozorda faoliyatini amalga oshirishni to'xtatishiga olib kelgan, vakolatli organ tomonidan moliyaviy tashkilotni to'lovga layoqatsiz tashkilotlar toifasiga kiritish to'g'risida, sug'urta (qayta sug'urta) tashkilotini konservatsiya qilish yoki uning aksiyalarini majburiy tartibda qayta sotib

olish to'g'risida, moliyaviy tashkilotning litsenziyasini bekor qilish to'g'risida qarorni qabul qilishidan, yoxud moliyaviy tashkilotni majburiy tugatish yoki uni O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi bilan belgilangan tartibda bankrot deb tan olish to'g'risidagi sud qarorining qonuniy kuchga kirishidan ko'pi bilan bir yil avvalgi davr ichida, avval moliyaviy tashkilotning rahbari, boshqaruv organining a'zosi, ijroiya organining a'zosi, bosh buxgalteri bo'lgan, moliyaviy tashkilotning jismoniy shaxs bo'lgan yirik ishtirokchisi, yuridik shaxs bo'lgan yirik ishtirokchisi (Bank xoldingi) rahbari bo'lgan shaxs. Ushbu talab quyidagi holatlarda vakolatli organ tomonidan qaror qabul qilinishidan keyin besh yil davomida qo'llanadi;

- korrupsiyaviy, iqtisodiy jinoyatni sodir etgan, yoki tayinlanishi (saylanishi) sanasidan avval uch yil davomida korrupsiyaviy, iqtisodiy huquqbuzarlik sodir etganligi uchun intizomiy javobgarlikka tortilgan shaxs;

- ikki yoki undan ortiq banklarning Kuzatuv Kengashining a'zosi bo'lgan, yoki bo'lishni istagan shaxs, ushbu banklar bir bank guruhiga tegishli bo'lgan holatlar bundan istisno;

- O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi bilan belgilangan boshqa talablarga muvofiq bo'lmagan boshqa shaxslar.

#### **V. Bank Kengashining mustaqil a'zolari**

96. Bank Kengashining mustaqil a'zosi sifatida quyidagi shaxs tan olinadi:

- Bankda va (yoki) Bankning affillangan shaxslarida oxirgi uch yil davomida ishlamagan;

- Bank aksiyadori va (yoki) Bank affillangan shaxslarining ta'sischisi (aksiyadori, ishtirokchisi) bo'lmagan;

- Bankning va (yoki) Bankning affillangan shaxsining yirik mijozi va (yoki) yirik yetkazib beruvchisi bilan fuqarolik-huquqiy munosabatlari bo'lmagan;

- Bank va (yoki) Bankning affillangan shaxslari bilan, Kengash a'zosining vazifalari va funksiyalari bajarilishini ta'minlash bilan bog'liq bo'lganlaridan tashqari, biror-bir kelishuvlari bo'lmagan;

- Bankning va (yoki) Bankning affillangan shaxsining boshqaruv va ichki nazorat organlarining a'zosi bo'lgan, yoki oxirgi uch yil ichida bo'lgan shaxsning eri (xotini), ota-onasi (o'g'il, qiz qilib olgan shaxsi), farzandi (o'g'il, qiz qilib olingan shaxsi), qondosh yoki o'gay aka-ukasi yoki opa-singlisi bo'lmagan;

- davlat boshqaruvi organi, yoki davlat korxonasi xodimi bo'lmagan shaxs.

97. Mustaqil a'zo, ularni sodir etish natijasida u mustaqil bo'lmasligi mumkin bo'lgan harakatlarni sodir etishdan o'zini tiyishi kerak. Agar uning Bank Kengashiga saylanishidan keyin, ularning natijasida mustaqil a'zo mustaqil bo'lmay qoladigan o'zgarishlar yuz bersa, yoki shunday holatlar paydo bo'lsa, u Bank Kengashiga ushbu o'zgarishlar va holatlarni bayon etgan holda ariza berishi lozim. Bu holda Kengash

aksiyadorlarga bu haqda xabar beradi, va zarur bo'lganda Kengashning yangi a'zosini saylash uchun aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishi mumkin.

98. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishida Bank Kengashi mustaqil a'zolar bo'lgan Kengash a'zolarini ko'rsatgan holda, aksiyadorlarga Kengashning tarkibi haqida ma'lumot beradi.

99. Bank Kengashining mustaqil a'zosi O'zbekiston Respublikasining «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida» Qonuniga muvofiq holda Kengashning boshqa a'zolari bilan bir xil huquqlarga va majburiyatlarga ega bo'ladi.

## **VI. Bank Kengashi a'zosining majburiyatlari**

100. Bank Kengashi a'zosining majburiyatlari:

- barcha aksiyadorlarning va umuman Bankning manfaatida ob'ektiv, halol va mas'ul tarzda qarorlarni qabul qilish;
- unga yuklatilgan funksiyalarni samarali bajarish imkonini beradigan yetarli vaqtga ega bo'lish;
- boshqa tashkilotlarning boshqaruv organlarida lavozimlarni o'rindoshlik asosida bajarish yuzasidan qaror qabul qilishda, faqat yetarli vaqtga ega bo'lganda, u o'ziga yuklatilgan vazifalarni tegishlicha ravishda bajara olishidan kelib chiqishi kerak;
- agar u, ushbu holat Bankning manfaatiga mos keladi, deb hisoblasa, o'zining ob'ektiv fikrini aytishi va uni himoya qilishi kerak;
- lavozimiga saylangan paytidan boshlab, faqat biror-bir shaxs yoki shaxslarning guruhi manfaatini ifoda etmasligi hamda Bank va uning aksiyadorlari manfaatida harakat qilishi kerak;
- Bank bilan bitim tuzishda manfaatdorligi to'g'risida ma'lumotni vijdonan va to'liq hajmida oshkor etish;
- o'z bilimi va malakalarini muntazam oshirib borish;
- Kengash a'zosining manfaatlari va Bank manfaatlari o'rtasida to'qnashuv yuzaga kelishiga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan harakatlardan o'zini tiyishi, bunday manfaatlar to'qnashuvi bo'lganda yoki yuzaga kelganda, Bank Kengashiga axborotni oshkor qilish va harakatlarni bajarish tartibiga rioya qilish uchun choralarni ko'rish;
- ularning o'z hisobiga yoki boshqa shaxslarning hisobiga amalga oshiriladigan manfaatlari, Bank manfaatlari va ularning Bankka nisbatan mansabdorlik majburiyatlariga to'qnashuv keladigan vaziyatlarga yo'l qo'ymaslik uchun, kerakli choralarni ko'rish;

- Bank Kengashiga manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi haqida bildirish, va ularda yoki ular bilan bog'liq bo'lgan tomonlarda manfaatlar to'qnashuvi bo'lgan holatlarda, qarorlarni qabul qilishda muhokamadan va ovoz berishdan (hamda muhokamaga yoki ovoz berishga aralashishdan) o'zini tiyish;

- Kengashga axborot berish: (a) Bank kabi, xuddi shunday yoki o'xshash faoliyatni amalga oshiradigan kompaniyalarning kapitalida ularga tegishli bo'lgan aksiyalarning har qanday miqdori yoki har qanday ulushi to'g'risida (Bank ustavida ko'zda tutilgan har qanday faoliyat turlari); (b) bunday kompaniyalarda ular egallagan lavozimlar, va ular amalga oshiradigan funksiyalar to'g'risida (v) ustavda ko'zda tutilgan, Bank tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat turi kabi, xuddi shunday yoki o'xshash faoliyatni mustaqil pudratchi sifatida yoki bunday mustaqil pudratchining xodimi sifatida amalga oshirishi to'g'risida;

- qonunchilikda axborotni oshkor etish uchun belgilangan tartibda, Kengashni tuzilishidan manfaatdorligi bo'lgan bitimni amalga oshirish niyati to'g'risida yozma xabardor etish, hamda o'zi tuzgan tizimlar haqida axborotni oshkor etish;

- Bank Kengashining yig'ilishlarida faol ishtirok etish. Kengash yig'ilishida ishtirok etishi mumkin bo'lmaganda, Kengash a'zosi Korporativ maslahatchiga bu haqda avvaldan, tegishli sabablarini ko'rsatgan holda xabar beradi;

- Kengash a'zosining majburiyatlarini bajarishi davrida va Bankdagi ishini yakunlaganidan keyin ankning ichki qoidalar bilan belgilangan muddat davomida, Bank haqidagi maxfiy axborotni, insayderlik axborotini, hamda qonun bilan muhofaza qilinadigan bank va tijorat sirini tashkil etuvchi axborotni oshkor qilmaslik va shaxsiy manfaatida yoki uchinchi shaxslarning manfaatlarida undan foydalanmaslik;

- Bankning mansabdor shaxslari va uning aksiyadorlari darajasida ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvlarini, shu jumladan, Bankning mulkidan noqonuniy foydalanishni va tuzilishidan manfaatdorligi bo'lgan bitimlarni tuzishda suiiste'molliklarni kuzatish va imkon boricha bartaraf etish;

- Bankda korporativ boshqarish amaliyotining samaradorligi ustidan nazorat qilishda Kengashga faol ko'maklashish;

- O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi talablariga, Bank Ustaviga va ichki hujjatlariga, Kengash a'zosining majburiyatlarini bajarish to'g'risidagi shartnomaga muvofiq, xabardorlik, shaffoflik asosida, Bank va uning aksiyadorlari manfaatlarida harakat qilish;

- Bankning barcha aksiyadorlariga adolatli munosabatda bo'lish, korporativ masalalar bo'yicha, qarorlarni qabul qilishda ob'ektiv mustaqil fikrini bildirish;

- va O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq boshqa majburiyatlarni amalga oshirish.

## **VII. Bank Kengashi a'zosining huquqlari**



101. Bank Kengashining a'zosi quyidagi huquqlarga ega bo'ladi:

- Kengash yig'ilishi chaqirilishini talab qilish. Bunda Kengash yig'ilishini chaqirish haqidagi talabnoma Bank Kengashining Raisiga taqdim etilishi, shu bilan bir vaqtda Kengashning a'zosi tomonidan o'zi taklif etgan Kengash yig'ilishining kun tartibini o'z ichiga olgan tegishli yozma xabarni yuborish orqali, Bank Kengashi huzuridagi Korporativ maslahatchiga bildirilishi kerak;
- Kengash yig'ilishining kun tartibi bo'yicha fikrlarini va takliflarini kiritish;
- Kengash tomonidan ko'rib chiqiladigan kun tartibining masalalari bo'yicha o'zining ob'ektiv fikrini bildirish. Kengash tomonidan Kengash yig'ilishining kun tartibi masalasi bo'yicha qaror qabul qilishga rozi bo'lmagan holda, Kengash a'zosi o'zining nuqtai nazarini (alohidagi fikrini) yozma ravishda bayon etishga haqli bo'ladi;
- muhokamalarda ishtirok etish, Kengashning yig'ilishida ishtirok etuvchi ma'ruzachilarga savollar berish;
- Bank Boshqaruvidan zaruriy axborotni olishini talab qilish;
- o'z tashabbusiga binoan, Kengashni yozma xabardor etish orqali, o'z vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish. Bunday Kengash a'zosining vakolatlari, agar xabarnomada Kengash a'zosining vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish sanasi ko'rsatilmagan bo'lsa, Kengash yozma xabarnomani olgan paytidan boshlab tugatiladi;
- o'z lavozim majburiyatlari yuzasidan to'liq, rasmiy va maxsus ishlab chiqilgan yo'riqnomalarni olish;
- va O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq boshqa huquqlar.

Bank Kengash a'zolarining bilimlarini va malakasini rivojlantirish va takomillashtirish uchun kerakli resurslarni ta'minlaydi. Shu jumladan, Kengashning Raisi Kengash a'zolarining o'z malaka va bilimlarini doimiy takomillashtirib borishiga ko'maklashadi, hamda ular tomonidan Kengash tarkibida ham, Kengash qo'mitalarining tarkibida ham o'z vazifalarini bajarishi uchun zarur bo'lgan Bank faoliyati va natijalari to'g'risidagi axborotni Kengash a'zolarining e'tiboriga yetkazadi.

#### **VIII. Bank Kengashi a'zolariga haq va kompensatsiyalarni to'lash**

102. Kengash a'zolariga haq to'lash va ularning Bank Kengashi a'zosining vazifalarini bajarishi bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarini to'lash / qoplash, hamda Kengash a'zolariga belgilangan va to'langan haq to'lash haqidagi axborotni oshkor etish O'zbekiston Respublikasining banklar va bank faoliyati to'g'risidagi qonunchiligi talablarini bajarish maqsadida va korporativ boshqarishning ilg'or amaliyotini hisobga olib, ishlab chiqilgan va tasdiqlangan «O'zsanoatqurilishbank» ATB Kengashining a'zolariga to'lanadigan haqni belgilash va to'lash siyosati» ga va

«O'zsanoatqurilishbank» ATB Kengashining a'zolariga to'lanadigan haq va kompensatsiyalar to'g'risidagi Nizom» ga muvofiq amalga oshiriladi.

103. Bank Kengashining mustaqil a'zolariga to'lanadigan haq summasi Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarori bilan tasdiqlanadi.

104. «Bank Kengashi a'zosining vazifalarini bajarish to'g'risida» shartnoma Bank nomidan Bank Kengashining Raisi tomonidan va Bank Kengashining mustaqil a'zosi tomonidan imzolanadi.

#### **IX. Bank Kengashining faoliyatini tashkil etish**

105. Bank Kengashiga Bank Kengashining Raisi boshchilik qiladi, u Bank Kengashining unga yuklatilgan vazifalarini muvaffaqiyatli hal etishini ta'minlaydi.

106. Kengash yig'ilishini chaqirish va uni o'tkazishga tayyorgarlik tartibi Kengash a'zolariga uni o'tkazishga tegishli tarzda tayyorlanish imkonini ta'minlashi lozim. Kengash yig'ilishlarini chaqirish, tayyorlash va o'tkazish, qarorlarni qabul qilish tartibi Bank Ustavi va ushbu Nizom bilan belgilanadi.

107. Kengash yig'ilishlari zarur bo'lganda o'tkaziladi, ular ham Bank Kengashining Raisi, Bank Boshqaruvining tashabbusiga binoan, ham Kengashning istalgan a'zosi va ichki audit bo'limining talabiga ko'ra, Bank Kengashi huzuridagi Korporativ maslahatchiga avvaldan bildirgan holda chaqirilishi mumkin.

108. Kengash yig'ilishining sanasi, vaqti, joyi va kun tartibi ko'rsatilgan, yig'ilishning kun tartibi masalalari bo'yicha materiallar taqdim etilgan Kengash a'zolariga yig'ilish o'tkazilishi haqidagi bildiruvchi xabarnoma Kengash a'zolariga pochta, telefon, elektron aloqa yoki boshqa turdagi aloqa orqali, agar Bank Kengashiga ko'rib chiqish uchun kiritiladigan masalalarning xususiyatiga bog'liq holda, Bank Kengashining Raisi tomonidan boshqa muddat belgilanmagan bo'lsa, Kengash yig'ilishi o'tkazilishidan kamida uch ish kuni avval yuboriladi.

109. Agar Kengash yig'ilishining kun tartibi Bank Boshqaruvining a'zolarini saylash masalasini o'z ichiga olsa, Kengash a'zolariga nomzodning tegishli lavozimni egallashga yozma roziligi taqdim etiladi. Yozma roziligi bo'lmaganda nomzod yig'ilishida shaxsan ishtirok etadi va tegishli lavozimni egallashga og'zaki shaklda rozilik beradi.

110. Kengash a'zolari Bankning moliyaviy-xo'jalik faoliyatidagi eng muhim voqealar, hamda aksiyadorlarning manfaatlariga daxldor bo'lgan boshqa voqealar to'g'risidagi axborot bilan ta'minlanadi.

111. Bank Boshqaruvining Raisi va a'zolari, Korporativ maslahatchi orqali, Kengash yig'ilishlarining kun tartibi masalalari bo'yicha va Bank Kengashi a'zosining so'rovlariga binoan to'liq va haqqoniy axborotni o'z vaqtida taqdim etadi.

112. Kengash yig'ilishlari ham shaxsan ishtirok etish, ham sirtqi shaklda o'tkaziladi, ular Bank Kengashi yig'ilishining bayonnomalari bilan rasmiylashtiriladi.



Kengashning shaxsan ishtirok etilgan va sirtqi yig'ilishlari bayonnomalarini kelishib olish va rasmiylashtirish ushbu Nizomga va Bankning boshqa ichki hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

113. Bank Kengashi yig'ilishini o'tkazish uchun kvorum Bank Kengashining saylangan a'zolaridan kamida yetmish besh foiz bo'lishi kerak. Kengash a'zolarining soni Ustavda ko'zda tutilgan sonining yetmish besh foizidan kamroq bo'lib qolsa, Bank Kengashi Bank Kengashining yangi tarkibini yoki a'zolarini saylash uchun Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishi shart. Kengashning qolgan a'zolari bunday aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida qarorni qabul qilishga haqli bo'ladi.

114. Ijroiya organi rahbarining vakolatlari muddatidan ilgari tugatilgan holda, Bank Kengashi ijroiya organi rahbarining vazifalarini vaqtincha bajaruvchi shaxsni tayinlaydi.

115. Shaxsan ishtirok etish shaklidagi yig'ilishda bo'lmagan Kengash a'zolari, yig'ilishda bo'lmagan Kengash a'zosini bir ma'noli identifikatsiya qilish, ushbu Kengash a'zosining so'zlarini va fikrini haqqoniy qabul qilish imkonini beradigan telefon va boshqa turdagi aloqa orqali, Bank Kengashiga ko'rib chiqish uchun kiritiladigan barcha masalalarni muhokama qilishda va ular bo'yicha ovoz berishda ishtirok etish huquqiga ega bo'ladi.

116. Kengash tomonidan shaxsan ishtirok etiladigan yig'ilishda bo'lmagan Kengash a'zosining ishtirokida qarorlar qabul qilinganda, Kengash yig'ilishining bayonnomasida, ushbu Kengash a'zosi, yig'ilishda bo'lmagan Kengash a'zosini bir ma'noli identifikatsiya qilish, uning qabul qilnadigan qaror yuzasidan pozitsiyasini aniqlash imkonini beradigan telefon va boshqa turdagi aloqa orqali, masalalarni muhokama qilishda va ular bo'yicha ovoz berishda ishtirok etganligini ko'rsatuvchi fikrlar bo'lishi kerak. Har qanday holatda, faqat texnika vositalari bilan shaxsni va uning irodasini bildiruvchi fikrlarni identifikatsiyalash ta'minlansa, har qanday Kengash a'zosining so'zlarini bo'lish imkoni bo'lgan holda, real vaqt rejimida muhokamada ishtirok etish imkoni bo'lsa, maxfiy ma'lumotni va boshqa rejim bilan himoya qilinadigan bank, tijorat siri yoki boshqa qonun bilan qo'riqlanadigan sirlarni tegishli texnikaviy himoyalash qo'llanadigan bo'lsa, Kengash a'zosining bunday masofadan ishtirok etishiga yo'l qo'yilishi mumkin. Bu holatda ushbu Kengash a'zosi Kengash yig'ilishi o'tkazilgan sanasidan ko'pi bilan bir oy muddatda, Korporativ maslahatchiga uning qabul qilingan qarorlar bo'yicha ovoz berishining natijalarini tasdiqlaydigan yozma hujjatni xabarchi orqali topshirishi, yoki pochta aloqasi vositalaridan foydalangan holda, yuborishi kerak.

117. Kengashning yig'ilishlari shaxsan ishtirok etish shaklida o'tkazilganda, unda bo'lmagan Kengash a'zolarining yozma fikrlari hisobga olinadi, lekin bunda yig'ilishda bo'lmagan, o'z fikrini yozma shaklida bildirgan Kengash a'zolarining ovozlari Kengashning yig'ilishida kvorumni aniqlashda hisobga olinmaydi.

118. Kengashning vakolatiga kiruvchi masalalarni tezkor hal etish zarur bo'lganda, qarorlar so'rov yo'li bilan (sirtqi ovoz berish) qabul qilinishi mumkin.

119. Bank Ustavida, Bank Kengashining mutlaq vakolatiga kiritilgan ayrim masalalar bo'yicha alohida qarorlarni qabul qilish tartibi ko'zda tutilishi mumkin.

120. Bank Kengashining yig'ilishida bayonnoma yuritiladi. Kengash yig'ilishining bayonnomasi yig'ilish o'tkazilishidan keyin ko'pi bilan o'n kun ichida tuziladi.

121. Kengash yig'ilishining bayonnomasida quyidagi ma'lumot bo'lishi kerak:

- Bank Kengashining yig'ilishini o'tkazish sanasi, vaqti va joyi;

- Kengash yig'ilishida ishtirok etuvchi shaxslar to'g'risida, hamda Kengash a'zolari ushbu yig'ilishda bo'lmasligining ma'lum sabablari haqida ma'lumot;

- yig'ilishning kun tartibi;

- ovoz berishga qo'yilgan masalalar va ular bo'yicha ovoz berishning natijalari, Bank Kengashining yig'ilishi kun tartibining har bir masalasi bo'yicha ovoz berish natijasi aks ettirilgan holda;

- Bank Kengashining qarori yuzasidan boshqa ma'lumotlar.

122. Kengash yig'ilishining bayonnomasi yig'ilish kotibi tomonidan rus va/yoki o'zbek tilida tuziladi. Kengash yig'ilishining bayonnomalari Bank Kengashining barcha a'zolari tomonidan imzolanadi.

123. Kengash yig'ilishlarining bayonnomalari, shu jumladan sirtqi yig'ilishlar bayonnomalari, byulletenlar, Bank Kengashi yig'ilishining kun tartibi masalalari bo'yicha materiallar Korporativ boshqarish xizmatida belgilangan tartibda saqlanadi.

## **X. Bank Kengashining Raisi**

124. Bank Kengashining Raisi Bank Kengashining a'zolari ichidan, Bank Kengashi a'zolarining umumiy sonidan ovoz ko'pchiligi bilan, ochiq ovoz berish orqali saylanadi. Rais Bank Kengashining ishini tashkil qiladi, Bank Kengashining yig'ilishlarida raislik qiladi.

125. Bank Kengashining Raisi etib, nuqsonsiz ish obro'siga va rahbarlik lavozimlarida ish tajribasiga ega bo'lgan, halollik, prinsipiallik kabi xususiyatlarga ega bo'lgan, aksiyadorlar va Bank Kengashi a'zolarining so'zsiz ishonchini qozongan shaxs saylanishi mumkin.

126. Kengash Raisining vakolatlari muddati Kengash a'zolarining qarori bilan belgilanadi, lekin u Bank aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi bilan belgilangan, Bank Kengashining vakolatlari muddatidan ortiq bo'la olmaydi.

127. Bank Kengashining Raisi Kengash a'zolarining qaroriga ko'ra istalgan vaqtda qayta saylanishi mumkin.

128. Kengashning Raisi Kengash faoliyatini samarali tashkil etishni va uning bankning ijroiya organi bilan o'zaro munosabatlarini ta'minlaydi.

129. Kengash Raisi Kengash yig'ilishlarining kun tartibini tasdiqlaydi, kun tartibining masalalari bo'yicha eng samarali qarorlarni ishlab chiqishni va zarur bo'lganda bu masalalarni erkin muhokama qilishni, hamda Bank Kengashi yig'ilishlarini do'stona muhitda o'tkazilishini tashkil etadi.

130. Kengash Raisi, Bank Boshqaruvi orqali, Kengash a'zolariga kun tartibining masalalari bo'yicha qarorlarni qabul qilish, Kengash a'zolarini ushbu masalalar bo'yicha o'z fikrlarini erkin bildirishga va ularni ochiq muhokama qilishga rag'batlantirish uchun zarur bo'lgan axborotni o'z vaqtida taqdim etish uchun zarur bo'lgan barcha kerakli choralarni ko'radi, ko'riladigan masalalar bo'yicha qarlar loyihalarini shakllantirishda tashabbus ko'rsatadi.

131. Kengash yig'ilishlari Kengash Raisining raisligida o'tkaziladi. U bo'lmaganda, uning vazifalarini Bank Kengashi Raisining o'rinbosari bajaradi.

132. Kengash Raisi o'z tashabbusiga binoan Kengash yig'ilishini chaqirish huquqiga ega bo'ladi.

133. Kengash tomonidan yig'ilishning kun tartibi masalalari bo'yicha qarorlarni qabul qilishda ovozlar teng bo'lganda, Kengash Raisining ovozi hal qiluvchi ovoz hisoblanadi.

134. Kengash Raisi yig'ilish bayonomasini uning Bank Kengashi huzuridagi Korporativ maslahatchi tomonidan taqdim etilishidan keyin imzolaydi.

#### **XI. Bank Kengashi huzuridagi Korporativ maslahatchi.**

135. Bank Kengashi huzuridagi Korporativ maslahatchi – Bank Kengashi va (yoki) Bank Boshqaruvining a'zosi emas, mustaqil shaxs hisoblanadi. Korporativ maslahatchining mustaqilligini Bank Kengashi ta'minlaydi.

136. Bank Kengashi huzuridagi Korporativ maslahatchi Bank Kengashi Raisiga hisobdor bo'ladi.

137. Bank Kengashi huzuridagi Korporativ maslahatchi o'z faoliyatining doirasida Aksiyadorlar umumiy yig'ilishlari va Bank Kengashi yig'ilishlarini tayyorlash va o'tkazishni nazorat qiladi, kun tartibining masalalari bo'yicha materiallarni shakllantirishni ta'minlaydi, ulardan foydalanishni ta'minlashni nazorat qiladi.

138. Bank Kengashi huzuridagi Korporativ maslahatchi bankdagi korporativ siyosat va korporativ jarayonlar uchun mas'ul bo'ladi. Korporativ maslahatchining maqsadi Bank Boshqaruvi, Bank Kengashi, aksiyadorlar va boshqa boshqaruv organlarining o'zaro munosabatlarida, hamda aksiyadorlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda nizoli vaziyatlarni hal etish hisoblanadi.

139. Bank Kengashi huzuridagi Korporativ maslahatchi Bankning tegishli organlari tomonidan aksiyadorlar murojaatlarini tegishli ko'rib chiqishni hamda aksiyadorlarning huquqlari buzilishi bilan bog'liq bo'lgan nizolarni hal etishni ta'minlaydi. Bankning organlari va boshqa bo'limlari bunday murojaatlarni o'z vaqtida ko'rib chiqishi ustidan nazorat qilish Korporativ maslahatchiga va Korporativ boshqarish xizmatiga yuklatiladi.

140. Bank Kengashi huzuridagi Korporativ maslahatchining vakolatlari va faoliyati «Korporativ maslahatchi to'g'risida Nizom» bilan belgilanadi.

141. Bank Kengashining kotibi – Korporativ boshqarish xizmatining boshlig'i Bank Boshqaruvi Raisining buyrug'i bilan lavozimiga tayinlanadi va undan ozod etiladi.

142. Bank Kengashining kotibi yuksak kasbiy, ish va etika xususiyatlariga ega bo'lishi, tashkiliy ishlar malakalariga ega bo'lishi lozim.

143. Kengash kotibi Kengash a'zolariga Kengash yig'ilishining kun tartibi va o'tkazilishi to'g'risida xabar berishni, Kengash a'zolariga so'rov tartibida ovoz berish (sirtqi ovoz berish) uchun byulletenlarni tayyorlash va tarqatishni, Kengashning shaxsan ishtirok etilgan va sirtqi yig'ilishlari bayonnomalarini tayyorlash va rasmiylashtirishni, hamda ushbu hujjatlarni Bankning ichki qoidalariga muvofiq holda belgilangan tartibda Bank arxiviga topshirishni, va unga topshirilgan boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.

#### **XII. Bank Kengashi tomonidan bank faoliyatini monitoring qilish**

144. Bankning ijroiya organi (Bank Boshqaruvi) faoliyati ustidan nazorat qilish maqsadida, Kengash tomonidan tegishli monitoring va tahlil o'tkaziladi. Kengash tomonidan o'tkaziladigan monitoring maqsadi – Bank tomonidan bank operatsiyalarini amalga oshirishda risklarning oldini olish, Bank Boshqaruvining faoliyati bilan bog'liq bo'lgan nuqsonlarni aniqlash, ularni minimallashtirish yo'llarini aniqlash hisoblanadi. Monitoring qilish uchun Kengash Bank Boshqaruvidan, kredit qo'mitalaridan, aktivlarni va passivlarni boshqarish qo'mitasidan, ichki audit xizmatidan, hamda Bankning boshqa qo'mitalaridan va tarkibiy bo'linmalaridan barcha kerakli axborotni so'raydi. Bunda so'raladigan ma'lumot Kengashga uning tomonidan belgilangan muddatlarda berilishi kerak.

145. Bankning risklarni boshqarish tizimini tashkil etish maqsadida Bank Kengashi:

- O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi talablariga muvofiq ichki siyosatlarni va boshqa ichki hujjatlarni, shu jumladan risklarni boshqarish va ichki nazorat tizimini shakllantirish masalalari bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatni tasdiqlaydi;

- risklarni boshqarish va ichki nazorat tizimini shakllantirish masalalari bo'yicha, hamda Bankning ichki hujjatlari talablari bo'yicha kerakli ma'lumotni va hisobotni tegishli tartibda va muddatlarda oladi;

- Bankning vakolatli kollegial organlari orqali, risklarni boshqarish, audit, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi talablariga va Bankning ichki hujjatlariga rioya qilish masalalari ustidan monitoring va nazorat qiladi;

- O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq boshqa harakatlarni amalga oshiradi.

146. Adekvat va samarali ichki nazorat tizimini yaratish va uning ishlashini ta'minlash maqsadida, Kengash va Boshqaruv boshqarish nazoratini va nazorat madaniyatini (nazorat muhitini) etika tamoyillariga, kasbiy faoliyat va korporativ boshqarish standartlariga amal qilish asosida shakllantiradi, ular jamuljamlikda Bank organlari tomonidan adekvat nazoratni, shu jumladan quyidagilar ustidan nazoratni ta'minlaydi:

- Bank faoliyatini tashkil etish, shu jumladan Bank strategiyasini, Bankning ichki hujjatlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

- Bank risklarini boshqarish va Bank risklarini baholash tizimining ishlashi;

- Bank operatsiyalarini va boshqa bitimlarni amalga oshirishda vakolatlarining taqsimlanishi (tashkiliy tuzilmasi);

- axborot oqimlarini boshqarish (axborotni olish va uzatish) va axborot xavfsizligini ta'minlash;

- ichki nazorat tizimini yaratish va uning ishlashi.

147. Bank Kengashi, Bank Ustavining O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiqligi yuzasidan monitoring va nazorat qilish uchun mas'ul bo'lgan Bankning vakolatli kollegial organini belgilaydi. Kengash Bankning vakolatli kollegial organining hisobotini tinglaydi, zarur bo'lganda, Bankning vakolatli kollegial organiga Bank Ustaviga kiritilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar loyahasini tayyorlashni topshiradi.

148. Bank Kengashi har yili «Komplayens-dasturini» (rejasini) va ichki auditning yillik rejasini ko'rib chiqadi. Bankning vakolatli kollegial organining «Ichki auditning natijalari va tavsiyalar to'g'risida» hisobotini ko'rib chiqish natijalariga ko'ra, Bank Boshqaruvi tomonidan ichki auditning tavsiyalarini bajarish zarurligi to'g'risidagi, yoki ichki audit davomida aniqlangan risklarni qabul qilish to'g'risidagi qarorni o'z ichiga olgan Kengash yig'ilishining bayonnomasi rasmiylashtiriladi.

149. Bank Kengashi, Bankning ichki hujjatlari, Bankning rivojlanish Strategiyasi, joriy bozor iqtisodiy vaziyatga, risklarning profiliga, Bankning moliyaviy salohiyatiga va O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiqligini, Bank va uning xodimlari Bankning siyosatlariga va boshqa ichki me'yoriy hujjatlariga rioya etishini, Bank xizmatlarini ko'rsatish davomida Bank tomonidan mijozlar murojaatlarini ko'rib chiqilishini, Bank Boshqaruvi komplayens-risklarni boshqarish siyosatini, ichki nazorat siyosatini bajarishi samaradorligini, Bank xodimlari ular orqali Bankning faoliyatiga oid buzilishlar haqida maxfiy bildirishi

mumkin bo'lgan tartib-taomillarning samaradorligini, ichki audit xizmati tomonidan Bank Boshqaruvi bilan ichki va tashqi audit masalalari bo'yicha o'zaro munosabatlarni va faoliyatini muvofiqlashtirishni ta'minlashni monitoring va nazorat qilish natijalari bo'yicha, Bankning sho'ba tashkilotlarida ichki audit tartibini, standartlarini va tamoyillarini joriy etishni tekshirish natijalari bo'yicha, tashqi auditor bilan shartnomaning shartlarini baholash va tahlil qilish natijalari bo'yicha, hamda kredit portfelining sifatini tahlil qilish natijalari bo'yicha tayyorlangan axborotni ko'rib chiqadi, hisobotlarni tinglaydi, va zarur bo'lganda, tegishli topshiriqlarni beradi.

150. Bank Kengashi tomonidan tasdiqlangan Bankning ichki kredit siyosatiga oid qoidalar, quyidagilarni hisobga oladi:

- Bank strategiyasi va Bankni kredit riskiga moyil qiladigan faoliyat turlari, Bankdagi riskning yo'l qo'yiladigan darajasi;

- Bank biznesining hajmi, xarakteri va murakkabligi;

- Bankning kredit riskiga moyilligining miqdori, uning Bankning moliyaviy holatiga ta'mirini baholash;

- riskni baholash natijalari, shu jumladan sezgirlikni tahlil qilish va stress-test o'tkazish orqali olingan natijalar;

- Bank avval qo'llagan kredit riskini boshqarish taomillarining samaradorligi;

- har qanday ehtimoliy ichki tashkiliy o'zgarishlar va (yoki) bozor sharoitlarining tashqi o'zgarishlari yuzasidan kutilmalar;

- O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq boshqa shartlar.

151. Bank tomonidan, Bankning ichki hujjatlariga zid bo'lgan va/yoki Bank bilan alohida munosabatlari bilan bog'liq bo'lgan shaxslar uchun imtiyozli shartlarni yaratuvchi operatsiyalar amalga oshirilishi imkonini istisno etish maqsadida, Kengash Bank tomonidan amalga oshiriladigan, risklar (kredit riski, foiz riski, likvidlikni yo'qotish riski, valyuta riski va boshqa risklar) bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalarni monitoring qiladi. Ushbu Bank operatsiyalari bo'yicha ma'lumotlar Bank Boshqaruvi tomonidan Kengashga zarur bo'lganda, va Bank Kengashining raisidan tegishli (yozma/og'zaki) so'rov olinganda taqdim etiladi.

152. Bank Kengashining vazifalari samarali bajarilishi maqsadida, Kengashda Bankning faoliyati to'g'risidagi to'liq, haqqoniy va o'z vaqtidagi ma'lumotlar muntazam asosda mavjud bo'lishini ta'minlaydigan axborot va hisobotlar ro'yxati, uning Kengashga taqdim etilishi tartibi va muddatlari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligining talablari bilan va Bankning ichki me'yorlari bilan belgilanadi.

153. Bank Kengashi Bank Boshqaruvining faoliyatini monitoring, nazorat qilish va baholashni amalga oshirishi maqsadida, Bank Kengashi:

- Bank Boshqaruvi faoliyatini baholash mezonlarini tasdiqlaydi;



- Bank Boshqaruvining kasbiy darajasi Bankning faoliyati turlariga, murakkabligi darajasiga va risklarining profiliga muvofiq ekanligini monitoring qiladi;

- kamida yil choragida bir marta risklarni boshqarish va ichki nazorat tizimini shakllantirish masalalari bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatning talablariga muvofiq boshqaruv axborotini oladi va Bank Boshqaruvining o'z faoliyati natijalari haqidagi hisobotini tinglaydi.

154. Bank Kengashi har yili Bank Boshqaruvining faoliyatini Bankning joriy moliya yiliga rejalashtirilgan maqsadlariga erishish jihatidan tahlil qiladi.

155. Bank faoliyatining natijalari joriy yilning maqsadli ko'rsatkichlariga mos bo'lmagan holda, Kengash o'z vakolatlari doirasida Bank Boshqaruvining a'zolariga nisbatan tegishli choralarni qo'llashi mumkin.

156. Bank Kengashi boshqaruv axboroti tizimining mavjudligini va ishlashini ta'minlaydi. Bank Boshqaruvi Kengashga moliyaviy va boshqaruv hisobotlarini taqdim etadi, ularning asosida Kengash Bankning o'tgan yil uchun moliyaviy ko'rsatkichlarini tahlil qiladi.

157. Bank faoliyati ustidan ichki nazoratni va risklarni boshqarishni yaxshilash maqsadida, Bank Boshqaruvi Kengashga Bankning tashqi auditorlari xulosasini taqdim etadi. Ushbu xulosa tashqi auditor Bank Boshqaruviga tegishli hisobotni taqdim etganidan keyin Kengashga taqdim etiladi.

### **XIII. Bank Kengashi huzuridagi Qo'mitalar**

158. Eng muhim masalalarni ko'rib chiqish va Bank Kengashiga tavsiyalarni tayyorlash uchun, Bank Kengashi huzurida quyidagi maxsus qo'mitalar faoliyat yuritadi:

- Audit qo'mitasi;
- Risklarni nazorat qilish, yirik va affilangan bitimlar, komplayens-nazorat bo'yicha qo'mita;
- Raqamlashtirish va kiberxavfsizlik bo'yicha qo'mita;
- Strategiya va investitsiyalar bo'yicha qo'mita;
- Tayinlashlar va mukofotlar bo'yicha qo'mita.

159. Har bir qo'mitaning faoliyati Bank Kengashi tomonidan ushbu qo'mita to'g'risida Nizomni tasdiqlash orqali tartibga solinadi.

160. Qo'mitalarning vakolatlariga kiruvchi masalalarni ko'rib chiqish, ichki audit masalalaridan tashqari, Kengash huzuridagi bir yoki bir nechta qo'mitalarning vakolatlariga kiritilishi mumkin.

161. Bank Kengashi huzuridagi qo'mitalar, muayyan qo'mitada ishlash uchun kerakli kasbiy bilimlarga ega bo'lgan Bank Kengashining a'zolaridan iborat. Har bir qo'mitaning miqdoriy va shaxsiy tarkibi Bank Kengashi tomonidan belgilanadi.

162. Bank Kengashi huzuridagi Qo'mitaga Bank Kengashi tomonidan tayinlangan Qo'mita Raisi rahbarlik qiladi.

### **XIV. Bank Kengashi Raisining va a'zolarining javobgarligi**

163. Bank Kengashining Raisi va a'zolari ularning ushbu Nizomda, Bank Ustavida, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida va bankning ichki me'yorlarida ko'zda tutilgan o'z vazifalarini bajarmasligi yoki teishlicha bajarmasligi uchun javobgar bo'ladi.

164. Bank Kengashining Raisi va a'zolari, Bank Kengashining harakatlari va (yoki) harakatsizligi tufayli Bankka yetkazilgan zararlar uchun qonunchilikda ko'zda tutilgan tarzda javobgar bo'ladi.

165. Ushbu Nizom tasdiqlanishi sababli, Bank aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi tomonidan 2020 yil 10 martda № 01/2020-son bilan tasdiqlangan «O'zsanoatqurilishbank» ATB Kengashi to'g'risida Nizom» va unga kiritilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar o'z kuchini yo'qotadi.

### **Kiritilgan:**

**«O'zsanoatqurilishbank» ATB  
Kengashi huzuridagi Korporativ  
maslahatchi**



**K.F. Alimov**